

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK _____

XUDAYBERGANOVA DILDORA QULMAMATOVNA

**MAVZU: XORAZM XALQ DOSTONLARI LEKSIKASIDA
NOFAOL QATLAM**

Mutaxassislik: 10.01.09. – Tilshunoslik

5 A120102 – LINGVISTIKA (o'zbek tili)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim qilingan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

Filologiya fanlari nomzodi dots.

S.S.Ro'zimboyev

URGANCH - 2017

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. DOSTONLAR TILIDAGI HUDUDIY CHEGARALANGAN

QATLAM.....	9
--------------------	----------

I.1. Dostonlar tilida leksik va semantik dialektizmlar.....	9
---	---

I.2. Frazeologik dialektizmlar.....	22
-------------------------------------	----

I.3. Dostonlar tilida fonetik dialektizmlar.....	31
--	----

I.4. Dostonlar tilida grammatik dialektizmlar.....	34
--	----

II BOB. DOSTONLAR TILIDA ISHLATILISH DAVRIGA KO'RA

CHEGARALANGAN QATLAM.....	43
----------------------------------	-----------

II.1. Dostonlar tilida arxaizmlarning nutqiy voqelanishi.....	44
---	----

A) Leksik arxaizmlar.....	44
---------------------------	----

B) Frazeologik arxaizmlar.....	46
--------------------------------	----

V) Grammatik arxaizmlar.....	52
------------------------------	----

II.2. Dostonlar tilida tarixiy so'zlarning nutqiy voqelanishi.....	55
--	----

III BOB. DOSTONLAR TILIDAGI CHEGARALANGAN QATLAMNING

GENEOLOGIK TAHLILI.....	69
--------------------------------	-----------

III.1. Dostonlar leksikasida turkiy qatlam.....	69
---	----

III.2. Dostonlar tilida forsiy qatlam.....	75
--	----

III.3. Dostonlar tilida arabiy qatlam.....	86
--	----

XULOSA.....	98
--------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	102
---------------------------------------	------------

KIRISH

O'zbek xalq og'zaki ijodining yirik va murakkab janrlaridan hisoblangan dostonlar xalqning o'ziga xos badiiy tarixi bo'lib, uning tarkibida xalqimizning ming yillik lisoniy boyligi o'zini namoyon qilib turadi. Bu ma'naviy meros asrlar bo'yi xalq ommasiga ma'naviyat baxsh etib kelgan buyuk obidalaridan biridir.

Hurmatli Prezidentimizning: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi”¹, deyishi bejiz emas.

Shunday ekan, dostonlar leksikasi, ularning til boyligi bizning ma'naviy boyligimiz hisoblanadi. Bu lisoniy boylikni tarixiy qadriyatlar asosida o'rganish, ularning qa'rida yashiringan buyuk qadriyatlarni milliy mafkura nuqtayi nazaridan tadqiq qilish ishimizning **dolzarbligini** belgilaydi.

Mavzuning o'rganilishi. Xalq dostonlarini lingvistik yo'nalishda o'rganish o'tgan asrning o'rtalaridan boshlangan.

Shevashunos olim Sh.Shoabdurahmonov badiiy asar tilini adabiyotshunoslik va tilshunoslikning stilistikasi sifatida o'rganish lozimligini qayd qiladi².

Tilshunos I.Qo'chqortoyev esa ushbu qaydni yanada rivojlantiradi. Uning ta'kidlashicha, “...badiiy nutq adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilganda tadqiqotchining butun diqqat-e'tibori asarning obrazlar sistemasiga qaratilgan bo'ladi, buning orqasida mazkur obrazlar qanday lingvistik usul va vositalar bilan yaratilgani ko'pincha e'tibordan chetda qoladi”³.

Shevashunos X.Doniyorov “Qipchoq shevalarini o'rganishda xalq dostonlarining roli” maqolasida dostonlar tilining fonetik xususiyatlariga

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б.30.

² Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” дostonининг тили ҳақида. // Эргаши шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни. –Т.: Фан, 1971. –Б. 146-172.

³ Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. –Т.: ТошГУ, 1975. –Б.7-8.

e'tiborni qaratadi⁴.

A.Ishayevning “Xalq dostonlari leksikasidan” maqolasida bizning mavzuga aloqador yaxshi fikrlar bildirilgan. Unda ta’kidlanishicha, “Xorazm xalq dostonlari tilida ko’pchilik o’zbek shevalariga (shuningdek qozoq tiliga) xos bo’lmagan, ammo Xorazm shevalari (Xorazmdagi o’g’uz va qipchoq lahjalari hamda turkman, qoraqalpoq tillari) uchun xos bo’lgan arna // orna (anhor), yob (ariq), solma (ariqcha), ajab (xo’p), mardosh (chordona), cho’girma (barra terisidan qilingan bosh kiyimi), yoshulli (oqsoqol), mazi (shunchaki), doyi (tog’a), chiqon (dugona), dosh (uzoq), otiz (yer maydoni), adan (poygoh) singari bir qator so’zlar majud⁵.

A. Ishayevning “Dostonlar tilining ba’zi bir xususiyatlari” maqolasi Ergash Jumanbulbul repertuaridagi dostonlar tiliga bag’ishlangan. Shevashunos olim bu tadqiqotida: “Ergash Jumanbulbul dostonlarida faqat hozirgi o’zbek adabiy tili va o’zbek shevalaridagi morfologik xususiyatlarga emas, balki ayrim turkiy tillarda, shuningdek, qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda mavjud ba’zi morfologik xususiyatlar ham saqlangan”⁶, degan xulosaga keladi.

D.Abdurahmonov va X.Bektemirovlarning “O’zbek xalq dostonlari onomastikasi” maqolasida ham yaxshigina kuzatishlar uchraydi. Tadqiqotda parallel nomlar, laqablar, etnonimlar, ot nomlari, ism qo’yishdagi rasm-rusumlar bilan aloqador qator jihatlar o’z tahliliga ega bo’lgan⁷.

Keyingi yillarda S.Tursunov “Alpomish” dostonining leksik xususiyatlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yozib, qator maqolalar e’lon qildi⁸.

Z.T.Xolmonovanning “Shayboniyxon” dostoni leksikasi nomli dissertatsiyasida ham biz so’z yuritayotgan muammolarga tegishli qator jihatlar

⁴ Дониёров Х. Қипчоқ шеваларини ўрганишда халқ дostonларининг роли. // Ўзбек халқ ижоди. –Т.: Фан, 1967. –Б. 162-166.

⁵ Ишаев А. Халқ дostonлari лексикасидан. // Ўзбек халқ ижоди. –Т.: Фан, 1967. –Б. 168-169.

⁶ Ишаев А. Дostonлар тилининг баъзи бир хусусиятлари. // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликидаги ўрни. –Т.: Фан, 1971. –Б.179. (173-179)

⁷ Абдурахмонов Д. Бектемиров Х. Ўзбек халқ дostonларининг ономастикаси. // Ўзбек халқ ижоди. –Т.: Фан, 1967. –Б.177-197.

⁸ Қаранг: Турсунов С. “Алпомиш дostonи лексикасини ўрганишга доир. // “Ўзбек тили ва адабиёти”. - 1986, №3. –Б.36-39;

mavjud⁹. Ishning ilk bobida so'zlar genetik jihatdan tavsiflangan, ular qo'llanilish miqdoriga ko'ra guruhlarga ajratilgan. Ikkinchi bobda doston leksikasi mavzuiy guruhlarga ajratilgan. Oxirgi bobda doston leksikasi shakl va mazmun munosabatiga ko'ra tahlilga tortilgan.

Mazkur tadqiqot doston leksikasining turg'un holati qiyofasini, adabiy til, shevalar, yozma tarixiy yodgorliklar tiliga munosabatini ko'rsatib berishi jihatidan qimmatlidir.

Ishimizga taalluqli yana bir tadqiqot J.Xolmurodovaning "Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional xususiyatlari"¹⁰ nomli nomzodlik dissertatsiyasidir. Ishda leksik birliklarning nominativ ehtiyoj tufayli yuzaga kelishi va doston matnidagi asosiy kommunikativ funksiyasi, badiiy adabiyot tili bilan xalq dostonlari tilining o'ziga xos hamda mushtarak tomonlari, dostonlar tilida ishtirok etgan leksemalarning adabiy til hamda dialektal frazeologik birliklarga munosabati, leksik birliklarning badiiy-uslubiy turli ko'chimlar vazifasida qo'llanilishining tadqiq etilayotgan dostonlar sujet chizig'i hamda g'oyaviy mazmuni bilan aloqadorlik tomonlari, leksik birliklarning nominativ-tasviriy va badiiy uslubiy qo'llanilishida lug'aviy an'anaviylik va lisoniy individuallik munosabatlariga xos ba'zi qonuniyatlar tadqiqi o'z ifodasini topgan.

Dostonlar leksikasi masalasida S.S.Ro'zimboyevning "Janubiy Xorazm dostonlari tilining lug'aviy-ma'noviy tahlili ("Shahriyor" va "Malikai Zavriyo" dostonlari asosida) nomli nomzodlik dissertatsiyasi ham e'tiborga loyiqdir¹¹.

Dissertatsiya ishida dostonlar tilida ishlatilgan lug'aviy qatlamlar, lug'aviy birliklarning mavzuiy guruhlari, ularning shakliy va ma'noviy xususiyatlari, dostonlar tilining o'zbek adabiy tili va Xorazm shevalariga munosabati, ularning matndagi badiiy-estetik va funksional –uslubiy xususiyatlar keng doirada tahlil etilgan.

⁹ Холмонова З.Т. "Шайбонийхон" достони лексикаси. Номзод. Дисс. Автореферати. –Т.: 1998. –Б.24.

¹⁰ Холмуродова Ж.И. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал –услубий хусусиятлари ("Хирмондали" ва "Қирқ минглар" дostonлари асосида) номзод. Дисс. Автореферати. –Т.: 2000. –Б.24.

¹¹ Рўзимбоев С.С. Жанубий Хоразм дostonлари тилининг луғавий –маъновий таҳлили. ("Шаҳриёр" ва "Маликаи Завриё" дostonлари асосида) Номзод. дисс. Автореферати. –Т.: 2000. –Б.25.

R.Yo'ldoshevning “Toshhovuz viloyatidagi o'zbek shevalarining leksik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasida mintaqadagi o'g'uz shevasi leksikasi, uning turkman va qoraqalpoq tillari bilan o'zaro aloqasi masalasi yoritilgan bo'lib, ishdagi ko'pgina leksik birliklar biz tahlil qilayotgan dostonlar tiliga juda yaqin keladi¹².

Biz ushbu ishlarga tayangan holda Xorazm dostonlari tilidagi chegaralangan qatlam va ularning doston leksikasida tutgan o'rni xususida fikr yuritishni maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Xorazm dostonlari jamlangan “Oshiqnoma” majmualarining olti kitobi, 16 shoxobchani o'z ichiga olgan “Go'ro'g'li” turkumi dostonlari tarkibidan joy olgan chegaralangan qatlamga oid so'zlarning umumlashma tahlili tanlangan mavzuning obyekti va predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Xorazm dostonlari tarkibidagi chegaralangan qatlamning lug'aviy ma'noviy xususiyatlarini tahlil qilish va ularni lisoniy tamoyil asosida tasnif doirasiga tortish muammolari maqsad qilib olindi va buni amalga oshirish uchun tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

-Dostonlardagi leksik dialektizmlarni frazeologik, fonetik va grammatik turlarga ajratib tahlil qilish;

-Dostonlar tilidagi ishlatilish davriga ko'ra chegaralangan qatlamning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;

-Dostonlar tilidagi chegaralangan qatlamning geneologik tahlilini amalga oshirish;

-Dostonlar leksikasidagi chegaralangan qatlamning badiiy nutqda tutgan o'rnini yoritib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda dostonlar tilidagi dialektizmlarning mintaqaviy o'ziga xosligi tadqiq qilinadi. Arxaizmlarning leksik, frazeologik, grammatik turlari aniqlandi. Dostonlarning ko'chirilgan

¹² Йўлдошев Р. Тошхўвўз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хўсўсиятлари. Номзод. дисс.автореперати. –Т.: 2002. –Б.20.

davriga nisbatan ham qadimiyroq bo'lgan arxaik so'zlarga tavsif berildi.

Dostonlar tilidagi o'zlashma qatlam tahlilga tortilib, turkiy qatlamning nufuzi aniqlandi va ko'plab so'zlar "Devonu lug'atit turk"dagi leksik birliklar bilan qiyoslandi. Chegaralangan qatlamning dostonlar badiiyatidagi ishtiroki va ahamiyati yoritib berildi. Ushbu muammolarning ilk marotaba monografik doirada tadqiq etilishi ishimizning ilmiy **yangiligini** belgilaydi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazi. Dissertatsiya ishida badiiy asarlarda qo'llaniladigan chegaralangan qatlamning asosiy mohiyati ilk marotaba Xorazm dostonlari materiallari asosida batafsil tadqiq qilindi. Mazkur qatlamning hozirgi davr badiiy adabiyotida qo'llanilish xususiyati bilan dostonlarda ishlatilish sabablarining o'zaro farqi ochib berildi.

Shu omillardan kelib chiqqan holda ishning farazi tubandagilardir:

1. Dostonlar tilida dialektizmlar muhim o'rin tutadi. Ularning mintaqaviy xarakterini yoritish, tasnif qilish va ma'noviy xususiyatlarini ochib berish shevashunoslik yo'nalishiga muhim ulush qo'shadi.

2. Xorazm dostonlarining aksariyati XIX asrlarda yozuvga ko'chirilganligi sababli ularda ishlatish davriga ko'ra chegaralangan qatlamning salmog'i ancha katta. Ular orasida xorazmiy tili elementlari ham ko'plab uchraydi. Ushbu qatlamni tadqiq qilish til tarixi uchun muhim materiallar bera oladi.

3. Dostonlardagi til boyligining geneologik asoslarini tahlil qilish, o'zlashma qatlamning xalq ijodiyotida namoyon bo'lish sabablarini ochib beradi. Turkiy qatlamning boyishida, dostonlar badiiyatini yuksaltirishda forsiy va arabiy qatlamning roli ko'rsatib beriladi. Bu masalani yoritish xalqlar do'stligi, ularning iqtisodiy-madaniy aloqalarining qadimiyligini isbotlab beradi.

4. Chegaralangan qatlamning tadqiq qilinishi badiiy nutqning barkamol chiqishida ularning samarali ta'siri borligini, til boyligining muhim zahiralaridan biri ekanligini namoyish qiladi.

Tadqiqotning metodikasi tavsifi. Tadqiqot jarayonida boy materiallarni bir tizimga tushirish, tahlil qilish va umumlashtirish. Ketma-ketlik, mavzuga oid

ilmiy qarashlarni jamlab o'rganish va qiyosiy tahlil qilish metodi ustuvorlik qildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot yechimini topgan ishlanmalardan “Shevashunoslik”, “O'zbek tili tarixi”, “Leksikologiya” kabi fanlar bo'yicha yoziladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalari, shuningdek ilmiy seminarlarda foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 105 bet.

I BOB. DOSTONLAR TILIDAGI HUDUDIIY CHEGARALANGAN QATLAM

1.1. Dostonlar tilida leksik va semantik dialektizmlar.

Dostonlarning og'zaki variantlari leksikasi jonli so'zlashuv tili bilan uzviy aloqaga ega. Shu sababli ularda shevaga oid so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Til o'zgaruvchan hodisa bo'lganligidan uning lug'at tarkibi doimo o'zgarishga uchrab, ayrim so'zlar kirib kelsa, ayrim so'zlar iste'moldan chiqib boradi.

Bu hodisa dostonlar tiliga ham daxldordir. Sheva so'zlari ham eskirib, yangilanib boradi.

Sheva so'zlarini dialektizmlar deb yuritiladi.

B.Fayzullayev dialektizmlar masalasini atroflicha o'rganib shunday yozadi: "Ayrim sabablarga ko'ra va ma'lum maqsadni ko'zlab adabiy til tarkibida qo'llaniladigan, unda ma'lum bir vazifani bajaradigan alohida bir dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan so'z va so'z birikmalari dialektizmlardir"¹.

Bu ta'rif yozma adabiyotda qo'llaniladigan sheva so'zlarini o'z doirasiga qamrab oladi. Biz fikr yuritayotgan dostonlar esa sheva so'zlari asosida yaratilgan. Shu sababli ularning tarkibidagi sheva so'zlari ma'lum bir maqsadni ko'zlab maxsus kiritilgan sheva elementlari emas. Dostonlardagi sheva masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, uning doirasi nihoyatda keng. Bu yerda biz faqat semantik jihatdan adabiy tildagidan tubdan farq qiluvchi so'zlarnigina tahlil qilishni lozim topdik.

1. Ot turkumi:

Adan - poygak.

Adannan oshganda to'ra,

O'lturma, o'rningni so'ra. (G. 217-bet.)

Al - qo'l.

¹ Файзуллаев Б. Дialektizmlar va ularning badiiy adabiyetdagi ўрни. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1977, №4. –Б.35 (35-38)

Parizod **alina** tillo sozini olib, Go'ro'g'lining nasl- nasabini so'rab bir so'z aytdi. (G. 68-bet.)

Aravak - burunga osadigan bezak buyum. *Gulshirin isrg'a, aravaklarini qulog'iga qistirib tovsday tovlanib chiqib salom berdi.* (G. 347-bet.)

Bo'ka - jo'xoripoyaning bo'laklari.

Sakkiz yigitni yotqizib bo'ka tuzganday tizib qo'ydi. (G. 103-bet.)

Gashir - sabzi. *Tovonining izi gashir uraday bor edi.* (G. 136-bet.)

Danjik - jangari. *Go'ro'g'li uylangandan keyin ham danjikligini qo'ymadi.* (G. 74-bet.)

Dandon - taroq, tish.

Yomon so'zni yod aylayur,

Tirnog'i dandona do'nar. (G. 267-bet.)

Domoq - ovqat. *Mening domoq-oyoqimnan qarab turasiz dedi.* (G. 232-bet.)

Davla - yog' idish. *Go'ro'g'li moydavladay tebranib turaverdi.* (G. 148-bet.)

Dallik – jul, otning yoping'ichi.

Zangi - uzangi.

Dallikini etsam zardan,

Zangisi tillo egardan. (G. 38-bet.)

Do'g'ma - farzand ma'nosida. *Elimga yurtimga egalik qiladigan do'g'mam bormi, deb qarasa, uch do'g'masi uch xili.* (G. 17-bet.)

Dolon - uyga kiraverishdagi katta dahliz, foy'e. *Parizod dolonning uyoqinnan buyoqina o'tib, tomosha qilib turgan edi.* (G. 359-bet.)

Daltak - o'simlik nomi.

Barzangining murtlari daltakning poyasiday edi. (G. 342-bet.)

Jolotoy - bezori. *Dehqonchilik qo'lidan kelmaydigan jolotoy toifa yigitlardan elliktasini yig'ib berdilar.* (G. 51-bet.)

Joqoy - to'y boshi.

Go'ro'g'lining o'zi to'y boshi, joqoy bo'lib bir so'zlarni aytabirdi. (G.327-bet.)

Zomcha - handalak.

*Ustabodom qo'liga **zomchaday** bir bo'lak go'shtni oldi.* (G. 308-bet)

Zangi - shoti. ***Zangisi** tillo egardan.* (G. 38-bet.)

Yova - Panshaxa. *Kampirning tishlari **yovaday** bir balo edi.* (G. 211-bet.)

Yop - anhor.

*Ikki yoqdan shovullab **yop** oqib turgan bir go'zal joy edi.* (G. 62-bet.)

Isqin - kuch-quvvat.

*Go'ro'g'libek G'irotda qarab ikkimizda ham **isqin** yo'q, dedi.* (G. 447-bet.)

Ilg - qo'l. *Seni **ilgima** olarman,*

Qayt endi Rayxon o'lasan. (G. 90-bet.)

Yildirim - yashin, chaqmoq.

*Ot osmonga **yildirimday** otilib qal'a devoridan oshdi.* (G. 241-bet.)

Kuma - yerto'la.

*Go'ro'g'li otini **kumaga** qamab yemlab boqaverdi.* (G. 39-bet.)

Kadi—oshqovoq.

***Kadi-kadiga** qoqilishganday bo'lib, kallalar yumalanaverdi.* (G. 184-bet.)

Kurra - xo'tik.

*Safar ko'sa yemdan qolgan **kurraday** ichikib yotaberdi.* (G. 267-bet.)

Kudi - uyum. *Yontoq **kudusining** yoniga kelib o'tirdi.* (G. 135-bet.)

Minnos - tiyin.

*Sadaqam bor tuman **minnos**,*

Madad bergin Xizr Ilyos. (G. 235-bet.)

Oyo - kaft. *Bir alining **oyosining** qichig'i ketsin deb, bu askarlarni olib keldim, dedi Avazxon.* (G. 207-bet.)

Oxtiq - nevara. Oqlik so'zining o'zgargan shakli.

*Jig'olibek shunda **oxtiqiga** qarab bir so'z aytdi.* (G. 21-bet.)

Og'abey - yigit boshi.

*Safar mahram yigitlarning yoshullisi, **og'abeyi** edi.*(G. 328-bet.)

Orja - sandiqqa o'xshash anjom.

*Ma senga ikki olma deb, **orjani** ochdi.* (G. 299-bet.)

Sumak - qoziq.

*Tegirmonga **sumak** qoqqanday bo'lib, yerga qoptirdi.* (G. 156-bet)

Sirg'iyo - bezori, jangari.

*Go'ro'g'li degan **sirg'iy**o bir yigit bor, -dedi Laka shox* (G.99 -bet)

Sozoq - saksovul.

***Sozoq** o'tindan o't qalab, Go'ro'g'liga choy-chilim berdilar.* (G. 191-bet.)

Suri - qo'y podasi.

***Suridagi** gechilardan biri mozorga qarab ketar edi.* (G. 19-bet)

Sirish - yopishqoq narsa, kley. *Egarni mozor yonboshiga qo'yib **sirish** surtish kerak dedilar.* (G. 20-bet.)

Tanqa - choydosh.

*Shishmagan joyini **tonqaday** etib haydab yubardi.*(G. 302-bet.)

Taka - bolish (Tak'ya so'zidan) *Jig'olibek endi **takaga** yonboshlagan edi, o'g'li Ganjimbek kirib keldi.* (G. 18-bet.)

Toyloq - itboz. *Qo'chqorbozlar, kurashbozlar, **toyloqlarni** yig'ib o'tirgan ekanlar.* (G. 117-bet.)

Topo - kinoya. *Qilmadi bizga vafoni,*

*Qirq yigit etar **toponi**.* (G. 202-bet)

Tuta - g'altak, *Xo'pnishon pari ikki **tuta** bergan edi, bittasini isqatsa o'rnidan turadi, deb.* (G. 117-bet.)

Tuxum - urug'.

*Bu arabning otidan bir amallab **tuxum** olib qol, dedi Jig'olibek.* (G. 33-bet.)

Xo'stor - homiy. *Safar mahramga ko'zi tushib, **xo'stor**- xovondor topganday bo'lib bir she'r aytdi.* (G. 339-bet.)

Uchak - tom. *Odamzod o'rda-qirda, **uchakda**-katakda kunini ko'rib yuraveradi. Ammo senga qiyin dedi Go'ro'g'li.* (G. 454-bet.)

Chuy - mix.

***Chuylangan** taxtaday bo'lib, bir-biriga yopishib qoldilar.* (G. 112-bet.)

Chaga - qum. *Otxonaning **chaga** otadigan teshigini topibdi. Shunda G'irot Go'ro'g'liga qarab intilaverdi.* (G. 226-bet.)

Chakar - quduqdan suv tortadigan chelak.

*Gulshirin uyining oldida **chakar** bilan suv tortib turgan edi.* (G. 339-bet.)

Chizim - ip, chilvir. *Go'ro'g'li chakmonini kiyib ustidan **chizim** bilan mahkam bog'lab, o'q yoyini olib yo'lga tushdi.* (G. 334-bet.)

Chotma - chordoq. *Jig'olibek shu kundan boshlab shaharning bir chetida **chotma** tikib seyischilik bilan mashg'ul bo'ldi.* (G. 24-bet.)

Shog'ol - chiyabo'ri. *Ey Jig'olibek suvdan chiqqan **shog'olday** bo'lib, mening oldimda nishatib turibsan, dedi podsho.* (G. 23-bet.)

Chaqon - g'ilay. *Qizil ot bo'lsa ko'pincha **chaqon** bo'ladi, kunning ko'ziga qarab hayda, dedi Jig'olibek.* (G. 28-bet)

O'jak - buzoq. *Ey parizod bu kengashingni havlidagi olti **o'jakka** to'g'rab ber, dedi Go'ro'g'li.* (G. 278-bet.)

Et - go'sht. *Omon arab bir o'tirishda bir tuyaning **etini** yeb oldi, bir qozon sho'rvani boshiga ko'tardi.* (G. 131-bet.)

O'kcha - tovon. *Go'ro'g'li Safar ko'sani oldin yubarib, izidan yigitlari bilan **o'kcha** o'nglab boraverdi.* (G. 363-bet.)

Qorinja – qumursqa. *Avazxon shu borishida qora **qarinjaday** askarlarning o'rtasida qoldi.* (G. 177-bet.)

Qopi - eshik.

*Go'ro'g'li **qopida** turib bu gaplarni eshitib turgan edi.*(G. 65-bet.)

Jumbirdi - qaltiratma.

*Go'ro'g'lining so'zini eshitib, To'qmoq Sultonning yog'irniga bir **jumbirdi** kiraverdi.* (G. 190-bet.)

Timtirschilik - tinchlik, osoyishtalik.

*Lakashoxning yurti **timtirschilik**, dedi yigitlar.* (G. 101-bet.)

2. Sifat turkumi.

Balli – aniq. *Bu bolaning o'g'il qizligini, **ballilamak** uchun mozorning yonboshiga bir oshiq bilan bir qurjoq qo'yish kerak, dedilar.* (G. 20-bet.)

Dapang - yirik.

*Ostida mingani **dapang** fili bor,*

Gaplashganda bizdan o'zga tili bor. (G. 165-bet.)

Do'mbo'yin - manman, o'zboshimcha,

Odam bo'lsang yaxshilarga quloq sol,

Do'mbo'yinlik mard yigitga yarashmas. (G. 314-bet.)

Kaj - xudbin, teskari, ters.

Kaj falak azob ayladi,

Xunxorshoh g'azab ayladi. (G. 25-bet.)

Mocha - urg'ochi, moda so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli.

*Karamdalini bo'yniga tosh to'ldirilgan to'rva osib, bir **mocha** eshakka mindirib, Xunxorshoh tomonga haydab yubardilar. (G. 180-bet.)*

Salav - mijg'ov.

*O'rtanchi o'g'il ep-kupsiz **salav** bir bola bo'lib duradi. (G. 17-bet.)*

Sara - zo'r. *Ey ko'sa, bu otni keltirgan yigit ko'p **sara** yigit ekan. Buni siylab iziga qaytarib yubar, dedi Go'ro'g'li. (G. 180-bet.)*

Yilimji - xushomadgo'y.

*Kampir Go'ro'g'lini tanigandan keyin **yilimjiliqqa** o'tdi. (G. 229-bet.)*

Orqayin - xotirjam. *Go'ro'g'li G'irotni o'z yo'liga yubarib Changlibel nerdasan deb **orqayin** kelaverdi. (G. 243-bet.)*

Toza - yangi. *Qirq kosaga sharob quyib, **toza** liboslarni kiyib tovusday tovlanib, Xumoyun qushdek yashnab o'tiraverdi. (G. 392-bet.)*

Laqashak - holdan toygan.

*Og'a Yunusning bu gapini eshitib Go'ro'g'li nishatarini bilmay **laqashaq** bo'lib o'tiraverdi. (G. 256-bet.)*

Purob - mo'l-ko'l.

*Sogo **purob** etsin ikki olamni,*

Yunus pari Haq eshitsin nalamni. (G. 265-bet.)

Nosoq - aybdor. *Oting **nosoq**, o'zing yaroli kelding. (G. 286-bet.)*

3. Ravish turkumi.

Baxtar - oldi, peshonasi, manglayi. *Ko'na yopning qoptolinda, quyoshning baxtarinda otlaridan tushib, otlarni o'tga yubardilar.* (G. 101-bet.)

Gunorta - tush mahali.

Parizodim oh tortadur,

*Vaqt ulli **gunortadur.*** (G. 164-bet.)

Go'gim - shom payti.

*Go'ro'g'li **go'gim** tushgan paytlarda qal'aning ichiga kirdi.* (G. 220-bet.)

Ko'sh-ko'sh - harakat, holat. *Vazir-u ulamolar ham kampirni yaxshi bilganlikdan podshoga **ko'sh-ko'sh** bo'lib, kampirni chordog'li Chamlibela yuborishni ma'qul topdilar.* (G. 211-bet.)

Olazarak - qo'rqa-pisa.

Qoshlaganda qo'llar yetmas boshina,

Olazarak boqar boqar degra doshina. (G. 41-bet.)

G'arpa - shartta, birdan. *Go'ro'g'lini **g'arpa** quchoqlayin deb talpingan edi, ammo eshikdan o'tolmay qoldi.* (G. 11-bet.)

G'ilmildi - tashvishga tushmoq. *Shunda podshohning ichiga ulli **g'ilmindi** kirib ketaverdi.* (G. 410-bet.)

4. Fe'l turkumi.

Andimoq - poylamoq. *Go'ro'g'li ham qani bularni bir **andib** ko'ray, ne kora odamlar ekan, dedi.* (G. 222-bet.)

Bo'kchimoq - sakramoq. *Bu sas Go'ro'g'lining qulog'iga yetib, bir **bo'kchib** tushdi, borib yengasiga aytdi.* (G. 33-bet.)

Bo'ktarmoq - yuklamoq. *Mehrom va Qambarlar otlarga oziq ovqatlarni **bo'ktardilar.*** (G. 90-bet.)

Buqmoq - pisib turmoq. *Arablarining biri tog'ning kavagida **buqib** yotgan edi.* (G. 138-bet.)

Go'nanmoq - bir narsaga ega bo'lmoq. *Go'ro'g'li aytdiki, ammo otdan go'nandik, bu maxluq o'n yildan keyin ham bir botmon yukning tagida qolar.* (G. 37-bet.)

Gazanmoq - hujum qilmoq uchun intilish.

*Bir qiz keladur bezanib,
G'amza qilichin gazanib.* (G. 81-bet.)

Gizlamoq - yashirmoq.

*Biz bilmadik, qaysi gulni izlarsiz,
Na sirlarni sizlar bizdan **gizlarsiz**.* (G. 335-bet.)

Do'nmoq - so'zidan qaytmoq.

*Tubi yog'och kamoliday kamoling,
Dolga do'nar, hech alif-lom topilmas.* (G. 320-bet.)

Do'ramoq - tug'ilmoq. *Chamlibel viloyatida Jig'olibek degan o'tdi, undan uch o'g'il **do'radi**.* (G. 17-bet.)

Zingmoq - otib yubormoq. *Toy bo'ynini ko'tarib, daryoning narigi tarapiga qarab, bir **zingdi**. Qirg'oqdan qirq gaz bariga kelib tushdi.* (G. 38-bet.)

Irkilmoq - kechikmoq. *Bir vaqt ko'zi **irkilgan** ekan, otning kishnashiga uyg'onib ketdi.* (G. 25-bet.)

Mulkimoq - ko'zi ilinmoq. *Qalandarlar yangi kelgan qalandarning dutor chirtishiga quloq solib, **mulkib** qoldilar.* (G. 222-bet.)

Ko'ndarmoq - jo'natmoq.

*Ko'zim och otimni ko'rayin,
O'z yurtimga **ko'ndarayin**.* (G. 141-bet.)

Ichi ovushmoq - achinmoq. *Qarasalar, Arab Rayxon insofga kelibmi, yo qiziga ichi **ovushibmi**, Gulandonni ikki tuya yuk bilan Chamlibelga jo'natib yubardi.* (G. 97-bet.)

Yorishmoq - musobaqaga chiqmoq. *Go'ro'g'li **yorishib** o'tirishning foydasizligini bilib, qachon bo'lsa ham bu arabdan qasd olishni ko'ngliga tugib qo'ydi.* (G. 33-bet.)

Sar solmoq - kuzatmoq. *Go'ro'g'li sar solib qarasa Xandon botirning qiladigan ishining mazasi yo'q.* (G. 123-bet.)

Uramoq - jo'nab ketmoq. *Qalandarlar ne qilarini bilmay yo xu deb, eshaklariga minib, urayvardilar.* (G. 33-bet.)

Qor etmoq - arazlamoq. *Avazning qor etib Vayongonga ketishi va qaytib kelish tarixi shundan iborat.* (G. 195-bet.)

G'obirishmoq- yanglishmoq (qipchoq shevasi) *Go'ro'g'li g'obirishmosdan o'ng qo'lidagi tutani oldi, uni asta isqatdi.* (G. 117-bet.)

Elanmoq - yolvormoq (qipchoq shevasi)

Arabning qo'lida tang'ilib turgan vaqtda, meni elantirib turishing qabohat emasmi, dedi Go'ro'g'li. (G. 155-bet.)

Hazatmoq - maza qilmoq.

Go'ro'g'lining palovini yeb, sharobini ichib, issiq joyda hazzatib maishat qilib yotdingizlar, endi tashlab qochasizlarmi. (G. 53-bet.)

“Go'ro'g'li” dostonlari Xorazmda o'g'uz va qipchoq lahjalarida so'zlaydigan baxshilar repertuari orqali ommalashgan. Shu sababli Janubiy Xorazmdagi baxshilar kuylaydigan dostonlarda o'g'uz elementlari, Shimoliy Xorazmda yashovchi baxshilar ijrosidagi dostonlar leksikasida qipchoq lahjasiga xos so'zlar ustuvorlik qiladi. Masalan:

Janubiy Xorazmda	Shimoliy Xorazmda	Adabiy tilda
Tir	Zog'oma	Kepchik
So'qi	Keli	Keli
Sarxum	Shangil	Xumdan suv olinadigan idish.
Ittirsak	Tviskan	Chipqon

Dostonlarda ishlatiladigan leksik dialektizmlarning aksariyati qadimgi turkiy tilga, bir qismi xorazmiy tiliga, yana bir qismi o'zlashma so'zlarga aloqadordir.

Ushbu toifa soʻzlar dostonlarda badiiy nutqqa sayqal beradi. Ularning ishtirokisiz badiiy matnni tasavvur qilib boʻlmaydi.

Semantik dialektizmlar. Dostonlar tilida ishlatilgan ayrim dialektal soʻzlar adabiy til tarkibidagi soʻzlarga shakl va talaffuz jihatidan mos kelsa ham maʼnosiga koʻra jiddiy farqlarga ega.

Xorazm dostonlari leksikasida bu holat ayniqsa yorqin koʻzga tashlanadi.

Tuxum. Shevada **nasl**, **urugʻ** maʼnosida ishlatiladi:

*Maslahatim shuki, bu arabning otidan bir amallab **tuxum** olib qol, dedi Gulandom.* (Goʻroʻgʻli, 33-bet.)

Toy. Shevada **teng**, **barobar** maʼnosini anglatadi.

*Urushda mingga **toy** boʻlgan,*

Oysultondek singlim bordur. (Goʻroʻgʻli, 373-bet.)

Poy. Shevada **ulush** maʼnosiga ega.

*Bular Xunkorga yordam beradi, **poy** beradi deb ularni yemirding.*

(Goʻroʻgʻli, 124-bet.)

Patta. Doston leksikasida **uyum** maʼnosida ishlatilgan.

*Qirq – ellik **patta** yantoq bor edi.* (Goʻroʻgʻli, 135-bet.)

Dov. Doston matnida **omad**, yutuq, maʼnosiga ega.

Urushsang chiqgʻil maydona,

***Dov** seniki yo meniki.* (Goʻroʻgʻli, 205-bet.)

Top. Shevada xuddi, aynan degan maʼnolarda qoʻllaniladi. *Bu odam sitorasi, sumbatiga qarasang **top** Goʻroʻgʻlining oʻzi.* (Goʻroʻgʻli, 249-bet.)

Xom. Shevada **teri** maʼnosini ham anglatadi.

Yomon yurakni yaralar,

***Xoming** oshlab qochar seni.* (Goʻroʻgʻli, 444-bet.)

Afsona. Doston tilida **sheʼr**, soʻz maʼnosida qoʻllangan - *Bizning elda soʻzni soz bilan ayturlar, deb bir **afsona** aytdi.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 88-bet.)

Toza. Shevadagi soʻzlashuv nutqida **yangi** maʼnolarida ishlatiladi.

Jonim toza oʻt solding, Bozirgon. (Goʻroʻgʻli, 376-bet.)

*Bu **toza** qalandarning dutor chertishiga mulkib qoldilar.* (Goʻroʻgʻli, 222-bet.)

Bayroq. Doston leksikasida mukofot, hadya ma'nolarida qo'llangan.
Podshongizni uch kunda enadin toza tug'ilgandek etib bayrog'ina ot minib, to'n kiyib ketmakka keldim,-dedi Qosim. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 98-bet.)

Oy. Doston tilida **pokiza, puxta** ma'nolarida qo'llangan.
Kozim farzandini oy yuvib, oy tarab bir yil nom qo'yishga tayyorladi.
("Oshiqnoma", 6-kitob, 85-bet.)

Bedavlat. Shevada **oilasiz, farzandsiz, sayoq** ma'nolarida ishlatiladi.
Hammasidan ham Go'ro'g'liga qattiq botgani uning "bedavlat" degani bo'ldi.
(Go'ro'g'li, 57-bet.)

Nochor. Doston leksikasida **ayol** ma'nosida ishlatilgan.
Qizim kishi galinidir,
Tashla, Go'ro'g'li, nochorni. (Go'ro'g'li, 311-bet.)
Taka. Shevada yostiq, bolish ma'nolarida ishlatiladi.
To'shakning ustidan to'qqiz takani ham qo'yib Rayhon arab uxlab yotibdi.
(Go'ro'g'li, 77-bet.)

Bu so'zlarning deyarlik barchasi o'g'uz lahjasiga oid bo'lib, xalqning og'zaki nutqida haligacha uchraydi.

Etnografik dialektizmlar. Ushbu toifaga kiruvchi dialektizmlar doston voqealarida ishtirok etuvchi obrazlarning portretini berishda, turli kasb-korlar va urf-odatlarini tasvirlash jarayonida qo'llaniladi. Ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Kiyim-boshlarga aloqador dialektizmlar.

Bosh kiyimlari.

Tumog'a - xotin-qizlar uchun qorako'l teridan ustiga oltindan jig'a qo'yib ishlangan bosh kiyimi.

Boshinda to'p jig'a, tillo tumog'a,
Sollona-sollona kelgan qorako'z. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 122-bet.)

Qubba - xotin-qizlarning misdan qubba shaklida ishlangan bosh kiyimi.
Boshlarina zar qubbalar taqmishdir. (Go'ro'g'li, 59-bet.)

G'ulpoq - xotin-qizlar bosh kiyimi (qalpoq)

*Boshinda zardin **g'ulpoqi**,*

Parilardan zoti bordur. (Go'ro'g'li, 315-bet.)

Qarqara - xotin-qizlar bosh kiyimi.

***Qarqarasi** zarafshonlim, xo'sh endi. (Go'ro'g'li, 404-bet.)*

Xotin-qizlar kiyim-kechaklari.

Elak - ayollarning yengil choponi.

*Qirmiz **yelak** kiyib, haydar taqmanam. (Go'ro'g'li, 405-bet.)*

Parcha - zarhal berilgan matodan tikilgan ayollar ko'ylagi.

*Kiydigi turli **parchalar***

Tomosha qiling barchalar. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 120-bet.)

Shidda - ayollar kiyimi.

Oshiq ma'shuqina qiyo boqqanda,

***Shiddalar** kiyilib, haykal taqqanda. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 127-bet.)*

O'rtug - ayollar kiyimi.

*Kiydigi yashildi, **o'rtugi** ola. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 248-bet.)*

2. Erkaklar kiyim-boshi.

Cho'girma - erkaklar bosh kiyimi.

*Go'ro'g'li silkma **cho'girmasini** kiyib, bir xachirni minib, daryo bo'yiga ketdi. (Go'ro'g'li, 167-bet.)*

Taxyo - do'ppi.

*Gajakli **taxyosini** kiyib, chiqib salom berdi. (Go'ro'g'li, 348-bet.)*

Chakman - tuya junidan to'qilgan erkaklar kiyimi. *O'ttiz tuyaning junidan to'qilgan **chakmanini** kiyib, maydonga chiqdi. (Go'ro'g'li, 187-bet.)*

Po'stin - qo'y terisidan tikilgan erkaklar kiyimi.

Ana po'stinlarini tagiga to'shab dam-tinchlarini oldilar. (Go'ro'g'li, 101-bet.)

3. Oziq-ovqat va ichimliklar

Cho'rak - nonning kichik shakli.

Kulcha - nonning bir turi.

Bo'rak-barak - chuchvara.

Qurmish - go'mmaning bir turi.

Arab Rayhon bir vaqt qarasa, kulchadan-cho'rakdan, qurmishdan-bo'rakdan hech zot qolmabdi. (Go'ro'g'li, 134-bet.)

Ko'mach - yog'siz qozonda qotirib pishiriladigan nonning bir turi. *Jig'olibek: hozir san ikki ko'mach pishirib, birini mango bar, birini belinga tug dedi.* (Go'ro'g'li, 39-bet.)

Ichimlik nomlaridan **sharob, may, boda** kabilar tilga olinadi:

Anduh chekib ol sharoblar ichurmen. (Go'ro'g'li, 269-bet.)

Yarali deb mayigulgun ichibsan. (Go'ro'g'li, 286-bet.)

Qirq yigitga gulgun boda ichirib... (Go'ro'g'li, 444-bet.)

Hozirda ushbu so'zlar sheva vakillari og'zaki nutqida uchramaydi. Ular eskirgan so'zlar qatoriga o'tib ketgan.

Dostonlar leksikasida xotin-qizlarning bezaklari sifatida "haydar", "gajak", "Murassa toj", "Tillo shona" kabi nomlar ham tilga olinadi.

"Haydar" kokil shaklida ishlangan bezak bo'lib qizlar do'ppisiga qadalgan. "Gajak" esa o'rdaklarning nar turidan olinib, qizlar do'ppisiga qadaladi. "Murassa toj" –bezatilgan, ziynatlangan, toj shaklida boshga kiyiladi. "Tillo shona"- oltin taroq ma'nosiga ega. Bu keyingi ikki predmet aristokratik oq suyuk oilalarda o'sgan qizlar va ayollarga sovg'a qilingan.

Dostonlar tarkibida turli etnografik lavhalarga duch kelinadi. "Avaz gatirgan" dostonida Avazning asrandi farzand sifatida o'g'il qilib olish lavhasi bu borada alohida ko'zga tashlanadi. Unda marosim jarayonida ishlatiladigan ko'plab etnografik dialektizmlar o'zini namoyon qilib turadi. Go'ro'g'li Avazni Vayongondan olib kelgach, kayvanilar Og'a Yunus parini yotqizib, Avazxonni uning yoqasidan solib, etagidan tortib oladilar, bolani o'tdan otlatishadi, chiroq yoqishadi, isvant tutatishadi, qand sochishadi. Og'a Yunus pari Avazni kutib olganda:

"Un sepayin oyog'ina,

To'yib olay siyog'ina, degan edi. Bu udumni ham bajarishadi. Bolani uning etagidan tortib olgach, bir kayvoni:

-Bola tug'ildimi, deb so'radi.

-Tug'ildi, dedi enaga xotin.

-Ko'zingiz oydin!

-Oydinda bo'ling, deb qichqirishdi bari xaloyiq.

*-Qovurma **bulomiq** pishiring, **bo'g'irsoq**, **po'ssiqni** qozonga tashlab is chiqaring, dedi kayvoni ayol. Birovi qozonga yugurdi. Birovi o'choqqa. To'y boshlani ketdi". ("Oshiqnoma", 4-kitob, 260-bet.)*

Og'a Yunus pari nutqidagi "Un sepayin oyog'ina" misrasidagi urf-odat Xorazm vohasida haligacha saqlangan. Hozirda uyga qudalar tashrif buyurganda, qadrlı mehmonlar kelganda ularning peshonasiga un surkash udumi saqlangan. Yangi farzand tug'ilganda chiroq yoqib qo'yish, isiriq tutatish, qand-novvot sochish, o't-olov bilan aloqador irimlarni o'tkazish, qovurma bulomiq (atala) pishirish, bo'g'irsoq, po'ssiq pishirish, mahallaga ulashtirish kabi urf-odatlar hozirda ham saqlangan.

Ushbu marosimdagi o't-olov bilan aloqador rudimentlar xorazmiylarning zardushtiylik dinidagi udumlarga borib taqaladi.

Asrab olingan bolani bo'lajak onaning yoqasidan solib, etagidan chiqarib olish va shu davradagi ayollarning savol-javoblari, "ko'z oydin" iborasi orqali olqish aytishlari kabi ritual xodisalar Xorazm dostonlarining boshqa birortasida saqlanib qolmagan.

Ushbu ko'chirmada qovurma bulamoq, po'ssiq (varaqi) kabi oziq-ovqat nomlari ham etnografik dialektizmlarning ko'rinishlaridir.

1.2. Frazologik dialektizmlar.

Og'zaki nutq jarayonida tayyor qolipga solingan, an'anaviy tarzda avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalqona iboralar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu toifa iboralar frazeologiya nomi ostida yuritiladi.

"Biz biror tilda so'zlashar ekanmiz, o'z nutqimizda alohida so'zlar bilan birga turg'un birikmalardan, ya'ni frazeologik iboralardan ham foydalanamiz. Bunda iboralar bevosita shu nutq jarayoni davomida yaratilmay, xuddi so'zlar

kabi tayyor holda xotiradan olib ishlatiladi. Frazеologik iboralar soʻzlar bilan birga qurilish materiali hisoblanib, tilning muhim tomonini tashkil etadi”¹.

Frazеologik iboralar obrazli tasvirni roʻyobga chiqaradi. Shu sababli ular badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda turadi. Bu degan soʻz ularda maʼno koʻchimi asosiy oʻrinda turishini taqozo qiladi. Doston ijrochilari badiiy nutqda badiiy koʻchimga asosiy eʼtiborni qaratishadi. Shu sababli dostonlar matnida koʻchimga asoslangan frazeologik iboralarning koʻlami ancha kengdir.

1. Metafora orqali koʻchimga asoslangan iboralar.

Frazеologik iboralarning bu turi narsa-hodisalar, harakatlarning oʻzaro oʻxshashligiga asoslanadi. Masalan:

Yuragiga tosh urib yigʻladi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 126-bet.)

Nomardga boshingiz egmang. (Goʻroʻgʻli, 60-bet.)

Davlat qushim boshdan uchdi. (Goʻroʻgʻli, 76-bet.)

Birinchi misolda “*tosh urib*” birikmasi oʻz maʼnosida jarohat yetkazishni anglatga, koʻchim hosil qilgach, yurakdagi kuchli iztirobni, faryodni anglatadi.

Ikkinchi misoldagi “*bosh egish*” oʻz maʼnosida hurmatni ifodalasa, koʻchgan maʼnoda magʻrurlik tushunchasini anglatadi. Uchinchi namuna “*qushning uchishi*” bu yerda “*davlat qushi*” birikmasi orqali baxtsizlik, omadsizlik kayfiyatini vujudga keltiradi.

Belgi orqali frazeologik maʼno hosil qiluvchi soʻzlar koʻproq sifat turkumidan tanlanadi: *Oq fotiha berdi eranlar, pirlar.* (Goʻroʻgʻli, 79-bet.)

Mard bilinar qaro kunda. (Goʻroʻgʻli, 439-bet.)

Ushbu misollardagi “oq”, “qora” soʻzlari biror predmet oldidan kelsa, oʻz maʼnosini saqlaydi. Ammo “*Oq fotiha*” birikmasida ezgu fikrni, mehr-muhabbatni anglatadi. “*Qaro kun*” birikmasi esa, baxtsizlik, kulfat maʼnosiga koʻchgan.

2. Metonimiya orqali koʻchim hosil boʻlishi.

Metonimiya yunoncha *qayta nomlash* degan maʼnoni bildiradi. Unda ikkita

¹ Шанский Н.М., Быстрова Е.А., Аликулов Т. Рус тилидаги 700 фразеологик ибора. –Т.: “Ўқитувчи”, 1990. –Б.5. (110)

predmet yoki voqea-hodisa o'zaro bog'liq holda ko'chim hisol qiladi.

Bir qiz keladur bezanib,

G'amza qilichin gazanib. (Go'ro'g'li, 81-bet.)

Qo'limdin ketibdur qizim,

Qaro bo'ldi mening yuzim. (Go'ro'g'li, 93-bet.)

Qalin puli olib yedim,

Tashla, Go'ro'g'li nochorni. (Go'ro'g'li, 311-bet.)

Birinchi keltirilgan namunada “*G'amza qilichi*” birikmasi ma'shuqaning jozibadorligini ifodalashga qaratilgan. Bu yerda g'amza so'zi olib tashlansa “*qilich o'qtalmoq*” tushunchasi kelib chiqadi.

Ikkinchi misolda “*yuz qaroligi*” andisha, beobro'lik tushunchasini ifodalashga yo'naltirilgan. Uchinchi namunada “*Qalin puli*” birikmasi qizning birovga unashtirilishi ma'nosini anglatadi.

3. Obrazli o'xshatish vositasida frazeologik ma'noning shakllanishi.

Dostondagi badiiy nutqni obrazli o'xshatishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Odatda baxshilar nutqida mahalliy kolorit bilan uzviy bog'langan turg'un o'xshatishlar juda ko'p. Ular nutqning ta'sirchan chiqishini ta'minlaydi:

Tohirning yuragiga o't tushib, go'yo oynaga tushgan quyoshning yolqiniday har yoqqa chayqalar edi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 69-bet.)

Zuhrani shunday bezadilarki, go'yo jannatdan hur chiqqanday bo'lib, ko'shkning ichi quyoshning nuriga g'arq bo'lganday charaqlab ketdi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 112-bet.)

Uni ishq zarpechakday chirmab oldi. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 35-bet.)

Ayol tilidan o'qdek otilayotgan, alamli, faryodli o'tkir so'zlar Yusufni sarosimaga soldi. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 69-bet.)

Dostonlar ijrosidagi badiiy nutqda obrazli o'xshatishlar orqali ro'yobga chiqadigan iboralar tasodifan tanlanmaydi. Birinchi misolda Tohir qalbidagi mavj urgan hissiyot to'lqinini ta'riflash uchun “*oynaga tushgan quyosh yolqiniday*” iborasi tanlanganki, bu obrazli ifoda kishi qalbidagi bezovtalikni to'la-to'kis o'zida mujassamlashtiradi.

Ikkinchi misolda Zuhraning go'zalligiga urg'u berish ko'zda tutilgan. Inson tasavvurida *“Jannatdan chiqqan hurday”* go'zal inson juda kam topiladi. Shu sababli doston ijrochisi o'sha obrazli ifodani tanlash orqali Zuhraning chiroylilikda beqiyos ekanini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Ishq-muhabbatning kuch-quadratini ifoda etish uchun ko'plab obrazli ifodalar tanlangan. Ammo *“ishq uni zarpechakday chirmab oldi”* birikmasi o'sha tanlangan obrazli ifodalarning barchasidan o'zib ketadi. Chunki zarpechakning mohiyatini doston tinglovchilari juda yaxshi tasavvur qila oladilar. Bu ibora *“Yusuf va Zulayho”* dostonidagi Zulayho obraziga nisbatan tanlangan. U uzoq yillar Yusufning muhabbatini qozona olmay sarsonlikda umr kechiradi. Oxir-oqibat bir kuni Yusufga duch kelib, qalbidagi dard-hasratlarini achchiq iztirob bilan bayon qiladi. Ushbu lavhada ham uning alamli nutqi dostonida *“o'qdek otilayotgan faryodli o'tkir so'zlar”* tarzidagi obrazli ifoda orqali bayon etiladi.

Obrazli turg'un o'xshatishlar orqali frazeologik ma'no tashuvchi iboralarning mavzu doirasi juda keng. Ularda kishi ruhiyatining turli ko'rinishlari, harakat va holat bilan aloqador tasvirlar alohida ko'zga tashlanadi. Masalan, **qo'rquv**: *Unga ko'zi tushib, ilon og'ziga yaqin kelgan qurbaqaday bo'lib qoldi.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 160-bet.)

Baxtiyorlik, visol sevinchi: *Ikki oshiq-ma'shuq tol chiviqday do'lanishib, goh hushidan ketib, goh hushiga keldilar.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 190-bet.)

Shikastalik: *Avazxon qafasdagi bulbulday zorlanib, Go'ro'g'liga boqdi.* (Go'ro'g'li, 413-bet.)

Kibr-u havo: *Safar ko'sa hammadan oldinda ming qo'yli boyday taltayib o'tirar edi.* (Go'ro'g'li, 348-bet.)

Harakat-holat. *Xorazmin shu yerdagi yasovul, qorovul, jallodlarni jo'xori o'rganday qilichdan o'tkazdi.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 208-bet.)

Turg'un o'xshatishlar davr va zamon bilan uzviy ravishda bog'liq holda yuzaga keladi. Bu misollar orasida *“ming qo'yli boyday”* iborasi bunga misol bo'la oladi. Hozirda ushbu ibora deyarli ishlatilmaydi. Uning paydo bo'lish

davri chorvadorlar hayoti bilan bog'liq bo'lib, ancha qadimiydir. Chunki o'sha davrda chorva bosh soni mingdan oshsa o'sha kishi boy-badavlat hisoblangan.

“Qilichdan o'tkazmoq”, “Qafasdagi bulbulday”, “Jo'xori o'rganday” birikmalari ham o'z davrining mahsullaridir.

4. Mubolag'a va litota asosida paydo bo'lgan frazeologizmlar.

Xalq ijodiyotidagi badiiy nutqda mubolag'a asosiy rolni o'ynaydi. Badiiy tasvirda mubolag'a ishlatilmasa, uning ta'sirchanligi susayadi. Shu sababli frazeologik dialektizmlar negizida ham asosan bo'rttirish usuli yotadi.

Albatta, ushbu iboralarga tanlangan mubolag'alarga ishonish mumkin bo'lmasa-da, ular reallikdan mutlaqo uzoq bo'lsa-da, tasvir tinglovchilar tomonidan “haqiqiy” ahvol sifatida qabul qilinadi:

Dunyo yuzi tuman bo'ldi, yer-u ko'k larzaga keldi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 41-bet.)

Otang qo'ydi yonar o'tda, Yuragimga tushdi modda. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 204-bet.)

Bu marhamatdan ko'ngli tog'day ko'tarilib, labiga tabassum qalqdi. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 70-bet.)

Shul xumor ko'zlaring jonimni oldi. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 251-bet.)

Kunda yuz ming yonib yonib, yuz ming o'chibman.

Birinchi misolda Tohirning yuzini ko'rib, Mohimning es-hushini yo'qotishidagi vaziyati tasvirlangan. Uning bu go'zal chehrani ko'rib, ta'sirlanishida go'yoki yer-u ko'k larzaga kelgandek, dunyoni tuman qoplagandek tuyuladi, natijada behush bo'lib yiqiladi.

Bu tasvirni eshituvchi real qabul qiladi. Chunki Tohir go'zallik ramzi sifatida ularning ko'nglida muhrlanib qolgan.

Ikkinchi misolda oshiq o'z taqdirini, ishqiy ahvolini “yonar o't ichida” qolganday dahshatli ekanini ta'kidlash uchun mubolag'ali tasvirga murojaat qiladi.

Uchinchi misolda ma'shuqaning dil quvonchi “ko'ngli tog'day ko'tarilib”, birikmasi orqali ochib beriladi.

Oxirgi misolda Sayotxonning shahlo ko'zlari Hamroning *“jonini olishi”* orqali sevgi-muhabbatning kuch-qudratini namoyish qilish ko'zda tutilgan.

Frazeologik iboralarda mubolag'aga qancha ahamiyat qaratilsa mo'jaz tasvirlitotaga ham shuncha murojaat qilinadi. Chunki, tasvirda nafis-nozik ifodalarga ham ko'p o'rin ajratiladi. Kichraytirib tasvirlash ham badiiy nutqda tez-tez qo'llaniladi: ***Bir zamon*** *sabr et, ikki kalima* so'z yozimga keldi, dedi Go'ro'g'li. (Go'ro'g'li, 282-bet.)

Har soching bir torina hur ila g'ilmonni beray. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 9-bet.)

Hijron chekib hilol bo'lgan qomatim,

Ra'no bo'lib nav nihola yetishdi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 44-bet.)

Ammo, Gavharoy quyiga tushgan ignaday yo'q edi. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 149-bet.)

Birinchi misolda ***“bir zamon”, “ikki kalima so'zi”*** birikmalari qisqa fursatni ifodalashga safarbar qilingan.

Ikkinchi misolda yor sochining ***“bir tolasi”*** haqida so'z yuritilib, u *“hur ila”* g'ilmondan ham qimmat ekanligi ta'kidlanib, ma'shuqaga bo'lgan sevgi darajasi mubolag'aga tortiladi.

Uchinchi misolda yor hajrida qiynalgan oshiqning ***“hilol qomati”*** yangi chiqqan oydek ingichka tortgani litota usuliga tortilgan. Uning ma'no doirasi esa mubolag'ani keltirib chiqaradi.

Oxirgi misolda oshiq o'z yorini topolmay sarson bo'ladi. Ma'shuqaning g'oyib bo'lishi ***“quyiga tushgan ignaday”*** birikmasi orqali ifodalanadi.

Dostonlarda ma'shuqa ta'rifini berishda litota usuliga ko'proq murojaat etiladi: *Uzun bo'yli, inja belli, qora ko'zli, suji so'zli, yupqa dudoq, bodom qaboq, pista dahan, mo'rcha miyon, qoshi kamon, o'zi ovodon bir qiz.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 62-bet.)

Ushbu tuzilmadagi *“inja bel”* –nozik, ingichka bel; *“yupqa dudoq”* –bejirim lab; *“mo'rchamiyon”* –qumurskaning beliday qaddi qomatli birikmalari ma'shuqaning nafis va nazokatli, navnihol, qiyofasini yaqqol gavdalantiradi.

Ular boshqa birikmalar bilan umumlashgan holda ma'shuqa portretini ro'yobga chiqaradi.

5. So'zlarga birikish asosida shakllangan frazeologizmlar.

Frazeologik dialektizmlar aksariyat hollarda bir so'zni asos qilib olgan holda birikuv asosida ham shakllanadi: *Oshiqlar nolasidan **oy-kun** tutildi, olam-jahon zimistonga aylandi.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 115-bet.)

*Tinglab **ma'no** ayirmoq sennan, ta'rif etmoq mennan, dedi Go'ro'g'li.* (Go'ro'g'li, 118-bet.)

*Endi **yurt** yiqib bir to'y bermasak bo'lmas, dedi Go'ro'g'li.* (Go'ro'g'li, 209-bet.)

***Og'zi** ola bo'lib qo'shimni buzhang, Beajal o'lmasman, **umidni** uzhang.* (Go'ro'g'li, 216-bet.)

*Go'ro'g'lining **yuragi** shuv-v etib ketdi.* (Go'ro'g'li, 91-bet.)

Birinchi misolda **oy-kun** so'zlariga **tutildi** fe'li qo'shilib, bir guruhni, olam-jahon so'ziga **zimiston** bo'ldi birikmasi qo'shilib, Frazeologik ibora yuzaga kelgan va oshiqlar qalbidagi iztirobni anglatishga xizmat qilgan. Aslida oy va kunning bir-biriga soyasi tushishi, bu jarayonda yer yuziga qorong'ulik tushishi real ma'noni anglatadi.

Ikkinchi misolda **yurt** so'ziga **yiqib** so'zi qo'shiladi va elning barchasini taklif qilib ma'nosini kuchaytiradi va iboraga aylanadi.

Uchinchi misolda **og'iz** so'ziga **ola**, **umid** so'ziga **uzhang** so'zi qo'shilib, noahillik, umidsizlikka bormaslik ma'nolariga ko'chadi va iboraga aylanadi. Oxirgi misolda yurak so'zi asosida shuv-v etmoq birikmasi qo'shilib, seskanish, birdan vahimaga tushish ma'nolari hosil bo'ladi.

Bunday tartibda so'z birikishi asosida evfemik ifodalar ham frazeologik iboralarga aylanishi mumkin. Bunday toifa iboralar doston ijrochilari nutqida faol ishlatiladi:

Ajalning soqiysi sharobin suzdi. Tole'im kaj keldi iqbolim sindi. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 122-bet.)

Kampir jon taslim etdi. (Go'ro'g'li, 230-bet.)

Bir necha kunlar kasal yotib, dorulfanodin dorilbaqog'a rixlat qildi.
(Go'ro'g'li, 379-bet.)

Qoraxonning boshi jahannam bozorig'a isvand qidirib ketdi.(Go'ro'g'li, 394-bet.)

Birinchi misolda “Tohir va Zuhra” dostonidagi Tohirning o'limga hukm qilinishi evfemik tarzda she'r misralariga joylashgan bo'lib, Zuhra tilidan aytilayotir.

Qolgan misollar ham asosan o'lim haqida xabar beradi. Ammo, xabarni ifodalash vaziyatga qarab turlicha tarzda beriladi. Masalan, oxirgi misolda dushmanning o'limi haqida so'z borayotir. Shu sababli undagi evfemizmda masxaralash, nafratlanish ohangi ham jamlangan.

Uchinchi misolda esa “Bozirgon” dostonidagi Bozirgonning o'limi haqida so'z boradi.

Uning singlisi, akasini izlab kelganda Go'ro'g'li unga o'lim haqida yuqoridagicha axborot beradi. Unda hurmat, achinish hislari diniy-sha'riy ohangda ifodalangan.

Evfemizmlar vaziyatga mos ravishda tanlanadi. Masalan, kasallik haqida gap ketganda ham evfemizm ishlatiladi. *Podsho bir zamonda yosh yigit qiyofasiga kirdi, dardidin forig' bo'ldi.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 108-bet.)

Ushbu ifodada podshoga nisbatan hurmat hissi tantanavor tarzda ifoda etilgan. Ba'zi hollarda yaxshi insonlar haqida gap ketganda ularning taqdiri achinish ohanglariga aloqador evfemik ifodalar orqali namoyon bo'ladi:

Bir nechalar bu dunyodan qon yutib,

Ketdilar yaxshilar olamdan o'tib,

Qora yer alarning barini yutib,

Nozik tanni og'ir turob ayladi. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 90-bet.)

Turob so'zi tuproqni anglatadi. Bu misrada ham o'lim ma'nosi nozik va afsus ohangida namoyon bo'ladi.

6. Leksik integratsiya orqali ro'yobga chiqadigan frazeologizmlar.

Tildagi leksik birliklarning o'zaro qo'shilishi natijasida ham ko'plab

frazeologik komponentlar yuzaga keladi. Ular so'zlarning yaqin aloqaga kirishishi natijasida paydo bo'ladi.

Bu toifa iboralarga ko'plab so'zlar asos vazifasini o'taydi:

*Yuragiga g'ulg'ula tushib bolalarining yo'liga **ko'z tikib** o'tirdi.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 26-bet.)

*Podshoning qizini **boshimizga uramizmi**, dedi.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 110-bet.)

*Go'ro'g'li kelgan bo'lsa **ko'zim uchib** turgan edi.* (Go'ro'g'li, 96-bet.)

***G'am yemagil**, go'zalshohim, Shul sunnini xor aylaram.* (Go'ro'g'li, 355-bet.)

*Uning **ko'nglini ovlab, ko'ngil beray**, deb bir so'z aytdi.* (Go'ro'g'li, 405-bet.)

Ushbu misollarni tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy so'zga ot+fe'l tarzida boshqa bir so'zning qo'shilishi frazeologik iboralarni paydo qilayotir. Ularni adabiy tildagi ma'nolarini topishga harakat qilamiz:

Ko'z tikmoq - kutib o'tirmoq-intizorlik.

Boshga uramizmi-u nimaga kerak- rad javobi.

Ko'zi uchmoq - uchrashish istagi yo'q-kesatiq.

G'am yemagil - Tashvish etma-dalda berish.

Ko'ngilni ovlash - dalda berish-yaxshi maslahat.

Ko'rinadiki, har bir frazeologik ibora qandaydir maqsadda nutq tarkibiga olib kiriladi. Ba'zan unda kinoya, kesatiq ohanglari ham bo'lishi mumkin. Bu toifa frazeologik iboralarda kishi ruhiyatini oydinlashtirish asosiy xususiyat kasb etadi.

Jonimga toza o't solding Bozirgon! (Go'ro'g'li, 376-bet.)

Oysulton parishon bo'lib, bir sovuq dam olib qo'ydi. (Go'ro'g'li, 388-bet.)

Endi soviydi yuragim. (Go'ro'g'li, 230-bet.)

Birinchi misolda "o't solmoq" birikmasi qayg'u-alam, afsuslanish kayfiyatlarini tashiydi.

Ikkinchi misolda "sovuq dam" – sovuq nafas-so'lish olish ham xafagarchilikni ifodalaydi. Odatda inson biror qayg'uli xabar eshitsa so'lish oladi. Bu holat shevada "Sovuq dam" olish birikmasi orqali frazeologik iborani

yaratadi.

Uchinchi misol yurak so'ziga sovumoq so'zini qo'shish orqali yuzaga kelib, qilgan ishidan mamnunlikni ifoda etadi. Boshqacha aytganda "*Yurakka o't tushdi*" birikmasining aksincha ko'rinishidir.

Xullas, frazeologik dialektizmlar dostonlardagi badiiy nutqda ijrochilar tomonidan faol ishlatiladi va ular asar badiiyatini yuksaltirishda o'ziga xos o'rinni egallaydi.

1.3. Dostonlar tilida fonetik dialektizmlar

Xorazm dostonlari mamlakatimizning boshqa mintaqalarida tarqalgan epos namunalaridan ommalashish xususiyati bilan muayyan darajada farqlanadi. Bu mintaqada dostonlar og'zaki variantlar bilan bir qatorda yozma nusxalar ham keng tarqalgan.

Yozma nusxalarda arxaizm va istorizmlar salmog'i ancha katta bo'lib, dialektizmlar ulardan ozroq tarzda namoyon bo'ladi.

Og'zaki variantlarda esa dialektizmlar salmog'i yuqori bo'lib, arxaizm va istorizmlar nufuzi kamroq holda ko'zga tashlanadi. Ammo dostonlarning har ikkala turini ham dialektizmlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

"Xalq dostonlari tilida dialektizmlarning qo'llanilishi yozma adabiyotdagidan ancha farq qiladi. Chunki yozma adabiyotda dialektizmlar, asosan, personajlar nutqida qo'llaniladi. Muallif nutqida esa juda kam (qisman, leksik dialektizmlar) ishlatilganini ko'ramiz. Xalq dostonlari tilida esa muallif va qahramonlar nutqi, bir-biridan keskin farq qilmaydi. Chunki uning ijodkori ham, ijrochisi ham shu xalq yoki ma'lum bir sheva vakili hisoblanadi"¹.

Xorazm dostonlarida fonetik dialektizmlar ko'p uchraydi. Ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Qorinja-qorni ingichka (inja)

Avazxon shu borishida qora qorinjaday askarlar o'rtasida qoldi. (Go'ro'g'li,

¹ Файзуллаева Д. Халқ дostonлари тилининг диалектал хусусиятлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013, №3. –Б. 96 (96-98)

177-bet.)

Yoshulli - yoshi ulug'. *Go'ro'g'lini o'zlariga boshchi-yoshulli etib qo'ydilar.* (Go'ro'g'li, 224-bet.)

Amdolli - hamdu olloh so'zidan. *Ammo, Bozirgon sabab bilan amdolli bizning yurtga kelibsani.* (Go'ro'g'li, 368-bet.)

Milong - miya+lang (karaxt) *Uyqudan turib milong bo'lib turgan Rayhon arab bu gaplarga tushunmadi.* (Go'ro'g'li, 87-bet.)

Orqayin - orqa+eyin (xotirjam)

Go'ro'g'li Chamlibel nerdasan, deb orqayin kelaberdi. (Go'ro'g'li, 243-bet.)

U:L –o'g'il. Go'ro'g'lining uli Avazxon yuz yoshdan oshmay qazosi yetdi. (Go'ro'g'li, 444-bet.)

Sho':gir – shabgir (kechasi yo'l yurmoq) *Bozirgon to'rt narining ustiga taxti ravon qurib sho'vgir solib kelayotirgan edi.* (Go'ro'g'li, 370-bet.)

Sop - sarf. (tugamoq)

Ravshanlik sop bo'lib, nur ketar ko'zdin. (Go'ro'g'li, 433-bet.)

Zomoriq - zamburug'. *Ana yerdan chiqqan zomoriqday ikki otliq oldidan chiqdi.* (Go'ro'g'li, 317-bet.)

Kapcha - kaft+cha so'zidan.

Go'ro'g'li kapchasini dutor etib, bir so'z aytib turibdi. (Go'ro'g'li, 170-bet.)

Oxtiq - oq-liq so'zidan.

Jig'olibek shunda oxtiqiga qarab, ko'ngli jo'shib bir so'z aytdi. (Go'ro'g'li, 21-bet.)

Pishik - mushuk. *Baytal pishikni bolasiday bir narsa tug'di.* (Go'ro'g'li, 37-bet.)

To'rpoq - tuproq. *Oshinga tosh, to'rpoq deganim yodingdan chiqdimi, dedi Go'ro'g'li.* (Go'ro'g'li, 42-bet.)

Cho'kitka - chigirtka. *Ekinga cho'kitka dorig'anday – ustiga o'zini otdilar.* (Go'ro'g'li, 227-bet.)

Bo'ryo - bo'yra. *Jallodlar Tohirning ko'zini bog'lab, bo'ryoning ustiga o'tirg'izib, podshohdan ruxsat kutdilar.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 119-bet.)

Mazgil - manzil. *Bir necha mazgil yo'l yurib, Hamrojonning izidan yetdi.*
("Oshiqnoma", 5-kitob, 228-bet.)

Bulardan tashqari o'g'uz shevalarida undosh tovushlarning almashish hodisasi ko'zga tashlanadi. Masalan: T>D:

Tosh - dosh. *Shu farzandni ikki doshni orasida bergan bo'lsa, Xudoga shukur qilmoq kerak.* (Go'ro'g'li, 19-bet.)

To'ppi - do'ppi: *Oq yuzlari lo'ppi bo'lsin,*
Giyganlari to'ppi bo'lsin. (Go'ro'g'li, 306-bet.)

K>G: Kel – gal. *Sango tushdi nazarim, sevgili jonon bari gal.*
("Oshiqnoma", 5-kitob, 9-bet.)

Ket - get: *Endi bu yurtidan getmasam bo'lmas, dedi Jig'olibek.* (Go'ro'g'li, 26-bet.)

SH>CH:

Shish - chish. *Ura-ura chishmagan yerini tanqaday etib haydab yubardi.*
(Go'ro'g'li, 302-bet.)

Q>G':

Qo'ch - G'o'ch. *Ey g'o'ch yigit, mehmon olasizlarmi, dedi Qalandar.*
(Go'ro'g'li, 30-bet.)

M>P: **Mushuk** - pishik.

Baytal pishikni bolasiday bir narsa tug'di. (Go'ro'g'li, 37-bet.)

CH>J: Achchiq-oji.

Oshiqlik shirindir, ayroliq oji,

Go'zimning nurisan, boshimni toji. (Go'ro'g'li, 458-bet.)

Eshik, ayvoni o'joqli,

Uzun bo'yli, geng qujoqli... (Go'ro'g'li, 58-bet.)

Xorazm o'g'uz shevalarida unlilar o'zgarishi natijasida ham ko'plab dialektizmlar paydo bo'ladi.

A>O: Og'am - og'om.

Endi yengildim, sen og'om bo'l, dedi Safar Mahram. (Go'ro'g'li, 56-bet.)

E>A: ne deb – na dap. *Dalixirmon na dap javob berishini bilmadi.*

(Go'ro'g'li, 298-bet.)

Toparmanmi bolam, sani. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 128-bet.)

O'>U: Xurjun-xo'rjin. *Xo'rjinini yelkasiga tashlab qal'adan chiqdi.*

(Go'ro'g'li, 27-bet.)

I>A: Nima - nama.

Shu'la solib olam uzra to'libsan,

Quyoshmisan, qamarmisan, namasan. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 95-bet.)

Qo'lyozma tarzida ommalashgan dostonlar tilida boshqacha holatlar ham ko'rinadi.

A>U: - Qolarsiz-qolursiz:

Siz esa hamma narsadan quruq qolursiz, -dedilar. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 106-bet.)

Qo'lyozma va toshbosma nusxalar tilidagi fonetik dialektizmlarni aniqlashning o'zi alohida bir tadqiqotni taqozo qiladi.

Og'zaki variantda tarqalgan dostonlarda ishlatilgan fonetik uslub Shimoliy Xorazm baxshilari tilida jiddiy farqlar bilan namoyon bo'ladi. Xullas, ushbu mintaqada dostonlari leksikasi murakkabligi bilan alohida ko'zga tashlanadi.

1.4. Dostonlar tilida grammatik dialektizmlar

Xorazm mintaqasi ko'plab etnik guruhlarining birlashmasi hisoblanadi. Bu mintaqada turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar yonma-yon istiqomat qilishadi. Shu sababli Xorazm dostonlari leksikasida bu tillarga xos so'zlar ko'plab uchraydi.

Taniqli shevashunos olim Y.Jumanazarovning ta'kidlashicha, yuqorida nomlari qayd qilingan xalqlarga alohida etnik nomlar bu maskanda qadimgi turkiy qabilalarga xos bo'lgan etnik guruhlar bilan aralash holda uchraydi. Bunga alan, os, chovdir, qo'ng'iroq, chigil, do'rman, mang'it kabi toponimik atamalarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday nomlar viloyatda 40 dan oshadi. Bu narsa Xorazm shevalarining fonetik qurilishida ham, leksik va

sintaktik qurilishida ham ancha murakkab bo'lgan grammatik hodisalar mavjudligini ko'rsatadi.

Bu yerda o'g'uz shevalarining ta'siri boshqalariga qaraganda kuchliroq¹.

Dostonlar leksikasiga razm solinsa bu fikrning to'g'riligi ayon bo'ladi. Ayniqsa, she'riy satrlarda kelishik qo'shimchalarining fonetik o'zgarishga uchrashi ko'proq namoyon bo'ladi: "G" tushib qolish hodisasi:

*Kiydigi yoshildir, o'rtigi ola, Qaddi **gula** mangzar, lablari **bola**,*

Bo'yi Salbiga mangzar qomati dola... ("Oshiqnoma", 5-kitob, 255-bet.)

To'rtlikning birinchi misrasidagi "**Ola**" - **ola-bula** so'ziga nisbatan qofiyalashish tartibi jo'nalish kelishigi qo'shimchasining o'zgarishga uchrashiga olib kelgan. Aslida kelishikning **-ga** shakli aksariyat holatlarda o'z holicha ishlatiladi. Buni uchinchi misradagi **Salbiga** so'zi ham ko'rsatib turibdi.

Ba'zi holatlarda **-ga** shakli **-g'a** tarzida qo'llaniladi:

*Bosh bo'libsan bir bo'lakcha **ushog'a**,*

***So'z solanda** bo'ynig solma **oshog'a**,*

*Oshiq bo'ldim belingdagi **qo'shog'a**...* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 232-bet.)

Aslida qofiyalashgan so'zlar **ushoq-qa**, **oshoqqa**, **qo'sh boqqa** shaklida bo'lishi lozim. Bu yerda leksik dialektizmlar ham bor: ushoq-bola, oshoq-past, qo'shoq-qo'shog' kabilar. Shuningdek, **So'z solanda** birikmasi **so'z solganda**, bo'ynig solma birikmasi **bo'ynig egma** shaklida bo'lishi kerak. O'g'uz shevalarining kuchli ta'siri bu so'zlarning o'zgarishida asosiy rolni o'ynaydi.

Ba'zida -ga qo'shimchasi -na shakliga o'tadi:

*Ketarman totar **elina**, Bosh qo'ymisham yor **yo'lina**...* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 82-bet.)

Jo'nalish kelishigining bu shakllari XIII-XIV asrlarda ham shu ko'rinishda ishlatilgan².

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi ham dostonlarda turlicha shaklda

qo'llaniladi; U ba'zan tushum kelishigi qo'shimchasi orqali ifodalanadi:

¹ Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик қурилиши. –Т.: Фан, 1976. –Б.20-21. (132)

² Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: "Ўқитувчи", 1973. –Б.45. (320)

*Chekaram har kechalarda oh-u **zoringni sani**,
Mendan o'zga kim chekadi dard-u zoringni sani,
Bermaram yuz ming tumana zulfi toringni sani...* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 9-bet.)

Aksariyat hollarda qaratqich kelishigi o'z qo'shimchasi orqali beriladi:

*Bag'rim to'la qondir maning,
O'rnimki, zindondir maning...* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 88-bet.)

Tushum kelishigi ham har turli shakllarda qo'llaniladi. Ba'zan tushirib qoldiriladi:

*Yo'l boshida qolgan **yoring** unutma,
Ishqqa kuygan **navbahoring** unutma...* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 80-bet.)

Ayrim hollarda **-n** shaklini oladi:

*Tark etdim dunyoning **borin**,
Kuydim ko'rmayin **diydorin**...* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 99-bet.)

Gohida **-i** shaklida qo'llaniladi:

*Avval boshdan taqdir qilibdur **bizi**,
Bohir bilan iqrор etding bu **so'zi**...* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 120-bet.)

Chiqish kelishigi **-dan**, **-nan**, **-din** kabi shakllarda qo'llaniladi:

*Qolmisham g'am ostida **g'amxordin** ayrilmisham,
Ul qaddi shamshod yuzi, **ruxsordin** ayrilmisham....*

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 48-bet.)

*Tushimda bir bulbul go'rdim, Hurkib kelmish gul **zorinnan**...* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 38-bet.)

Grammatik dialektizmlar shevada turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ayrim so'zlar birikib, yaxlit shaklga keladi va leksik dialektizmlar shaklini oladi:

Gunorta - kun+o'rta (tush payti)

Parizodim oh tortadur,

*Vaqt ulli **gunortadur**.* (Go'ro'g'li, 164-bet.)

Toychaloq - toy+cha+loq-toychoq.

Bu so'zga kichraytirish qo'shimchasi ikki marta qo'shilib **litota** hosil qilgan:

*Jig'olibek Go'ro'g'liga kelasi yil shu oylarda **toychaloqni** o'ynatib yurasan, dedi.* (Go'ro'g'li, 37-bet.)

Zang'ar - zan+g'ar - buzuq ayol. Bu ikki so'z birikmasi shevada zumrasha, bezori ma'nolarida ishlatiladi:

*Ey **zang'ar**, Go'ro'g'li, seni elga bosh etib, ko'rganimiz shu bo'ldimi, dedi.* (Go'ro'g'li, 51-bet.)

Chotma - chot+ma-chordoq. Chatishtirish, biriktirish ma'nosi asosida shakllangan. *Jig'olibek shaharning bir chetida **chotma** tikib, seischilik bilan mashg'ul bo'ldi.* (Go'ro'g'li, 24-bet.)

Kuma - ko'm-ma. Yerto'la. Yerni ko'mib-qazib ishlangan turar joy.

*Safar ko'sani olib borib bir **kumaga** qamab, ustidan tamma urdilar.* (Go'ro'g'li, 343-bet.)

Cho'girma - telpak. Cho'ktir-ma so'zining o'zgargan shakli. Teridan tikilgan bosh kiyimni kallaga **cho'ktirish**, kiygizish ma'nosida shakllangan.

Manglayqora - manglayi +qora-peshonasi sho'r.

Odamga xayri tegmaydigan manglayqora, pes bir kampir bor edi. (Go'ro'g'li, 210-bet.)

Ayrim grammatik dialektizmlar **-dosh** yasovchi qo'shimchasi vositasida shakllangan.

Boshdosh - bosh+dosh+ilk, birinchi. *Og'a Yunus pari **boshdoshim**, vafodorim, deb bir so'z aytdi.* (Go'ro'g'li, 460-bet.)

Qurdosh - qur-dosh-davradosh, yo'ldosh.

Yolg'izlik o'limdan yomon,

*Qariganda **qurdosh** kerak.* (Go'ro'g'li, 271-bet.)

Grammatik dialektizmlarning paydo bo'lishida shevaga xos ishlatiladigan juft so'zlarning ham o'ziga xos o'rni bor. Bu toifa so'zlar o'zaro birikib, ma'no tashuvchi so'z hosil qilishadi. Masalan:

Issi-sovuq - matnda qiyinchilik ma'nosiga ega: *Go'ro'g'li parizodni olib kelayotib: bu parizod Chamlibelga borgandan keyin bizning turkmanchiligimiz, **issi-sovug'imizga** chidasa yaxshi-yov, deb ichidan sal xavotir oldi.* (Go'ro'g'li,

69-bet.)

Og'och - ug'och-daraxtzor. *Parizod bog'dagi og'och-ug'ochlarga, ochilib yotgan gullarga qarab bir so'z aytdi.* (Go'ro'g'li, 67-bet.)

Ko'sh-ko'sh - ta'sir o'tkazmoq, sababchi bo'lmoq.

Vazir-u ulamolar kampirni yaxshi bilganlikdan podshoga ko'sh-ko'sh bo'lib, uni Camlibelga yubardilar. (Go'ro'g'li, 211-bet.)

Davarak-desh - atrof.

Go'ro'g'li otdan tushib davarak–deshga sar solib go'rdi. (Go'ro'g'li, 106-bet.)

Orja-buqcha – ko'ch-ko'lon. *Pari orja-buqchasini yig'ishtirib, Gulshirin kanizini yoniga olib, Ko'hi Qofga yo'l oldi.* (Go'ro'g'li, 259-bet.)

Ulli-kichchi - barcha. *Hamma ulli-kichchilardan Olloh yoring bo'lsin, deb ovoz chiqdi.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 22-bet.)

Ushoq-tushak – mayda-chuyda. *Bular xunxorshohga yordam beradigan ushoq-tushak podsholardir.* (Go'ro'g'li, 124-bet.)

Domoq-oyoq - oziq-ovqat. *Otga Xo'rajinni yuklab ichini olti kunlik domoq-oyoq bilan to'ldirsin.* (Go'ro'g'li, 237-bet.)

To'ba-to'ba - uyum-uyum (qipchoq) *Tuyani so'yib, etini to'ba-to'ba qilib qozonga tashlab yubardilar.* (Go'ro'g'li, 131-bet.)

Oziq-to'lak - oziq-ovqat. (qipchoq)

Oziq-to'lagimdi yuklashga bir inar berasan. (Go'ro'g'li, 133-bet.)

Ayrim juft so'zlar faqat shevaga xos bo'lgan birikmalardan tuzilgan.

Chovut-chorqa - latta-putta. *Qarasa Safar ko'sa chuqoloqda ustiga chovut-chorqa yopib, gizlanib yotibdi.* (Go'ro'g'li, 395-bet.)

Cho'p-chor - g'aram uyumi. *Go'ro'g'li yomon tush ko'rdi, erta turib cho'p-chorga tufladi.* (Go'ro'g'li, 201-bet.)

Potti-sotti - ashqol-dashqol. *Bir-ikki ayol hovuz bo'yiga potti-sotti ko'tarib o'taverdi.* (Go'ro'g'li, 77-bet.)

Dang-dush - tengdosh. *Go'ro'g'li dang-dushlari bilan go'rash tutar, yoqalashar. Dinch guni bo'lmas edi.* (Go'ro'g'li, 22-bet.)

Qo'lyozma tarzida ommalashgan dostonlar tilida boshqacha holatlar ham ko'rinadi.

I>U: -dir - dur. *Mening o'g'lim Bohir vazir o'g'lidir,*

Shoh zulmidan siynalarim dog'lidir. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 120-bet.)

Umuman olganda, Xorazm dostonlari leksikasida o'ziga xoslik juda alohidalik kasb etadi. Bu shevaga o'g'uz lahjasining ta'siri kuchli ozarbayjon, turk, turkman tillariga xos leksik birliklar ham dostonlar tilida anchani tashkil qiladi.

Masalan: *gunash-quyosh; cho'x-juda; yo'rg'an-ko'rpa, dal-emas* (inkor shakl); *xo'ja-katta* kabilar.

Grammatik shakllarda ham turli qo'shimchalar o'g'uz elementlarini o'ziga qamrab olgan. Masalan, fe'ning o'tgan zamon, birinchi shaxsda ko'rinishi ozarbayjon tiliga xos xususiyat kasb etadi:

Bugun ishqning savdosina tushmisham... ("Oshiqnoma", 5-kitob, 15-bet.)

Fe'ning shaxs-sonda turlanishida bu shakl faol ishlatiladi:

Bermanam - bermayman.

Taxti sulaymona bermanam seni. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 52-bet.)

Yig'laram - yig'layman.

O'pdigim yodima tushar, yig'laram... ("Oshiqnoma", 1-kitob, 78-bet.)

Saningdur - senikidir. *Omonat saningdur, qilma xiyonat.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 146-bet.)

Degilam - emasman, egasiyam - egasiman.

Bog'ning egasiyam-bog'bon degilam. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 20-bet.)

Kelanda - kelganda. *Ketganda zimiston, kelanda bahor.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 16-bet.)

Anda – unda, u yerda. *Ketirma bilmadim, yor anda qoldi.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 91-bet.)

Ushbu misollarning barchasi o'g'uz guruhi shevalari vakillari uchun umumiylik xususiyatiga ega. Qolaversa, ushbu grammatik shakllarning aksariyati eski o'zbek tili leksikasida ham uchraydi.

Birinchi bobda ko'rib o'tilgan masalalar bo'yicha quyidagi qisqa xulosalarga kelish mumkin.

1. Dostonlarning aksariyati Xorazm o'g'uz shevasiga daxldordir. Ba'zi, dostonlar, xususan "Go'ro'g'li" turkumining ayrim og'zaki variantlari qipchoq shevalarini o'z ichiga oladi.

Xalq ijodiyotini dialektizmlarsiz tasavvur qilish qiyin. Dostonlar leksikasida uchraydigan shevaga xos so'zlarni bir qancha turlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Eng avvalo, leksik dialektizmlarga e'tiborni jalb qilishga to'g'ri keladi. Leksik dialektizmlar adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlardir. Dostonlarda ko'p hollarda ot, sifat, ravish, fe'l turkumiga oid so'zlar dialektizmlar guruhidan joy oladi. Ular badiiy nutq jarayonida fikrni ifodalash uchun til boyligi sifatida ishlatilaveradi.

2. Dialektizmlarning bir toifasi borki, ularda ishlatiladigan so'z shakl va talaffuz jihatidan adabiy tildagi muqobiliga mos keladi. Ammo ma'no jihatidan mutlaqo farq qiladi. Masalan, "Go'ro'g'li" dostonlarida tuxum so'zi nasl, urug' ma'nosida, poy so'zi ulush ma'nosida ishlatilgan. Holbuki, adabiy tilda bu so'zlar butunlay boshqa, ma'noga ega. Bu guruhdagi so'zlarni semantik dialektizmlar qatoriga qo'shish mumkin. Xalq dostonlari leksikasida qadimdan beri tayyor qolipga solingan, og'zaki nutqda ham qo'llaniladigan shunday bir iboralar borki, ular frazeologik dialektizmlar deb yuritiladi.

Ijrochi-baxshilar nutqida frazeologik iboralar obrazli tasvirni yuzaga keltiradi. Frazeologik dialektizmlar, metafora, metonimiya, obrazli o'xshatishlar orqali yasalib, tayyor klishe (qotib qolgan, turg'un ibora) shaklini oladi va barcha ijrochilar uni o'zgarishsiz holda qo'llashadi.

3. Frazeologik dialektizmlar badiiy nutqqa so'zlashuv tili orqali kirib keladi. Chunki, oddiy so'zlashuv nutqida ham asrlar bo'yi o'zgarishsiz ishlatilib kelinayotgan iboralar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu toifa iboralar mubolag'a va litota asosida ham yuzaga keladi. Mubolag'ada bo'rttirish asosiy tamoyil bo'lsa, litota kichraytirish tamoyili ustuvorlik qiladi.

So'zlarning o'zaro birikuvi asosida yuzaga keladigan iboralar ham anchani tashkil etadi. Ayniqsa, evfemizmlar bu iboralarning shakllanishida muhim ahamiyat qozonadi. **Darddan forig' bo'lmoq, olamdan o'tmoq** kabi iboralar shular jumlasidandir.

4. Dialektizmlarning fonetik yo'l bilan vujudga keladigan xillari ham anchani tashkil etadi. Fonetik dialektizmlar turli til hodisalari asosida yuzaga keladi. Eliziya hodisasi orqali tovushlar qisqarishi asosida qorinja (qorni ingichka); reduksiya hodisasi natijasida o'g'il (u:l) metateza hodisasi orqali tovush almashishi bilan bog'liq oxtiq-oqlik kabi so'zlar dostonlar tilida ko'plab uchraydi.

Shuningdek, fonetik dialektizmlar turli tovush almashishi jarayonida ham vujudga keladi. Ba'zan undoshlar almashsa, ba'zan unlilar almashadi. Masalan: CH>J=achchiq-oji. A>O=og'om-og'am kabilar.

Fonetik dilektizmlar qo'lyozma tarzida ommalashgan dostonlarda juda murakkab. Og'zaki dostonlarda singarmonizm kuchli.

O'z navbatida fonetik hodisalarning mohiyati o'g'uz shevalari bilan qipchoq shevalarida ham farqlanadi. Masalan: o'g'il so'zi qipchoq shevasida U:L shaklida qisqaradi. O'g'iz shevasida deyarlik o'z holicha talaffuz etiladi.

5. Dostonlar leksikasida grammatik dialektizmlar alohida o'rin tutadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, bu mintaqada o'g'uz shevasining ta'siri ancha kuchliroqdir. Bu holat yozma nusxalar orqali yetib kelgan dostonlar tilida yanada yorqinroq ko'zga tashlanadi. Bu dostonlardagi badiiy nutqda jo'nalish kelishigi qo'shimchasidagi -g tovushining tushib qolish hodisasi an'anaga aylangan. Ayrim holatlarda bu qo'shimcha -g'a, -qa shakliga ega bo'ladi. Ayrim holatlarda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -na shaklini ham oladi.

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Ayrim hollarda qaratqich kelishigi o'rnida tushum kelishigi ishlatiladi. Biroq qaratqich kelishigi qo'shimchasining o'zi ham aksariyat hollarda gap tuzilishida faol qo'llaniladi. Ayniqsa she'riy misralar oxirida radif sifatida takrorlanganda to'laligicha namoyon bo'ladi.

O'rin-payt kelishigi qo'shimchasining qanda shakli ham dostonlar she'riyatida ba'zan qofiya talabi bilan qo'llaniladi.

Chiqish kelishigining -nan, -din shakllari uchraydi. Bularning -nan shakli fonetik talab bilan amalga oshsa, -din shakli yozma adabiyotning ta'sirida paydo bo'lgan.

Dostonlar tilida umumo'g'iz so'zlashuv nutqi bilan aloqador bo'lgan tushmisham, yig'laram, boranda, kelanda kabi so'zlar uchraydiki, ularning aksariyati ozarbayjon, turkman tillarida hozirgi kunda faol qo'llaniladi.

Yuqorida ta'kidlangan qanda shaklining anda ko'rinishi ham mavjud.

Hozirgi davrda so'zlashuv nutqida bunday grammatik shakllar uchramaydi.

II BOB. DOSTONLAR TILIDA ISHLATILISH DAVRIGA KO'RA CHEGARALANGAN QATLAM

Eskirib, iste'moldan chiqib qolgan so'z yoki iboralar biz tahlil qilayotgan dostonlar leksikasida anchani tashkil etadi. Ular leksik, semantik, fonetik, grammatik, frazeologik kabi turlarga bo'linadi.

Odatda hozirgi badiiy adabiyotda arxaizmlar o'tmishning haqiqiy manzarasini yaratish, davr ruhini ifodalash uchun stilistik vosita sifatida qo'llaniladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, biz so'z yuritayotgan dostonlardagi arxaizmlar o'z davri uchun ishlatilishi lozim bo'lgan faol so'zlar hisoblangan.

Dostonlarda duch kelinadigan yana bir turkum so'zlar tarixiy leksikaga oiddir. Tarixiy so'zlar ham arxaizmlarga o'xshab chegaralangan qatlamga mansubdir. Ammo ular o'z davridagi tarixiy tuzum bilan uzviy aloqadordir. Ularga aloqador mansab, harbiy lavozimlar turli kasb, mashg'ulotlar, arxitekturaga oid obidalar nomlari o'z davrida iste'moldagi so'zlar bo'lgan. Dostonlarda, umuman xalq og'zaki ijodiyoti asarlarida shunday bir xususiyat mavjudki, ularda arxaik eposdan qolgan lisoniy birliklar ham uchrab qoladi.

Biz tahlil qilayotgan dostonlarimizni XIX asrda ko'chirilganini hisobga olsak, ular matni tarkibidagi arxaizmlar, tarixiy so'zlar orasida shunday so'zlar ham ishlatiladiki, bu so'zlar XIX asr uchun ham tarixiy so'zlar bo'lib hisoblanadi.

Masalan, "Shahriyor" dostonida fir'avn, "Roi Chin" dostonida fag'furi so'zlari ishlatilgan. Tarixdan ma'lumki, fir'avn qadimgi Misr podshohlarining nomi sifatida qo'llanilgan.

Fag'furi esa qadimgi Xitoy hukmdorlarini nomi sifatida ishlatilgan. XIX asrlarda bu nomlar unutilib, shoh, podshoh, xon atamaları yuzaga kelgan edi. Demak, dostonlar tilida o'tmishga oid eng qadimiy arxaik va tarixiy so'zlar saqlanib qolar ekan. Biz quyida bu masalalarga kengroq to'xtalib o'tamiz.

2.1. Dostonlar tilida arxaizmlarning nutqiy voqealanishi.

A) Leksik arxaizmlar. Arxaizm yunon tilidan olingan bo'lib, *qadim, qadimgi* degan ma'nolarni bildiradi. Ular hozirgi umumxalq tilida ishlatilmaydigan va eskirib qolgan so'z hamda iboralardir¹.

“Go'ro'g'li” dostonlari og'zaki tarzda ijro qilinishiga qaramasdan ular matnida ham eskirgan so'zlar anchani tashkil etadi.

Eskirgan so'zlarning aksariyati maishiy turmush bilan aloqadordir. Doston voqealari ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni tasvirlaganligi sababli ular tarkibida qadimgi turmush tarziga oid anchagina so'zlar saqlanib qolgan.

Turar joylar:

Kuma - yerto'la; **chotma** - yozgi chortoq.

Safar ko'sani olib borib, bir kumaga qamab, ustidan tamma urib qo'yaverdilar. (G. 343-bet.)

Men Uch gumbaz tog'idagi chotmada sigir so'yib bergan bolaman, dedi Go'ro'g'li. (G. 45-bet.)

Kiyimlar: **chekman** - tuya junidan to'qilgan ustki kiyim; **kuloh** - darveshlar kiyadigan uchli telpak; **janda** - darveshlar kiyadigan to'n; **qabo** - xotin qizlar kiyadigan yengil chopon, **zar qubba** - malikalar kiyadigan bosh kiyimi.

Go'ro'g'li o'ttiz tuyaning junidan to'qilgan chakmanini egniga olib, belini o'ttiz gaz arqon bilan bog'lab maydonga chiqdi. (G. 187-bet.)

Go'ro'g'li kiyimlarini yechib boshiga kuloh, egniga janda kiydi. (G. 215-bet.)

Boshlariga zar qubbalar taqmishdur, Shirin jonim ishq o'tina yoqmishdur. (G. 59-bet.)

Egnimdan yechilmish gulgun qabolar, Tark aylagan bizni kayfu safolar. (G. 340-bet.)

Xo'jalik anjomlari: **xurjun** - ikki ko'zli, ot yoki eshak ustiga yuki bilan ortiladigan, jundan ishlangan anjom, **kajava** - arava ustiga o'rnatiladigan yuk anjomi.

¹ Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995. –Б. 15. (86)

*Ravshanbek yangasi bilan buvasini otga mingashtirib **xurjunini** yelkasiga tashlab, qal'adan chiqdi. (G. 27-bet.)*

*Gulamdonni darrov tuyaga yuklangan **kajavadan** tushirdilar, to'y ustiga to'y boshlanib ketdi. (G. 97-bet.)*

Qurol-yaroqlar: **O'q-yoy;** **sadoq** - o'qdon; **Nayza;** **choroyna**-sovutning ostidan kiyiladigan temir to'r. **Shashpar** - (shamshir)-xanjarning bir turi.

*Jig'olibek Ravshanbekka bir **o'q-yoy** yasab berib aytdiki, endi umidimiz sendan, ovchilik qilib bir narsa topib bizlarni boqarsan, dedi. (G. 29-bet)*

***Sodoqimda** bir o'q qoldi, dedi Go'ro'g'li. (G. 80-bet.)*

***Nayza** aytar men yarog'man, yovni sanchishga yararman. (G. 187-bet.)*

*Arabning orqasida **choroyna** bor ekan. O'q uning tanasiga o'tmadi. (G. 153-bet.)*

***Shashpar** aytar mening ishim o'n ikki bo'lakdir boshim. (G. 173-bet.)*

Boshqa tillardan o'zlashma sifatida o'tib, keyinchalik eskirgan so'zlar:

Mashvarat - maslahat yig'ilishi.

*Chamlibelning katxudolari yig'in-**mashvarat** etib aytdilarki, ey xaloyiq, Odibek o'lgandan beri yurtimiz sultonsiz qoldi. (G. 51-bet.)*

Mehrob - namoz o'qiladigan joy. Go'ro'g'li ketmonni **mehrobning** tagiga qo'yib, yovani orqasiga qistirib o'rnidan turdi. (G. 294-bet.)

Zakot - soliqning bir turi. **Zakotingni** berib ketgil, Bozirgon. (G. 365-bet.)

Sim - kumush; **zar** – oltin. Yemay yig'ib **sumi –zarni** birga olib ketgan bormi. (G. 464-bet.)

Mahshar - qiyomat. Unutib ro'zi **mahsharni** oxiriga yetgan bormi. (G. 464-bet.)

Oziq-ovqat nomlari: **Ko'mach** - xamirdan qozonda qotirib pishiriladigan non. Hozir sen ikki **ko'mach** pishirib birini menga ber, birini o'zing belingga tug, dedi Jig'olibek. (G. 39-bet.)

Uzunlik va og'irlik o'lchovlari: **gaz** (62 sm.dan 91,5 sm. gacha) **arshin** (0, 71 metr); **botmon**-og'irligi 20,16 kg dan 40,95 kg gacha (Xivada)

*Otga mingan, bo'yi ikki **gaz**, eni bir yarim **gaz**, ko'zlari yonib turgan bir yigit. (G. 49-bet.)*

*O'n sakkiz **arshin** ot mindim,*

Otdan armonim qolmadi. ("Go'ro'g'li". 357-bet.)

Yo'qdir sening tengu toying,

*Ustingda uch **botmon** yoying. (G. 47-bet.)*

Pardoz-andoz bilan bog'liq so'zlar: **mushk** - qora tusli xushbo'y modda.

Anbar - xushbo'y modda.

Yurganda iziga mushk anbar sochar,

Gulandomdek navjuvonni ko'rmadim. (G. 13-bet.)

Anbar soching, zarga to'lgan kokiling,

Birdir abrishimdan, taldan, Avazim! (G. 97-bet.)

Bu so'zlar jamiyat taraqqiyoti jarayonida asta-sekin unutilib, eskirgan leksika qatoridan joy olishgan.

Xalq dostonlari leksikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, og'zaki variantlar hozirgi davrda ijro etilganda ham unda eskirgan so'zlar ko'p ishlatiladi. Agarda so'rasangiz baxshining o'zi ham uning ma'nosiga tushunmaydi. Chunki doston matni ustozdan shogirdga o'tganda o'zgarmasdan o'tadi. Baxshichilik an'anasida ularni o'zgartirish ayb hisoblangan. Biroq, jamiyat taraqqiyoti jarayonida matnga neologizmlar kirib keladi. Masalan. Bolabaxshi kuylagan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida "Lampochka", "Samovar" so'zlari uchraydi. Eskirgan so'zlar voqea tafsilotlarini berishda qulay vosita hisoblanadi. Ularni qo'llash voqealar bo'lib o'tgan davrni qayta jonlantiradi. Bu so'zlarning etimologiyasini tadqiq qilish til tarixining ochilmagan sahifalarini yoritadi.

B) Frazelogik arxaizmlar. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida hamma narsa o'zgarib boradi. Bu degan so'z bir narsaning o'rniga uning takomillashgan ikkinchi turi keladi. Moddiy hayot o'zgarishi bilan ma'naviy hayotda ham albatta o'zgarish yuz beradi.

Til ijtimoiy hodisa sanalar ekan, u ham jamiyatga moslashgan holda yangilanib boradi. Demak, tilda ham nimalardir eskiradi, nimalardir yangilanadi.

Xalqning so'zlashuv nutqida ko'plab frazeologik iboralarga murojaat

qilinadi. Ular gapga sayqal berib, nutqqa jon kiritadi.

Xalq dostonlarida ijrochi tomonidan bayon etiladigan badiiy nutq ham o'sha xalqning so'zlashuv nutqi zaminida ro'y beradi.

Doston ijrochilari frazeologik iboralar negizida go'zal ifodalarni yuzaga keltiradilar. Shu sababli dostonlarni xalq jon qulog'i bilan tinglaydi.

Jamiyat ilgarilaydi, davr o'zgaradi. Ammo bundan yuz yillar, balki undan ham oldin xalq orasida faol ishlatilgan iboralar dostonlar tilida saqlanib qoladi. Bu iboralarning aksariyati hozirda iste'moldan chiqqan. Uni yosh avlod sharhlarsiz tushunib yeta olmaydi. Bunday iboralar fan tilida frazeologik arxaizmlar deb yuritiladi.

Mang'itlik Tursun baxshi Jumaniyozov tilidan yozib olingan "Hurliqo va Hamro" dostonida shunday bir jumla bor: "*Hurliqo parizod: hey, kanizlar, berroq kelinglar, tezroq kelinglar deb **surangni solaberdi***". (Oshiqnoma, 3-kitob, 292-bet.)

Bu jumlada "**surang solmoq**" iborasi e'tiborni tortadi. Alisher Navoiy asarlari lug'atida sur so'zi karnay, surnay tarzida izohlangan¹. Shoir:

Ey Navoiy, dardlig' nolang qilur elni halok,

*Aytqil: **Suri qiyomat**, yo'qsa afg'ondurmu ul?*

Degan baytida suri qiyomat birikmasini keltiradi. Diniy afsonalarda aytilishicha, Isrofil farishta chaladigan surnay ovozi kishilarni qiyomat boshlanganidan ogoh qilar ekan.

Endi dostondagi birikma masalasiga kelsak, uning sur+ang tarzida berilishi **sur** va **hang** (ovoz) so'zlarining birikuvi natijasidir. Agarda to'g'ridan to'g'ri oladigan bo'lsak, **surnay ovozi** ma'nosi kelib chiqadi. Biroq, baxshi bu yerda **shovqin-suron**, qattiq baqirib, hayajon bilan aytilgan so'zlarni ifodalamoqchi. Suron so'zining o'zagi ham **sur** bo'lib **on** qo'shimchasi ko'plikni anglatadi. Demak, **surang solmoq** birikmasi shovqin-suron ko'tarmoq ma'nosini berar ekan.

Bunday iboralar dostonlar matnida anchani tashkil qiladi. Ulardan

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 3-том. –Т.: “Фан”, 1984. –Б.126.

ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

Yilimning kadisiday.

Safar ko'sa yilimning kadisiday lo'nkillab podshoning oldiga bordi.
(Go'ro'g'li, 102-bet.)

Keksalarning aytishicha, ilgari Xorazmda ko'llar ko'p bo'lgan. Vaqti-vaqti bilan ommaviy baliq oviga chiqishib, ko'lga baliq ovlash uchun to'r tashlangan. To'rni suv yuzida tutib turish uchun unga suv qovoq-xorazmcha suv kadi bog'lashgan. To'rni tortganda suv qovoqlar goh cho'mib, goh chiqib, lo'killab turgan. Yilim-yilishtirish, o'rnidan jildirish ma'nosiga ega. **Yilimning kadisiday lo'killayverma** iborasi o'shandan qolgan ekan. Dostonda o'sha hodisaga ishora qilingan.

Pizlovuq kadiday. *Uning kallasi pizlovuq kadiday yumalanib ketdi.*
(Oshiqnoma, 6-kitob, 87-bet.)

Aytishlariga qaraganda, ilgari zamonlarda to'y-tomoshalarda suv qovoqning tubiga kichik o'q o'rnatib, avvalo, qo'l bilan aylantirib yuborib keyin qamchiga o'xshatib, tayoq uchiga ip bog'lab bo'sh ip bilan kadini urib aylantirib, tomosha ko'rsatishgan. Kadi vizillab sas chiqargan. Shu sababli pizlovuq so'zi qo'shib aytilgan. Ip bilan urish to'xtatilgan paytda kadi yumalanib ketgan. Yuqoridagi misol ana shu ikki hodisaga asoslangan.

Moy davladay sollanglab...

Go'ro'g'li inarning ustida moy davladay sollanglab turabardi.
(Go'ro'g'li, 148-bet.) Axborotchilarning qayd qilishlaricha, qadimda yog' saqlanadigan idishni meshga o'xshatib, hayvon terisidan ishlashgan. Uni davla deb atashgan. Ularga yog' solib, ikkalasini ot yoki eshak ustiga xurjunday tashlab qo'yishgan. Yo'l yurish jarayonida ular sollanglab, harakatda bo'lishgan. Go'ro'g'lini ham asirga olgan arab tuyanining ustiga moy davladay ikki bukib tashlagan. Iborada ana shu o'xshashlikka ishora mavjud.

Digirmonga sumak qoqqanday.

Avazxon arabning yag'irnidan urdi nayzani, digirmonga sumak qoqqanday bo'lib arabni yer qoptirdi. (Go'ro'g'li, 156-bet.) Ilgari zamonlarda

Xorazmda qo'lda aylantiriladigan tegirmonlar bo'lgan. Tegirmonning toshlarini mustahkam tutib turish uchun uning markaziga qattiq yog'ochdan o'q qoqilgan. Uning yerga kirib turgan qismi 1,5-2 metrni tashkil etgan. Ana shu o'q Avazxonning nayzasiga qiyoslangan.

Qanorga to'nka tashlaganday

*Arab Rayhon inarning etlarini **qanorga to'nka tashlaganday** og'ziga dursildatib tashlab yotir.* (Go'ro'g'li, 131-bet.)

Yaqin o'tmishda qanor-qoplar bo'lar edi. O'sha paytlarda o'tin g'o'lalarini unga solib, orqalab uyga tashilgan. "Go'ro'g'li" eposida Arab Rayhonning ovqat yeyishi, to'g'rirog'i tuya go'shtining bo'laklarini og'ziga xuddi qanor qopga o'tin tashlaganday otib turishi mubolag'ali qiyoslangan.

Qalandarning kadisiday bo'm-bo'sh.

*Ertasi kuni o'rnidan turib qarasa, uy **qalandarning kadisiday bo'm-bo'sh.*** (Go'ro'g'li, 260-bet.)

Qadimda so'fiylik tariqatiga e'tiqod qo'ygan qalandarlar, darveshlar doimo el kezib yurishgan. Aytishlariga qaraganda qalandarlar kokil qo'yib, ko'chama-ko'cha yurib turli so'fiyona g'azallar o'qib yurishgan. Ular bellariga suv qovoq osib qo'yishgan. Biror bir xayr-sadaqa beradigan kishi o'sha suv qovoq-kadiga bir ikki chaqa yoki pul tashlagan. Ammo kadi hamisha ham chaqaga to'lavermagan. Ba'zan bo'm-bo'shligicha qolgan.

"Go'ro'g'li" eposida Og'a Yunus parining arazlab Bog'i Eramga ketib qolgandan keyin uyning bo'm-bo'sh huvillab qolishi o'sha qalandarlarning kadisiga o'xshatilgan.

O'kchani ko'tardi. *Bu gapni eshitgan zamon o'g'lon shaharga qarab o'kchani ko'tardi.* (Oshiqnoma, 6-kitob, 22-bet.)

O'kchani ko'tarmoq iborasi keksalar nutqida hozirda ham ahyon-ahyonda qo'llaniladi. Bu iboraning ma'nosi **tezda jo'nab ketmoq, shu zahoti yo'l olmoq** kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

Bu iboraning yana bir ko'rinishi "Go'ro'g'li" eposida keltirilgan:

*"O'g'rilar bu baloning nerdan kelganiga hayron bo'lib, ikki **oyog'ini***

alina olib zim-ziyo bo'ldilar. (Oshiqnoma, 6-kitob, 223-bet.)

Kadi-kadiga qoqilishganday

Go'ro'g'li bilan Avazxon urushga kirishdi, kadi-kadiga qoqilishganday bo'lib, kallalar yumalanaverdi. (Go'ro'g'li, 184-bet.)

Kuzda poliz ekinlarini yig'ishtirganda kadi, qovunlardan xirik (uyum) yasalgan. Ularni uyumga yaqinlashganda yumalab yuborishgan. Kadi-kadiga, qovun-qovunga tegib uyum yasalgan.

Yuqoridagi misolda urush sahnasi berilgan bo'lib, kallalarning yumalanishi, polizdagi kadi-qovunlar uyumiga qiyosan keltirilgan.

Oltinini yo'qotgan qulday. Ne balo, oltinini yo'qotgan qulday shalvirab nishab turibsan, dedi Go'ro'g'li. (Oshiqnoma, 6-kitob, 331-bet.)

O'tmishda qul saqlashgan. Uning na huquqi, na mol-mulki, hech narsasi bo'lmagan. Endi u tasodifan oltin topsa, undan baxtli odam yo'qligi ayon. Ammo shu oltinni yo'qotib qo'ysa, uning qay ahvolga tushishi ma'lum. Qulning albatta esankirab, shalvirab, o'zini yo'qotib qo'yishi turgan gap.

Bu iborada Safar ko'saning xotinini yo'qotib, talmovsirab qolgani, maslahat so'rash uchun Go'ro'g'lining oldiga kelganidagi ayanchli ahvoli tasvirlangan.

O'q yegan arslonday

Safar ko'sa o'q yegan arslonday to'rt tarafga og'iz tashlay berdi. (Go'ro'g'li, 313-bet.)

Arslonning kuch-qudrati o'z-o'zidan ma'lum. Agar u yarador qilinsa, sherning sherligi o'n chandon oshishi tabiiydir. Ushbu keltirilgan misolda Safar ko'saning jahlga minishi va asabga berilib to'lg'anishi ana shu sher ahvolotiga taqqoslanadi. Frazеologik ibora bu yerda yuksak badiiy ifoda sifatida namoyon bo'ladi. Bunday qiyoslashlar hozirgi davrda unutilib ketgan.

Ekinga cho'kitga dorig'anday

Ilgarigi zamonlarda vaqti-vaqti bilan ekinlarni chigirtka bosib, dalalarni ship-shiydon qilib ketgan. Ushbu hodisa "Go'ro'g'li" eposida och qalandarlarga nisbatan ishlatilgan. *"Qalandarlar yaxna etni, choy-chilimni ko'rib, ekinga*

cho'kitga dorig'anday ustiga o'zlarini otdilar. Etni yeb, choyni ichib, chilimni chekib, uyquga ketdilar". (Go'ro'g'li, 227-bet.)

Maydondan qochgan qo'chqorday. O'tgan zamonda keng daladan maydon tanlab, to'y davrasi tashkil qilganlar. Maydonda kurash tutish, qo'chqor urishtirish va boshqa tomoshalar ko'rsatilgan. Albatta, kurashda kimdir yengilgani kabi, qo'chqorlarning bittasi ham urishishda yengilib, maydonni tashlab qochgan.

"Go'ro'g'li" eposida Go'ro'g'lidan qo'rqib qochgan g'anim askarining ahvoli o'sha hodisaga qiyoslangan: *Askar maydondan qochgan qo'chqorday, tili tanglayiga yopishib so'zlab bilmay o'tirdi.* (Go'ro'g'li, 204-bet.)

Xaltasini yo'qotgan devonaday

Qosimning lofi kaj bo'ldi. Xaltasini yo'qotgan devonaday o'tirib qoldi. (Oshiqnoma, 6-kitob, 109-bet.)

Ushbu iboraning ham tarixi ancha uzoq. Ilgari devona-tilanchilar ko'p bo'lgan. Xalq o'ta kambag'al, och-nahor kun kechirgan. Devonalar uyma-uy yurib tilanchilik qilib, bir burda nonni zo'rg'a topib xaltasiga solishgan. Ana endi o'sha xaltaning yo'qolishini tasavvur qiling. Bu holatda devonaning ochlikdan sillasi quriydi, uni g'am bosadi.

Yuqoridagi misolda dostonning bosh qahramoni o'z sevgilisini izlab kelib, boshqa bir qizga duch keladi va hafsalasi pir bo'ladi. Ana shu holat xaltasini yo'qotgan devona ahvoliga qiyoslanadi.

Bir qoshiq qondan kechmoq

Ahmadbek: bu yigitning gunoh qiladurg'on siyoqi yo'qdur, men podshohdin bir qoshiq qonini so'rab olurman, dedi. (Oshiqnoma, 4-kitob, 102-bet.) Podshoh va xonlar hukm surgan davrlarda jazoga tortilgan mahkumlarni ba'zan yuksak obro'ga ega bo'lgan kishilar xon yoki podshodan afv qilishni iltimos qilishgan. O'sha paytda bu ibora ishlatilgan. Umuman olganda, frazeologik ibora shaklida ishlatilib, o'z davrida faol qo'llanilgan bu toifa iboralar dostonlar tilida juda ko'pchilikni tashkil etadi. Hozirgi davrda ular eskirib iste'moldan chiqqan. Ammo til boyligi sifatida ular xalq ijodiyoti asarlari

tarkibida bizgacha yetib kelgan.

D) Grammatik arxaizmlar

Xorazm dostonlari XIX asrdan boshlab yozuvga ko'chirilganligi sababli, ularning tiliga savodxon kotiblar tomonidan ko'pgina kitobiy leksika ham olib kirilgan. Natijada doston matnlarida oddiy xalq tilida uchramaydigan uslub va o'zlashma qatlamga oid so'zlar uchraydi.

Bu holat turli grammatik o'ziga xoslikni yuzaga keltirgan. O'sha davrdagi ziyolilar nutqiga xos bo'lgan turli ifoda shakllari hozirda eskirib, iste'moldan chiqqan.

O'zbek shevalari tarkibida turkiy bo'lmagan elementlarning ta'siri ularning leksikasidagina emas, balki fonetikasida va qisman grammatik qurilishida ham sezilib turadi¹.

Shunga binoan biz Xorazm dostonlari leksikasidagi grammatik arxaizmlar masalasiga ham qisqacha to'xtalamiz.

1. **Bilan** ko'makchisi **birla** va **bila** shaklida beriladi:

*Ko'zinda yosh, bag'rinda tosh **birla** bir g'azal aytdi.* (Oshiqnoma, 4-kitob, 77-bet.)

Ey G'aribjon, muncha so'zlar demagil,

*Borganing yaxshidur ishorat **bila**.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 56-bet.)

2. Buyruq mayli II shaxs birligi **-g'il** tarzida ifodalanadi:

Bu o'lkada ey Dastagul,

*Men o'lganda sen **yig'log'il**.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 67-bet.)

3. **-ar** sifatdoshi **-ur** shaklini oladi:

*Saning bosgan izing guluzor **bo'lur**.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 38-bet.)

4. Tushum kelishigi qo'shimchasi ba'zan **-im** tarzida qo'llaniladi.

*Bugun ruxsat berib shod ayla **bizim**.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 211-bet.)

5. Chiqish kelishigi **-din** shaklini oladi va undan, bundan so'zlari **andin**, **shundin** shakliga almashadi:

¹ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек шевалари ва уларни ўрганиш ҳақида умумий маълумот. // Ўзбек халқ шевалари луғати. –Т: “Фан”, 1971. –Б. 392. (386-407)

*Alqissa, **andin** so'ng Dastagul qaytib ketdi.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 59-bet.)

***Mundin** kechib qayga borishing aytgil.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 188-bet.)

6. **Dedi** fe'li **aydi** shaklida ifodalanadi: *G'arib podshoga arzini bayon qilib bir so'z **aydi**.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 38-bet.)

7. **Ey** undalmasi o'rnida **ayo** shakli qo'llaniladi:

Ayo shohim, sirim bayon aylayin,

Ayo shohim, bu so'zima quloq sol. ("Oshiqnoma", 4-kitob, 71-bet.)

Dostonlarda bu undalmaning **ayo** shakli ko'p hollarda qofiya talabi bilan qo'llaniladi. Ko'p hollarda **ey** undalmasining o'zi ishlatilaveradi:

Ey Dastagul, ko'p so'zlamak ne hojat...

Ey bibijon, mundin umid uzarsan... ("Oshiqnoma", 4-kitob, 62-bet.)

8. So'roq yuklamasi **-mi** aksariyat hollarda **-mu** tarzida keladi:

Tanimda jonim borincha,

*Shohsanamdin **kecharmanmu**?* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 66-bet.)

9. Fe'ning I shaxsdagi inkor ko'rinishi **-man**, **-mon** shaklida namoyon bo'ladi:

*Man bu daryog'a tusho **bilman**, tushsam ham omon chiqmasman.*

("Oshiqnoma", 1-kitob, 143-bet.)

Ushbu ifodaning **-manam** shakli ham uchraydi:

*Pasni ko'zlab, baland yerga **oqmanam**.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 143-bet.)

10. Ko'rsatish olmoshlari **ul**, **bul** ko'rinishida ifodalanadi:

***Ul** Bag'dod elina o'zingni solsang.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 33-bet.)

*Savol-javob g'azali **bul** turur.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 143-bet.)

11. **Yoki** bog'lovchisi **yo-da** tarzida ifodaga ega bo'ladi:

*Yo o'ldirib, **yo-da** o'lib keturman...* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 169-bet.)

12. **Aloqani uzdi** tushunchasi **al chakdi** birikmasi orqali beriladi.

*Yuz o'girib, **al chakdi** Gavhar hayodin-shardin.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 190-bet.)

13. Fe'ning I shaxs inkor shakli **qo'rqmayman-qo'rqmaram** tarzida beriladi:

Yuzim do'ndarmam zulmdin,

***Qo'rqmaram**, gavhar, o'limdin.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 204-bet.)

14. **Aylamoq** soʻzi **aylayub** tarzida ifodaga tortiladi:

Eshit, sen Sherali, mening soʻzimni,

*Qish **aylayub**, bahor ila yozimni.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 163-bet.)

Shuningdek, **deydi** feʼli **deyur** koʻrinishini oladi:

*Ul oʻyladiki, tursam bir qizni ayt, **deyurlar**. Men kimni aytarimni bilmaydurman.* (“Oshiqnoma”, 4-kitob, 97-bet.)

15. Uchinchi shaxsda turlanuvchi **yetishmoq** feʼli **yetushdi** koʻrinishida ishlatiladi:

*Shahzoda boshqa suvratda boʻlib, chandon muddatda Madinatul Qaʼriyaga **yetushdi**.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 137-bet.)

16. **Seniki** soʻzi **saningdur**, **sizniki** soʻzi **sizingdur** tarzida ifodalanadi:

Omonat saningdur, qilma xiyonat...

Sarvi boʻyluq, nozi moʻrcha sizingdur... (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 146-bet.)

17. Buyruq feʼli uchinchi shaxs aytsin feʼli **aytsun** shakliga ega.

*Hech gʻam **yemasun**, har na dardi boʻlsa **aytsun**, dedi.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 147-bet.)

18. **-gan** qoʻshimchasi **-gʻon** shaklini oladi?

*Pari **yulingʻon** qush kabi pajmurdi boʻlub oʻlturub erdi.*

(“Oshiqnoma”, 1-kitob, 152-bet.)

19. **Turli** soʻzi **turluk** tarzida ifodaga ega boʻladi:

***Turluk-turluk** balolargʻa yor oʻldi.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 162-bet.)

20. Feʼlning noaniq shakli **aytmoq-aymoq** koʻrinishida ishlatiladi:

Kelur deyib aymoq ani na darkor... (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 192-bet.)

21. **Ha** - tasdiq feʼli oʻrnida **oriy** soʻzi qoʻllaniladi: **Oriy**, sizlarning soʻzlaringiz koʻp xush turur. (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 208-bet.)

22. **-dir** toʻliqsiz feʼli **turur** koʻrinishiga ega:

*Bu ot odamdin aqlli **turur** munga bir xushomad soʻz aytsam yurgay dedi.*

(“Oshiqnoma”, 1-kitob, 213-bet.)

23. **Kerak boʻlsa** birikmasi **keraksa** shakliga qisqartib ishlatilgan:

*Zar **keraksa** ina kelib olinglar.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 238-bet.)

24. Buyruq fe'lining ikkinchi shaxsdagi **yetkaz** shakli **yetkur** ko'rinishiga ega:

Bog'u bo'stonimni manga tez yetkur... ("Oshiqnoma", 1-kitob, 256-bet.)

25. **Demoqchi, aytmoqchi** so'zlari o'rnida **degasi** shakli ishlatilgan:

Bir so'zim bor shohim, sizga degasi,

Keldi bu dam toju taxtning egasi. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 260-bet.)

26. Buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birligi **qil** so'zi **sol** so'zi bilan almashadi:

Jabbori jahon, emdi bechorag'a rahming sol... ("Oshiqnoma", 1-kitob, 311-bet.)

Xorazm dostonlari tilidagi bu toifa grammatik shakllarning rang-barangligiga asosiy sabab ularning yozuvga ko'chirilganligidir. Savodxon, madrasa ta'limini olgan kotiblar dostonlarni matnga ko'chirganlarida o'sha davrdagi kitobiy adabiy tilga yaqinlashtirib, ixcham bir tizimga solishgan va ularni qissaxonlar maxsus auditoriyalarda qiroat bilan o'qishgan.

2.2. Dostonlar tilida tarixiy-so'zlarning nutqiy voqealanishi.

Qo'lyozma va toshbosma orqali yetib kelgan dostonlarda tarixiy so'zlarning salmog'i ancha keng doirani tashkil etadi. Ayniqsa boshqaruv bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy sohaga oid so'zlar ko'p uchraydi.

Oqsoqol-qadimda mahalla amaldori sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Kamoljonning iziga vakil-oqsoqollarning qizlari ham tushib kelibdir, dedilar. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 50-bet.)

Bu misoldagi vakil so'zi ham amaldorlar toifasiga kiradigan katta vakolat egasidir. Uni ba'zan noib deb ham yuritishadi.

Noib so'zining o'zi o'rinbosar ma'nosiga ega bo'lib yuqoridan kelgan topshiriqlarni ado etgan.

Otaliq - xon maslahatchisi.

Inoyat otaliq aydi: Ey malikai Zavriyo, bizlar sizdin hijob eturmiz, sizga arzimiz bor. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 273-bet.)

Inoq - Xorazm xonligi va Buxoro amirligida davlat rahbarining topshiriqlarini bajaruvchi yuksak amal egasi bo'lgan.

Shoh, vazir, vakil, inoqlar buni ko'rub aydilar: hayf podshohning qizi mundog' devonag'a tushubdur. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 155-bet.)

Mehtar, qushbegi, mahram, muhrdor, biy: *Biri mehtar, biri qushbegi, hamma mahramlar, to'rt muhrdor, to'qson biy to'plandilar.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 170-bet.)

Mehtar - xonlikda oliy lavozim egalaridan biri.

Qushbegi - amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo'lgan yirik amaldor.

Mahram - aslida haram bilan aloqador so'z. Ba'zan hukumatda yozuvchizuv ishlari bilan ham shug'ullangan. Hukmdorning yaqin kishilaridan biri.

Muhrdor - xon yoki amir hujjatlariga muhr bosuvchi lavozim egasi.

Biy - qabila yoki qabilalar ittifoqining boshlig'i, to'rasi, ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning urug' oqsoqoli.

Jarchi - odamlar ko'p to'planadigan joylarda baland ovozda rasmiy xabarlarini eshittirib yuruvchi kishi.

Bu nomlarning barchasi o'z davrining siyosiy-iqtisodiy tuzumi bilan chambarchas bog'liqdir.

1. Harbiy sohaga oid so'zlar

Dostonlar tilida eng qadimgi urush qurollaridan tortib, miltiqqacha bo'lgan harbiy atamalar o'z o'rnini egallagan.

Qadimgi urush qurollaridan **yoy, nayza, qilich** ko'p tilga olinadi.

Adiganing oltin g'ilofli qilichi bor edi, ani olib, jo'shdin qilingan bir yoyi bor erdi, yana bir nayza bor erdi, ani ham olib, xazinadan chiqdi.

("Oshiqnoma", 1-kitob, 206-bet.)

Choroyna, dubulg'a – bu qurollarning birinchisi uzoqdan ko'rish uchun durbin o'rnida ishlatilgan. Ikkinchisi boshga kiyiladigan temirdan ishlangan asbobdir.

Dev choroyna, dubulg'a, saropoy va tamomi yarog'larini kiyib otiga mindi. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 223-bet.)

To'p, zambarak, shamhol, miltiq.

Adigaga to'p, zambarak, shamhol va miltiq ota boshladilar. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 241-bet.)

Shotir - jilovdor, navkar.

Boboxon shotir Shohsanamni Shirvonga olib ketdi. ("Oshiqnoma", 2-kitob, 95-bet.)

Navkar - askar.

Navkarlarim bog' deshinda yotirdim. ("Oshiqnoma", 2-kitob, 140-bet.)

Jazoyil - urush quroli

Jazoyil, miltiqu shamxolu nayzalardin pano bergil. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 325-bet.)

Paykon - o'q.

Bedovlari jeva cholur,

Chopg'onda paykondek kelur. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 73-bet.)

Sipohsolar – harbiy zobit.

Rum shahrinda sipohsolar bor erdi. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 331-bet.)

Tiri boron - o'q yomg'iri.

Boshimizga yog'ilg'on tiri boronlardin pano bergil. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 332-bet.)

Chopovul - talash, bosqinchilik.

Bir necha gazik Isfahon yo'llarida chapovul etdilar. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 333-bet.)

Yazid - dushman.

Qilduk yazidning izzasin. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 334-bet.)

Yasov - saf, saflanish.

Yasov tortib sog'u so'ldin yetishdi. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 44-bet.)

Banda - asir. *Qizil boshg'a banda bo'lub.* ("Oshiqnoma", 3-kitob, 94-bet.)

Cherik - askar. *Cherik tushar Qo'histona.* ("Oshiqnoma", 3-kitob, 114-bet.)

Qurilish, me'morchilik va kasb-hunar, mashg'ulotlarga oid tarixiy so'zlar. Dostonlar leksikasida xalq turmushi urf odatlari tasvirlanganligi sababli so'z boyligi nihoyatda rang barangdir.

Ijrochi baxshilar badiiy nutq jarayonida makon tasviriga alohida e'tibor qaratishadi. Bular: saroy, ko'shk, gumbaz kabi me'moriy obidalar bo'lib, ularda shahzoda va malikalar istiqomat qilishadi.

Bir necha manzil yo'l yurib, Sayodxonning tilla po'sh saroyiga kirib bordilar. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 254-bet.)

Tilla po'sh birikmasi zarhal berilgan gumbazni anglatadi.

*Sayodxon birla Hamro, Salbiniyoz uchovlari **tilla ko'shklariga** qaytdilar.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 101-bet.)

*Ohim o'tidin shohim, **gumbazi** ahzaring kuyar.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 259-bet.)

Tilla ko'shk oltindan hal berilgan ko'shkni bildirsa, **gumbazi axzar** ko'k rangli **gumbazni** anglatadi.

Dostonlar tilidagi tarixiy so'zlar orasida feodalizm davri boshqaruvi, qonun-qoidalari bilan aloqador turlari anchani tashkil etadi.

Karvon saroy, mayxona, zindon, chohimoron kabi nomlar bunga misol bo'la oladi.

*Qosim vazir cho'ldan o'tib, ko'ldan o'tib bir yurtning **karvonsaroyiga** yetib keldi.* ("Oshiqnoma", 3-kitob, 274-bet.)

*Hurliqo o'zining **mayxonasiga** kelib, ayshu ishratda bo'ldi.* ("Oshiqnoma", 3-kitob, 310-bet.)

*Yo shayxkabir pirim, **zindonda** qo'lim tutg'il.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 310-bet)

*Bog'bon aydi: Otang shahzodani **chohimorong'a** tashladi.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 307-bet.)

O'rdaminor kabi qurilishga aloqador obidalar ham ko'plab uchraydi.

*Qosim bobo bilan kechasi **o'rdaga** yo'l oldilar.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 109-bet.)

*Bog' ichra soldirding oltindin **minor.*** ("Oshiqnoma", 6-kitob, 147-bet.)

Dostonlarda kasb-kor, turli mashg'ulotlarga aloqador tarixiy so'zlar ham anchadir.

Mashshoq, go'yanda, masxaraboz.

Mashshoqlar nag'ma-soz etdi, go'yandalar doston aytdi, masxarabozlar el-xalqni kuldirdi. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 234-bet.)

Munajjim, poltomon, qurra do'z, qosid.

Darrov munajjimplarni, kitobxonlarni chaqirdi. Kitobxonlar kitob ochib, poltomonlar pol ochib, qurrado'zlar qurra tashlab aydilarki... ("Oshiqnoma", 3-kitob, 304-bet.)

Otasi tilidan xatnoma yozib va salom aytib qosidni yo'lladi. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 335-bet.)

Ushbu tarixiy so'zlar ajdodlar tarixi haqida tasavvur uyg'otadi. Qadimda podsholar biror muammo chiqsa, munajjimlar yulduzlar bo'yicha bashorat qilganlar, folbinlar fol ochishgan, qurrado'zlar qurra tashlab, kelajakda bo'ladigan voqealarni aytib berganlar. Natijaga qarab podsholar ish ko'rishgan.

Biror joyga xabar yetkazishni **qosidlar** bajarishgan.

Chilimkash, poyaki singari so'zlar esa aholining turli toifasiga xos kishilar xarakter-xususiyatini namoyon qiladi.

Ana chilimkash, poyaki, masxaraboz, baxshi bo'lsang jam bo'laver, deb jar qichqirtiraber dilar. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 271-bet.)

To'ylarda o'sha paytda chilim chekishgan. Chilimkashlar xizmatda turishgan. Bangilar bang iste'mol qilishgan, poyakilar ularga xizmat qilgan.

Gadoy, zindonbon.

Do'st tenglading qopi kezgan gadoyo... ("Oshiqnoma", 6-kitob, 224-bet.)

Shul vaqtda zindonbon ham otni yetkazdi. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 208-bet.)

Tarixiy so'zlar zahirida ajdodlarimiz tarixiga oid ko'plab etnografik ma'lumotlar ham yotadi. Yuqoridagi so'zlar buni to'la tasdiqlaydi.

Birikmali iboralar orqali ifodalangan tarixiy so'zlar

Dostonlar leksikasida forsiy va arabiy izofalar doirasi ancha keng. Diniy mafkura, turli ijtimoiy-siyosiy voqealar jarayonida xalq so'zlashuv tiliga, shu jumladan, dostonlardagi badiiy nutqqa ham ko'plab o'zlashma leksika kirib kelgan. Ayniqsa, yozuvga ko'chirilgan dostonlar tilida kotiblar o'zlashma so'z va izofalarga ko'proq murojaat qilishgan. Natijada izofalar va turli iboralardan

foydalanish dostonlar uslubiga katta ta'sir o'tkazgan. Hozirgi davrda bu toifa birikmali so'zlar, izofalar, iboralar iste'moldan chiqqan.

1. Xudo, payg'ambar, din homiylariga aloqador birikmalar.

Xoliqi Yakto - yagona **Xudo**. *Xudo'i taboraki taolo, poko parvardigoro sohibi maxluqot shohi olim xoliqi yaktoga topshirdim sani.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 281-bet.)

Qiz bechora Xudo'i taboraki taologa yolborib bir munojot o'qidi. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 268-bet.)

Poko parvardigoro, san man bechorani bu xaloyiq orasinda sharmanda qilma g'aysak. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 276-bet.)

Ey sohibi maxluqot, qoldim bir choh ichinda. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 34-bet.)

Yuqoridagi turli birikmalarda Xudo tushunchasi turlicha ifodalarda namoyon bo'lgan.

Rasuli Xudo, sohibi duldulsuvor, Nuh nabi.

Mundog' buyurmish Rasuli Xudo. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 315-bet.)

Tut qo'limni, yo'lda qoldim sohibi duldulsuvor. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 285-bet.)

Alardin so'n Nuh nabi bo'ldilar. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 318-bet.)

Ushbu misollarda Muhammad payg'ambar, choriyorlardan Ali va Nuh payg'ambarlar tilga olingan.

Ayrim birikmalardan ma'shuqa go'zalligi va mifik ifodalar o'z tasviriga ega bo'ladi.

Zulfi tanob, oftobi xovar, chashmai rizvon, huri jannat, bog'i raho.

Mushkin sochim anbar zulfi tanobim. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 153-bet.)

Zulfini tashlab, ko'zlarini suzib, misoli oftobi xovardek bo'lib aydi. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 184-bet.)

Ko'rguzmadi mango huri jannati. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 80-bet.)

Buloqlarin suvi chashmai rizvon. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 137-bet.)

Ko'rmisham bog'i rahoning. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 118-bet.)

Ushbu misollarda **zulfi tanob**-uzun soch, **oftobi xovar**-yorug' oftob, **chashmai rizvon**-behisht suvi, **bog'i raho**-so'lim bog', **huri jannat**-jannatning go'zali kabi go'zal tasvirlar mujassamlashgan.

Birikmali tarixiy so'zlar orasida madaniy-maishiy hayotga aloqador anchagina ifodalarni uchratish mumkin.

Ulamoi zamon, obi taom, iqdi nikoh, chusti cholok kabilar

*Andin so'ng podsho aydi: ikki **ulamoi zamon** borsin.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 270-bet.)

*Hech bir so'zga quloq solmadi, **obi taom** yemay o'lmakka yetishdi.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 134-bet.)

***Iqdi nikoh** aylab bir-biriga berdi.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 15-bet.)

***Chusti cholon** birdan tez turib, ayyori munhiyla ko'p-ko'p in'omlar berdi.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 153-bet.)

Ushbu ifodalar qo'lyozma dostonlarda tez-tez ko'zga tashlanadi. Hozirgi davrda bu birikmalarning ayrimlari butunlay iste'moldan chiqqan. Ayrimlari kamdan kam ishlatiladi.

Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid so'zlar.

Dostonlarda xalq tarixi o'z ifodasini topganligi sababli ular matni tarkibida "Hozirgi kunda uchraydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar istorizm (tarixiy so'zlar) ko'plab ko'zga tashlanadi. Istorizmning arxaizmlardan farqi shundaki, bugungi kunda o'sha tarixiy voqelikning o'zi ham uni anglatuvchi boshqa leksik birlik ham bo'lmaydi, demak, istorizm o'zi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir"¹.

Istorizm - tarixiy so'zlar, asosan, ijtimoiy-siyosiy tuzum, mansab, amal, unvonlar, sinflar, tabaqalar, kasb-hunar, harbiy soha va dinga oid so'zlardan iboratdir.

1. Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid tarixiy so'zlar

Podshoh.

*Nishopurning Bolibek degan **podshosi** bor edi.* ("Go'ro'g'li", 209-bet.)

¹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Т.: Фан, 2007. –Б.58. (122)

Shoh. *G'am yemagil Go'zal shohim,*

Shul sunnini xor aylaram. ("Go'ro'g'li", 355-bet.)

Xon. *Arzimni eshitsa Go'ro'g'li xonim,*

Diydor qiyomatga qoldi degaysan. ("Go'ro'g'li", 402-bet.)

Xo'ja, qul, bek. *Qul xo'jadan ruxsat tilar, or bo'lmas,*

Begim, sendin ruxsatimni tilarman. ("Go'ro'g'li", 399-bet.)

Vazir: *Hamdam vazir kelmadi.* ("Go'ro'g'li", 414-bet.)

Sulton: *Tushimda kelibdi Go'ro'g'li sulton*

Yonlarida botir o'g'li Avazxon. ("Go'ro'g'li", 432-bet.)

To'ra: *To'rang nedur, beging nedur bilmasman.* ("Go'ro'g'li", 420-bet.)

Podsho so'zi davlat boshlig'i ma'nosida ishlatiladi. Doston voqealari feodalizm davri bilan aloqador bo'lganligi sababli podshoh hukmdor sifatida tilga olinib, unga muqobil tarzda ba'zan sulton, shoh va xon atamaları ham qo'llaniladi. Vazir xondan keyingi ikkinchi shaxsdir. Xo'ja so'zi xo'jayin ma'nosida ishlatiladi. Bek, to'ra so'zlari hukmdor tabaqa vakillarining turli darajalarini anglatadi.

Yuqorida ishlatilgan qul so'zi huquqsiz xizmatkorni anglatadi. Bu so'z bilan birga kaniz, cho'ri, malika so'zlari ham tez-tez ko'zga tashlanadi:

Bir kaniz olib chiqdilar, yuzlari oy bilan talashib turibdi. ("Go'ro'g'li", 68-bet.)

Kampir ipakka o'ralib uxlab yotibdi, ikki cho'ri qiz yelpib o'tiribdi. ("Go'ro'g'li", 229-bet.)

Malika hukmdorning qizi. Kaniz va cho'ri esa xizmatkorlardir. Biroq bu ikkala xizmatkor o'rtasida muayyan farq ham mavjud. Kaniz malikalarning xos xizmatkori. Cho'ri esa oddiy xizmatkor bo'lib, qul o'rnida qora ishlarni bajaradi.

2. Harbiy sohaga oid tarixiy so'zlar.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari turli urush-savashlar bilan aloqador voqealarni tasvirlagani sababli unda harbiy sohaga oid mansablar, qurollar ko'plab tilga olinadi.

Sarkarda. *Kajang botir degan bir sarkardasini bosh qilib, Chamlibelga jo'natdi.* ("Go'ro'g'li", 167-bet.)

Sardor. *Sardor Go'ro'g'li, rahm ayla!* ("Go'ro'g'li", 331-bet.)

Lashkarboshi. *Xandon botirni lashkarboshining Sarvigul degan qizi ko'rib qoldi.* ("Go'ro'g'li", 319-bet.)

Sarkarda, sardor, lashkarboshi atamaları harbiy boshliqlar mansabi nomlarini bildiradi. Ular bilan bir qatorda navkar, lashkar, askar atamaları ham ishlatilib, ular oddiy jangchilarning turlicha nomlanishidir.

Harbiy sohaga oid **to'p**, **miltiq**, **qalqon**, **sovut** va boshqa qurol-yarog' nomlari ko'p tilga olinadi:

Qal'amizga to'plardan o'q otibdur. ("Go'ro'g'li", 167-bet.)

Qirq ming sovut temir to'nli kelibdur. ("Go'ro'g'li", 168-bet.)

Miltiq aytar sasim yomon. ("Go'ro'g'li", 172-bet.)

Qalqon aytar: man olaman. ("Go'ro'g'li", 173-bet.)

3. Diniy, afsonaviy tushunchalarga oid tarixiy so'zlar.

Mulla, imom, pir, so'fi.

Bu shaharning mulla, imomlari avvalardan yo'q bo'lib ketgan edi. ("Go'ro'g'li", 121-bet.) **pir, so'fi.**

Piringa qo'l berib so'fi bo'lib qaytdingmi, dedi. ("Go'ro'g'li", 43-bet.)

Sahoba.

Yuziga fotiha tortib ibora berdilar sahobalar. ("Go'ro'g'li", 42-bet.)

Haftan, setan, chiltanlar.

Haftan, setan birla chiltan, Bu g'amlardan qutqar, meni. ("Go'ro'g'li", 27-bet.)

Xidir-Ilyos. *Cho'l egasi Xirdir-ilyos, Bu g'amlardan qutqar meni.* ("Go'ro'g'li", 27-bet.)

Qalandar. *Qalandar toifasi jahongashta bo'ladi.* ("Go'ro'g'li", 31-bet.)

Ulam. *Vazir-u ulamolar ham ma'qul topdilar.* ("Go'ro'g'li", 43-bet.)

Eranlar. *Eranlar jam bo'lib, majlis qurdilar.* ("Go'ro'g'li", 43-bet.)

Parizod. *Go'ro'g'li tush ko'rganda parizod ham tush ko'rgan edi.*

(“Go’ro’g’li”, 63-bet.)

Ushbu keltirgan misollarimizdagi atamalar dostonidagi badiiy nutqda juda ko’p uchraydi.

Mulla so’zi arabcha mavlono so’zidan olingan bo’lib, janob ma’nosini anglatadi. Diniy ilmga ega bo’lganlar ham mulla deb yuritilgan.

Imom esa masjidda namozni boshqaruvchi shaxsdir. So’fi deganda taqvodor kishi tushuniladi. Pir so’zi ko’p hollarda Ali shohimardon bilan bog’lanib keladi. Go’ro’g’li uni o’z piri sifatida baholaydi.

Sahoba so’zi payg’ambar ayonlari tarzida tilga olinadi. Haftan, setan, chiltan, eran nomlari uch, yetti, qirq tan (jon)dan iborat ko’rinmas homiylardir. Eranlar ham shu toifaga kiradi.

Xidr (Xizr) Ilyos. Afsonaviy homiy sifatida deyarlik barcha dostonlarda qatnashadi.

Qalandar (darvesh). Tarki dunyo qilgan kishi. Bu toifa odamlar “Go’ro’g’li” eposida doimo epik qahramonlarga yordam berib yuradi. Ba’zan Go’ro’g’lining o’zi ham qalandar (darvesh) qiyofasiga kirib, pinhona ishlarni amalga oshiradi.

Bu keltirilgan tarixiy so’zlar bilan birga dostonlarda jallod, dor, zindon, chopovul, haramxona, mayxona, devona, munajjim, qurrado’z, o’rda kabi feodalizm boshqaruviga aloqador ko’plab so’zlar ishlatilgan. Ular doston voqealariga uzviy ravishda bog’lanib ketgan va asar voqealari bo’lib o’tgan davr haqida muayyan tasavvur uyg’otadi.

Evfemizmlar.

Jamoatchilik oldida aytish noqulay bo’lgan ba’zi qo’pol so’zlarni boshqa yoqimli so’zlar bilan almashtirish jarayonida evfemizmlar vujudga keladi. Bu esa nutq madaniyati talabiga mos keladigan xushmuomalalik, odob va nazokatlilik belgisidir¹.

Dostonlarda evfemizmlarga keng o’rin berilgan. Chunki doston ijrochisi oldidagi auditoriyada kattay-u kichik, erkak-u ayol teng ishtirok qilishgan. Natijada baxshi o’sha auditoriyaga mos holda badiiy nutqni amalga oshirgan.

¹ Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек сўзлашув нутқи, 1-қисм. Самарқанд, “Университет”, 2006. –Б. 75. (130)

“Go’ro’g’li” dostonlarida urush voqealariga keng o’rin ajratilganligi sababli ularda shahid bo’lish, halok bo’lish tez-tez sodir bo’lib turadi. Shu sababli baxshi o’sha halok bo’lganlarning kimligiga qarab, o’lim xabarini turlicha ifodaga tortadi. Masalan, Go’ro’g’lining otasi Odibekning o’limi quyidagicha. *Odibek kasal bo’lib, doril fanodan dorilbaqoga rixlat qildi.* (“Go’ro’g’li”, 17-bet.)

Dostonlarda o’lim bilan bog’liq tushunchalarning o’ndan ortiq shakli qo’llanilgan.

Jon taslim qilmoq. *Kampir jon taslim etdi.* (“Go’ro’g’li”, 230-bet.)

Joni jahannamda. **Joni jahannam bozorida** bo’lsa ajab emas. (“Go’ro’g’li”, 4105-bet.)

Ajal quchog’iga tushmoq.

Ajal erur tirik jonning hamrohi,

Bir kun quchog’ina olar, Go’ro’g’li. (“Go’ro’g’li”, 445-bet.)

Narigi dunyoga ketmoq.

Go’zal o’g’lon Avazimni

Olgan dunyo sen emasmi. (“Go’ro’g’li”, 450-bet.)

Yerga do’nmoq (qo’shilmoq.)

Oxiri yerga do’nganlar,

Qirq yigitim, xush qol endi. (“Go’ro’g’li”, 451-bet.)

Chiqib bo’lmas chohda qolmoq.

Chiqib bo’lmas chohlardasan,

Botirlarim, xush qol endi. (“Go’ro’g’li”, 452-bet.)

Ajal peshini tutmoq.

Ajal peshini tutmagan banda bormi. (“Go’ro’g’li”, 463-bet.)

Jon bermoq.

Bir kishnab Go’ro’g’lining ustida jon berdi. (“Go’ro’g’li”, 466-bet.)

Joni chiqmoq.

Jasadinnan joni chiqsa,

Ruhi gado har yon boqar. (“Go’ro’g’li”, 466-bet.)

O'lmoq.

O'lganning keynidan o'lmoq yo'q. (“Go'ro'g'li”, 450-bet.)

Evfemik iboralar boshqa turli tushunchalarni ifoda qilishda ham qo'llaniladi.

Xotin so'zi **zaifa** tarzida beriladi:

Shu g'oyib bo'lgan qiz, mana shu yigitning zaifasi bo'ladi. (“Go'ro'g'li”, 337-bet.)

Tirik inson, kishi o'rnida “Issiq jon” ifodasi ishlatiladi:

Yuraklari tarang bo'lgan uch issiq jon shu gumbazlarning quchog'idan joy topdilar. (“Go'ro'g'li”, 29-bet.)

Uylan, to'y qil o'rniga “**Nikoh qiy**” birikmasi qo'llanilgan:

Yunus aytar, nikohni qiy,

Keyin ko'rarsan izzat-siy. (“Go'ro'g'li”, 71-bet.)

Dostonlar matnida evfemizmlarning berilishi har bir millatga xos mentalitetni (urf-odat) namoyon qilishdan tashqari baxshilar badiiy nutqining naqadar boy va nazokatli ekanini ham ko'rsatadi.

Albatta, evfemizmlar tasodifiy ravishda qo'llanilmaydi. Ular matndagi ma'no yo'nalishiga, obrazlarga nisbatan ijrochining munosabatiga qarab tanlanadi.

Evfemik iboralar doston ijrochisining iqtodori bilan uzviy bog'liq bo'lib, asar voqealarining badiiy ifodasiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

O'z navbatida til boyligimizning keng ko'lamli ekanligini isbot qiladi.

Ikkinchi bobda ko'rib o'tilgan masalalardan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Jamiyat rivojlangan sari til ham rivojlanishda, o'sishda davom etadi. Hayot taqozosi bilan tilga yangi so'zlar kirib keladi. O'z navbatida ayrim so'zlar eskirib iste'moldan chiqib boradi. Ana shunday hodisalar tilda arxaizmlar yoki eskirgan so'zlar deb yuritiladi.

Dostonlar tiliga razm solinsa, arxaik leksikaning ancha salmoqdor ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Ayniqsa, XIX asr boshi va o'rtalarida yozuvga

ko'chirilgan dostonlarda bu xususiyat yaqqolroq namoyon bo'ladi. Ularning tarkibidagi arxaik so'zlar aksariyat o'zlashma qatlamga aloqadordir.

2. Leksik arxaizmlar dostonlar tilida ancha keng doirani tashkil etadi. Ularni tasnifiga ko'pgina sohalarni kiritish mumkin. Hozirgacha dostonlar ko'chirilgan paytdagiga qaraganda turmush darajasi qiyoslab bo'lmaydigan darajada o'sdi. Shu sababli qadimdagi turar joylarning nomlari mutlaqo eskirib, yangi so'zlar paydo bo'ldi. Kiyim-kechak, xo'jalik anjomlarida ham o'sha xususiyatni ko'rish mumkin. Bundan tashqari oziq-ovqatlar, o'lchov birliklari, taqinchoqlar va pardozi-andoz bilan aloqador so'zlarning ham salmoqli qismi eskirgan leksika tarkibiga o'tib ketdi.

3. Eskirgan so'zlarning katta bir qismini frazeologik arxaizmlar tashkil etadi. Dostonlar tili so'zlashuv nutqi negizida yuzaga kelishi sababli ijrochilarning badiiy nutqida turli tuman iboralar o'z ifodasini topadi. Bu ifodalar frazeologik birliklarni ro'yobga chiqarib voqealar bayoniga jon kiritadi, uning ta'sirchanligini, bo'yoqdorligini yuksaltiradi.

Dostonlarda qo'llanilgan ushbu frazeologik iboralar o'z davri bilan aloqador o'xshatishlar, metaforalarga asoslanganligi sababli hozirgi tinglovchi yoki o'quvchiga notanish tuyuladi.

4. Dostonlar leksikasida grammatik arxaizmlar ham o'zini namoyon qilib turadi. Bu hodisalar aksariyat hollarda so'z o'zgartiruvchi, shaxs, son qo'shimchalarida, yordamchi so'zlarning qo'llanilishida ko'zga tashlanadi. Ko'makchi, bog'lovchi, undalmalarning eski o'zbek adabiy tilidagi shakllari yozuvga ko'chirilgan dostonlar tiliga muayyan darajada ta'sir o'tkazgan. Shuningdek, dostonlar tilidagi grammatik shakllarning o'ziga xosligiga umumo'g'uz tillarining ta'sirini ham unutmaslik lozim. Chunki, o'sha shakllarning ayrimlari hozirda ozarbayjon va turkman tillarida faol ishlatiladi.

5. Dostonlar bunday olib qaraganda xalqning badiiy tarixidir. Shunday ekan, ularning leksikasida xalq tarixi bilan aloqador so'zlarning o'rin egallashi tabiiydir.

Har bir tarixiy davr o'sha tuzumdagi ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishga xos

so'zlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Boshqaruv tizimidagi mansablar nomi, harbiy tuzilmalardagi lavozimlar va qurol-yaroqlar nomi, diniy mafkuraviy yo'nalishdagi nomlar katta bir doirani tashkil etadi va ular boshqa bir tuzumdagi muqobillaridan farq qiladi.

6. Tarixiy so'zlar lug'aviy birliklar doirasidan o'rin egallaydi. Ularni eskirgan so'zlar kabi turlarga ajratish qiyin. Ular muayyan ehtiyoj tufayligina qo'llaniladi. Masalan, har bir davrda quriladigan me'moriy obidalar ham o'sha davrning iqtisodiy-mafkuraviy xarakteriga mos ravishda barpo etiladi va munosib nomiga ega bo'ladi. Yangi davr boshlanishi bilan ularning o'zi ham, nomi ham tarixiy meros sifatida yashab qoladi.

Har qanday iqtisodiy tuzum o'z xarakteriga qarab, turli kasb-mashg'ulotlarni yuzaga keltiradi va ularning nomlari yuzaga keladi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida yangi kasb-kor va mashg'ulotlar paydo bo'lishi bilan ilgarigilari barham topadi. Biroq ularning nomlari tarixiy so'zlar sifatida tilning lug'at fondida saqlanib qoladi.

Shu tariqa dostonlar tili ham og'zaki variantlarda o'zgarib, o'z tarkibiga yangi so'zlarni qamrab ola boshlaydi. Shu bilan birga ularning leksik tarkibida eng qadimgi davrlarga mansub so'zlar ham tarixiy so'zlar sifatida yashab qoladi.

III BOB. DOSTONLAR TILIDAGI CHEGARALANGAN QATLAMNING GENEOLOGIK TAHLILI

3.1. Dostonlar leksikasida umumturkiy qatlam

Biz tahlil qilayotgan dostonlar tili Xorazm o'g'uz gevalariga juda yaqin. Og'zaki yozib olingan dostonlar tili esa asosan sof o'g'uz shevasiga, Shimoliy Xorazmdan yozib olinganlari sof qipchoq shevasiga mansubdir. Yozuvga olingan dostonlar tilida esa o'zlashma qatlamning salmog'i katta. Xorazmda tarqalgan o'g'uz shevalari leksikasining asosiy negizini, hech shubhasiz, umumturkiy tillarga xos bo'lgan qatlam tashkil etadi.

Xorazm o'g'uz shevalari leksikasidagi mavjud juda ko'p so'zlar adabiy til leksikasida bor. Ular shaklan va mazmun jihatdan hech qanday farqlanmaydi¹.

Shimoliy Xorazmda yashovchi qipchoq shevasi vakillarining so'zlashuv nutqi o'zbek adabiy tiliga yanada yaqin keladi. Buni og'zaki yozib olingan dostonlar tili to'la tasdiqlaydi.

Biz o'z ishimizda ko'proq qo'lyozma dostonlar leksikasiga tayandik. O'z navbatida og'zaki yozib olingan, qipchoq shevasiga tegishli dostonlardan ham foydalandik. Umuman olganda bu dostonlarning barchasida umumturkiy qatlam ustuvorlik qiladi.

Buni “Devonu lug'atit turk”da keltirilgan so'zlarga taqqoslash ham isbotlay oladi.

Et. (1.70-devonning nechanchi kitobi ekanini va sahifasini qayd qilamiz.)
Botir o'lsa, botmon et, deganlar. (Go'ro'g'li, 142-bet.)

Og'iz (1.88): *Go'ro'g'li oqsoqolli chol bergan lattani ajdarhoning og'ziga tashladi.* (Go'ro'g'li, 63-bet.)

Atak (1.98): *Kampir atagi olti, yenggi yetti bo'lib, iziga qaytdi.* (Oshiqnoma, 4-kitob, 78-bet.)

Ayo (1.113): *Otamning ichi qisilgan bo'lsa, bir alini ayosining qichig'i ketsin, deb bu askarlarni opkeldim.* (Go'ro'g'li, 207-bet.)

¹ Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Т.: “Фан”, 1973. –Б.20.

Bag'ir (1.341); **tosh** (3.138):

Mohimning ham bag'rida tosh, ko'zida yosh, yuragida armon bilan yig'lar edi. (Oshiqnoma, 5-kitob, 75-bet.)

Chiqon (1.382): *Aning 20-30 tengdosh chiqonlari bor edi.* (Oshiqnoma, 4-kitob, 320-bet.)

Alaq (1.154): *Bu alaq-chalaq tushlar ekan, biz bu tushingizni ta'bir qila olmaymiz, dedilar.* (Oshiqnoma, 5-kitob, 170-bet.)

Yog' (2.175): *Xunxorshoh yog' yeb, yalang'och yota berasiz, dedi.* (Go'ro'g'li, 421-bet.)

Qurshag' (o'tovning belbog'i. 1.432): Shevada bu so'z beldagi belbog' ma'nosiga ko'chgan va fonetik o'zgarishga uchrab, "qo'shog'a" shaklini olgan:

Qurbon o'lam belingdagi qo'shog'a. (Oshiqnoma, 1-kitob, 127-bet.)

Chatir (1.385): *Bog'da qurish uchun bir chodir yubordilar.* (Oshiqnoma, 5-kitob, 41-bet.)

Otag' (3.226): *Hamro o'zga yerga tushmas,*

Yorning o'tog'iga tushar. (Oshiqnoma, 6-kitob, 244-bet.)

Sag'ri (1.167.) Devonda bu so'z biror narsaning terish ma'nosida berilgan. Shevada bu so'zlar otning yag'irni ma'nosida ishlatilgan. So'z negizida bari bir otning terisi tushuniladi:

Sag'risinda yumalansa bo'lodur,

Daqiqada harmanzilni oladur. (Go'ro'g'li, 41-bet.)

She'rda Go'ro'g'li o'z oti G'irotni ta'riflashda ushbu so'zni ishlatgan.

Chibiq (1.361): *Bolli kaniz juftan chibiqni olib, Oshiq Ahmadning qornining qoptolig'a sharta-sharta uraberdi.* (Oshiqnoma, 5-kitob, 243-bet.)

Mazkur misol qipchoq shevasida so'zlovchi baxshidan yozib olingan. Bu so'z o'g'uz shevasida chuviq shakliga o'tgan.

Ko'za (1.341):

Ko'zasina suv to'ldirib kelgan qiz. (Oshiqnoma, 1-kitob, 17-bet.)

Chanaq (1.362): *Salbiniyoz kanizlarga bu o'g'longa bosh-oyoq sarupo birlan bir chanoq tillo bering dedi.* (Oshiqnoma, 1-kitob, 90-bet.)

Qumg'an (1.406) *Uydan chiqar qumg'on olib.*

Ikki ko'zi gulday yonib. (Oshiqnoma, 6-kitob, 248-bet.)

Cho'rak (1.359): *Non-cho'rak cho'ponlarning qo'lida to'lib yotibdi, tez yur, deb Go'ro'g'li Avazxonni tashqariga olib chiqdi.* (Oshiqnoma, 4-kitob, 236-bet.)

Ko'lik (1.372)-ulov.

To'qqiz ko'luk birla o'n bedov oti. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 327-bet.)

Ko'lik so'zi hozirda asosan shimoliy Xorazmda yashovchi qipchoq shevasi vakillari nutqida saqlangan. O'g'uz guruhiga kiruvchi shevalarda bu so'z o'rniga **ulov** leksemasi ishlatiladi.

To'r (3.24): **to'rga**, yuqoriga ma'nosida ishlatilgan bu so'z dostonlarda shu ma'noda qo'llanilgan:

Adannan oshganda to'ra,

O'ltirma, o'rningni so'ra. (Go'ro'g'li, 217-bet.)

"Devon"da ishlatilgan so'zlarning aksariyati so'zlashuv nutqida saqlangan. Masalan, **karvich**-g'isht, **suvlin**-sulgin-tustovuq, **susoq**-cho'mich, **siriq**-tayoq, **yondoq**-yantoq kabilar.

Ayrim so'zlar jiddiy fonetik o'zgarishlarga uchragan. "Devon"da chayla ma'nosidagi so'z **chit** shaklida berilgan. Bu so'z dostonlarda **chatma** shaklida qo'llanilgan.

Uch gumbaz tog'idagi chatmada sigir so'yib bergan bolaman, dedi Go'ro'g'li. (Go'ro'g'li, 45-bet.)

Chatma so'zining o'zagi **chat** bir vaqtlari **chit** shaklida bo'lganligi ehtimoldan xoli emas.

Chaqqi – qalamtarosh o'zbekcha chopqi so'zidan kelib chiqqan.

Kissasidan parangi chaqqisini chiqarib, olmalarni so'ydi. (Oshiqnoma, 5-kitob, 239-bet.)

Yuqoridagi qiyoslarga asoslanib qaraydigan bo'lsak, dostonlar leksikasining tub qismi umumturkiy qatlamni tashkil qiladi.

Binobarin, Xorazm dostonlari tili tarkibida umumturkiy leksikaga oid soʻzlar juda koʻp boʻlib, ularning bir qismi eskirib isteʼmoldan chiqqan. Biroq, boshqa turkiy xalqlar tilida hozirda ham ishlatiladi. Ularning ayrimlaridan misol keltiramiz.

Choʻx - juda, koʻp. Orttirma daraja sifat.

*Surmali soʻzlaring meni **choʻx** eglar.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 46-bet.)

***Choʻx-choʻx** yalbora berding, oʻgʻlimni tashlasam tashlab ketarman, dedi oshiq Ahmad.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 251-bet.)

Bu soʻz hozirda ozarbayjon va turkman tillarida faol qoʻllaniladi.

Quv - oqqush.

*Bogʻida sarhovuzi bor, **quv** va gʻozibor, Sayotxon pari degan bir qizi bor.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 236-bet.)

Quv soʻzi hozirda ham turkman tilida ishlatiladi.

Arvat - ayol, xotin. Bu soʻz aslida *avrat* soʻzining metatezaga uchragan koʻrinishi.

*Oʻn ming **arvat** kerak pari suratli.* (Oshiqnoma, 4-kitob, 313-bet.)

Bu soʻz hozirgi ozarbayjon va turkman tillari leksikasida mavjud. Urdu tilida aynan ayol maʼnosida qoʻllangan: *ye avrat* – bu ayol.

Gurt - qurt-boʻri.

*Ogʻzi qonli och **gurt** kabi.* (Oshiqnoma, 4-kitob, 321-bet.)

Bu soʻz turkman tilida hozirda ham qoʻllaniladi. **Yoʻrgʻan** - koʻrpa. **Tal**-soch. **Oʻran** - juda. *Borib **yoʻrgʻan**, toʻshak, yostiqlarni joy-bajoy, yer-baer qoʻyib, Hamroni keltiring, dedi Sayotxon.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 33-bet.)

*Qurbon oʻlam saringdagi **talinga**.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 84-bet.)

*Hamroni hech injitmasmiz, **oʻran orqayin** boʻlib, xotirjam boʻlgʻaysiz.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 35-bet.) Bu soʻzlarning barchasi hozirgi turkman tilida faol qoʻllaniladi.

Hozirgi ozarbayjon, turkman tillarida ishlatiladigan dal, deyil, degil inkor qoʻshimchalari ham dostonlar tilida uchraydi va ular oʻzbek tilidagi emas inkor toʻliqsiz feʼli shakliga muqobil keladi:

Sanga daldir bu dunyoning go'zali. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 95-bet.)

*Oshiq Oydin so'zi gumon **degildir**.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 314-bet.)

Gunash - quyosh; **chug'ul** - chaqimchi; **yitirmoq** - yo'qotmoq; **ugramoq** - duch kemoq; **ko'ndarmoq** - eltib bermoq so'zlari ham hozirda ozarbayjon va turkman tillarida mavjud.

Sayg'oqlar kezar toshida,

*O'mganlari **gunashida**.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 92-bet.)

*Ammo bog'ning Hasan **chug'ul** degan bir bog'boni bor erdi.*
("Oshiqnoma", 5-kitob, 17-bet.)

*Men qo'limdin nozli yorni **yitirdim**.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 316-bet.)

*Ishqingdin **ugradim** chiqqisiz darda.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 57-bet.)

Gul terarlar dasta-dasta,

*Arg'uvon **ko'ndarding** do'sta.* ("Oshiqnoma", 1-kitob, 33-bet.)

Xorazm dostonlarida ishlatiladigan dialektal so'zlarning anchasi hozirda qoraqalpoq adabiy tilida saqlanib qolgan bo'lib, faol ishlatiladi.

Yolg'onchi - foniylar dunyo; **tay** - teng, barobar; **zanggi** - shoti, uzangi; **jolotoy** - bezori; **sirg'iy** - yengiltak, beadab, **orqayin** - xotirjam; kabilar.

*Man olishmam uch mog'a, bu azal **yolg'onchini**¹.* (Go'ro'g'li, 31-bet.)

*Go'ro'g'lining o'ligi o'n yigitga **tay**² keladi.* (Go'ro'g'li, 167-bet.)

***Zanggisi**³ tillo egardan.* (Go'ro'g'li, 38-bet.)

*Go'ro'g'li degan **jolotoy**⁴; **sirg'iy**⁵ bir yigit bor.* (Go'ro'g'li, 99-bet.)

*Agar otangning ne sharti bo'lsa ham oxirgi qonim qolguncha qilurman, sen bundan **orqayin**⁶ bo'laver, dedi Sherali.* ("Oshiqnoma", 6-kitob, 263-bet.)

Bulardan tashqari mirat-taklif; **chiqon**-dugona; **dim**-juda kabi qator so'zlar ham Xorazm o'g'uz shevasi orqali qoraqalpoq tiliga o'zlashib, hozirda faol ishlatiladi.

¹ Қорақалпоқ фольклоры. Нөкис, "Қорақалпақстан", 1981. -366.

² Ўша манба, 226-бет.

³ Ўша манба, 322-бет.

⁴ Ўша манба, 354-бет.

⁵ Ўша манба, 378-бет.

⁶ Ўша манба, 340-бет.

Ushbu misollardan ko'rinadiki, umumturkiy so'zlarning aksariyati hozirda biror til xazinasida eskirgan so'zlar qatoriga o'tgan, bir xil tillarning shevalarida saqlangan. Ayrim tillarda esa ular faol ishlatiladi. Xorazm dostonlarida ishlatiladigan bir qator so'zlar: O'kta, kun tug'ar. Kunchiqar, kun o'rta, qibla, kunbotar, orqa kabilar hozirda sheva vakillari orasida kam ishlatiladi, ayrimlari esa ishlatilmaydi ham. Masalan, o'kta so'zi kuchli, qudratli ma'nosida dostonlarda ko'p qo'llaniladi. Ammo hozirda so'zlashuv nutqida uchramaydi.

Bu so'z **O'kta+m** shakliga o'tib, ism ma'nosida hozirda mavjud. So'zga egalik qo'shimchasi qo'shilib, ot turkumiga, xususan ismga aylanishi o'zbek tiliga xos xususiyatdir. Ega+m so'zi ham bunga misol bo'la oladi.

*Ul jangu jadalga **o'kta** yigit erdi.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 55-bet.)

Ushbu misoldagi o'kta so'zi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Xorazmda hozir g'arb, sharq, janub, shimol, tush kabi so'zlar ko'proq ishlatiladi, ular faol leksikaga kiradi. Dostonlarda esa ularning turkiy shakllari ommalashgan.

Kun o'rta - tush payti.

*Mullamiz bo'libdur shul kun **kun o'rta**.* ("Oshiqnoma", 3-kitob, 1905-bet.)

*Tushida bir yigit **kunchiqar** tarafga qarab o'tiribdi.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 36-bet.)

***Kunbotar-orqa** tarafdin yashil asoli bir bobo hozir bo'ldi.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 113-bet.)

*Shu vaqtda Mullana¹ ham tahorat qilib, ikki ra'kat namoz o'qib, **qiblaga** yuz burib:*

-Ilohim bu oshiq²larga fazlu marhamatingdin yetir, deb tilak bildirdi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 31-bet.)

Ushbu turkiy ifodalarning tobora eskirib borishi adabiy tilning, ommaviy axborot vositalarining ta'siri ostida yuz bermoqda.

Quyidagi so'zlar esa faqat og'zaki nutqdagina kamdan kam ishlatiladi, ayrimlari eskirgan so'zlar qatoriga o'tib ketgan.

Ko'shak-bo'taloq; **elti**-mullaning xotini; **yo'zg'it**-taqdir; **sheva**-so'z; **chunduk**-tumshuq; **kuma**-yerto'la; **gashir**-sabzi; **kudi**-g'aram; **to'mpay**-

yirik shoxli mollar oyog'idan chiqadigan katta oshiq.

*Oqsoqol aytdi: - Ey **ko'shagim**, qaydan borib, qaydin kelursan?*
(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 85-bet.)

*Shundan so'ng **eltini** chaqirdilar. **Elti** kelib, buvak qiz bilan qutladi.*
(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 5-bet.)

*Taqdir **yozg'itidandir**, har neki kelsa boshga.*

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 165-bet.)

*Yuz ming **sheva** bilan o'ldurdi bizi.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 205-bet.)

*Bir ko'kcha qush bo'lar, olma pishgandan so'ng **chundigini** olmaga suqadi, olma chirib sarf bo'ladi.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 248-bet.)

*Go'ro'g'li otga yerdan **kuma** qazib, eng yaxshi o'tlardan opkelib boqaveradi.* (Go'ro'g'li, 39-bet.)

*Tovonining izi haqiqat o'n ikki botmon **gashir** uraday bor.*

(Go'ro'g'li, 136-bet.)

*Yantoq **kudisining** yonig'a kelib, cho'qqa go'shtni ko'mdi.*

(Go'ro'g'li, 135-bet.)

*Saning alinga **to'mpay** o'rnashmaydi, aling kurakka o'xshab turibdi.*
(Go'ro'g'li, 407-bet.)

Bu so'zlar orasidagi ko'shak, elti, yozg'it, sheva, kuma, kudi, to'mpay kabi leksemalar hozirgi davrda to'la eskirgan so'zlar qatoriga o'tib ketgan. Qolgan gashir, chunduk so'zlari tor doirada ishlatiladi.

3.2. Dostonlar tilida forsiy qatlam

Xorazm dostonlari leksikasida forsiy qatlam alohida o'rin egallaydi. Buning asosiy sabablaridan biri ularning lisoniy tarkibida qadimgi xorazmiylar tiliga oid leksemalarning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sababi Xorazmda ziyolilarning deyarlik barchasi XX asr boshlarigacha fors tilidan ikkinchi til sifatida foydalanishgan. Shoirlarning barchasi bu tilda o'z qalamini sinab ko'rgan.

Umuman olganda, “... hech bir til uning sheva yoki lahjasi yo'qki, ularning tarkibida boshqa tillardan kirgan so'zlar bo'lmasin. Chunki so'z

olish til hayotining zaruriy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi¹”.

Agarda XIX asrda Xorazmda yozuvga ko'chirilgan dostonlar leksikasiga razm solsak, ularning tarkibida forsiy elementlarning juda faol ishlatilganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, folklorshunos S.R.Ro'zimboyev o'z tadqiqotlaridan birida “Oshiq G'arib va Shohsanam” dostonining og'zaki varianti haqida gapirib, bitta to'rtlik keltiradi:

*Bu notavon go'zzim ishqinda zori,
G'amzasi jon olur, shirin guftori,
Ko'nglima xush yoqar ajib raftori,
Tillodan shonasi bordur Sanamning.*

To'rtlikda hammasi bo'lib 19 ta so'z ishlatilgan. Shu so'zlarning 6 tasi turkiy (bu, ko'z olur, ko'ngil, yoqar, bordur); 9 tasi forsiy (notavon, zor, jon, shirin, guftor, raftor, xush, shona, tillo); 4 tasi arabiy (ishq, g'amza, ajab, sanam) qatlamni tashkil etadi².

Ko'rinadiki, hatto og'zaki variantlarda ham forsiy qatlam ustuvorlik qiladi. Qo'lyozma nusxalar orqali yetib kelgan dostonlarda forsiy qatlam bilan birgalikda arabiy qatlam ham salmoqdorlik kasb etadi. Ammo arabiy qatlamga qaraganda forsiy qatlam og'zaki nutqda faolroq qo'llaniladi.

Bu holatning sababini folklorshunos olim X-XII asrlarda Xorazmda hukm surgan ikki tillilik bilan izohlaydi.

Haqiqatdan ham, tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, arab istilosidan so'ng Xorazmda arab-fors alifbosidan foydalanila boshlangan. Xorazm yon atrofdagi turkiy qabilalar bilan yaqindan iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgandan keyin eron tillar guruhiga kiruvchi Xorazm tiliga ko'plab turkiy so'zlar ham kirib kela boshlagan. Bora-bora aholi ikki tilda qadimiy Xorazm tili va turkiy tilda so'zlasha boshlagan. Bu jarayon XV asrda tugallangan³.

Mana shu omillarning barchasi xalq og'zaki ijodiyotida, xususan dostonlarda o'z izlarini qoldirgan.

¹ Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шеваларидаги форсча ва тожикча лексик бирликлар. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, №3. –Б.40. (40-46)

² Рўзимбоев С. Хоразм дostonчилиги эпик аъъаналари. Урганч, “Университет”, 2008. –Б.27.

³ Машарипов О. Хоразмнома. Қадимги Хоразм. –Урганч, “Хоразм”, 2005. –Б. 147. (272)

Dostonlardagi forsiy qatlamning mavzu doirasi nihoyatda kengdir.

Uni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar

Shahlo – arabcha *ashhal* – *g'ilay* so'zining muannas shakli. Ko'chma ma'noda hozirgi ijobiy ma'nosiga o'tgan.

Maftun qildi shahlo ko'zlaring seni. (“Oshiqnoma”, 3-kitob, 151-bet.)

Zebo: *Bormikan ushbu jahonda sen kabi zebo pari.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 27-bet.)

Tar g'uncha: *Toza ochilgan tar g'unchani ko'rdingmi?* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 7-bet.)

Siyo: *Zarafshon g'ulpoqlar, siyo kokillar.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 50-bet.)

2. Uy-ro'zg'orga oid nomlar

Parda: *Chekma pardani yuzlara.* (Go'ro'g'li, 301-bet.)

Silobcha: *Silobchani ko'tarib Go'ro'g'lining kallasiga urdi.* (Go'ro'g'li, 394-bet.)

G'oli - gilam: *Qarasa, dang'illama saroylar, g'oli - paloslar to'shalgan.* (Go'ro'g'li, 63-bet.)

Chiroq - *Otam chirog'ini yoqqan.* (Go'ro'g'li, 378-bet.)

3. Uy-joy qurilishiga oid nomlar

Devor: *Qal'a devoridan oshib, Chamlibelga yo'l oldi.* (Go'ro'g'li, 241-bet.)

Xoda: *Bir arava xodani olib borib kemptikni yamadilar.* (Go'ro'g'li, 238-bet.)

Kapcha-belkurak: *Kapchasini dutor etib bir she'r aytdi.* (Go'ro'g'li, 170-bet.)

Gumbaz: *Uch gumbaza yo'lni tutdik.* (Go'ro'g'li, 47-bet.)

4. Daraxt, o'simlik bilan aloqador so'zlar

Olma, anor; pista, bodom:

O'psamki yanog'ingdan, tar olma, anordur deb.

(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 81-bet.)

Pista-bodom tegra toshing... (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 92-bet.)

Daraxt, gul: *Osmon o'par daraxtlar, qiyg'os ochilgan gullar shavq-zavq berar edi.* (Oshiqnoma, 5-kitob, 152-bet.)

Meva: *Olma, anor, pista, bodom-har turli mevalar pishib yotar edi.*
(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 240-bet.)

Zarchechak: *Uni ishq zarchechakday chirmab oldi.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 35-bet.)

5. Chorvachilik bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar.

Cho'pon: *Bir cho'ponni Chamlibelga yubordi.* (Go'ro'g'li, 437-bet.)

Podabon: *Mana bu podabonlikdin qutilib bilmadim, dedi G'arib.*
(“Oshiqnoma”, 2-kitob, 24-bet.)

Govsola – bir yashar buzoq. Samarqand-Buxoro shevalarida go'sala – buzoq shaklida ishlatiladi.

G'arib bog'bonning govsollarini boqib yurur erdi. (“Oshiqnoma”, 2-kitob, 28-bet.)

6. Dehqonchilikka aloqador nimlar

Zomoriq-zamburug'-zamorug':

Yerdan chiqqan zomariqday birdan ikki otliq oldidan chiqdi. (Go'ro'g'li, 317-bet.)

Tarnak - sapcha:

Kech kuzning tarnaklariday tarpayib yotibdi. (Go'ro'g'li, 108-bet.)

Xoros - hayvon kuchi bilan yurgiziladigan tegirmon. *Sen odamzodga borsang xoros qo'shasan, yer ag'darasan.* (Go'ro'g'li, 65-bet.)

7. Uy-ro'zg'orga aloqador predmetlar nomi:

Kajava yog'ochdan to'qilgan yuk yuklanadigan idish.

Tuyaga yuklangan kajavani tushirdilar. (Go'ro'g'li, 97-bet.)

Tuncha - tungcha-choydish:

O'choqqa o'mchani tashlab, tunchani soz ettirib yotaversak bo'lmasmidi.
(Go'ro'g'li, 337-bet.)

Jom: *Yigitlar keltiring jomni.* (Go'ro'g'li, 97-bet.)

Kapgir: *Qozon-tovoq, kapgir - oshpichoq barini otga yukladilar.*
(Go'ro'g'li, 437-bet.)

Jo'rop - paypoq:

O'tiribsan hulla o'rab,

Oyog'ingda gulli jo'rop. ("Oshiqnoma", 2-kitob, 142-bet.)

Tillopo'sh - usti oltindan ishlangan gumbazli saroy. *Oshiq Ahmad tillopo'sh saroyga qarab yo'lga tushdi.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 229-bet.)

8. Oziq-ovqat nomlari

Chakida: *Saning baxting chakida xalta bilan ursa-da, oqarmaydi.*
(Go'ro'g'li, 328-bet.)

Novvot: *Labing novvot, tiling shakkar...* (Go'ro'g'li, 82-bet.)

Zomcha - handalak: *Zomchaday keladigan bir go'shtni oldi.* (Go'ro'g'li, 308-bet.)

Kadi-qovoq: *Yilimning kadisiday lo'nkillab podshoning oldiga bordi.*
(Go'ro'g'li, 102-bet.)

9. Hayvonot va hashorotlarga oid nomlar

Pishik - mushuk.

Sichqonini qochirgan pishikday bo'lib turibsizlar, dedi Go'ro'g'li.
(Go'ro'g'li, 253-bet.)

Kurra - xo'tik: *Yemdan qolgan kurraday ichikib yotaberdi.* (Go'ro'g'li, 267-bet.)

Shog'ol - chiyabo'ri: *Suvdan chiqqan shog'olday bo'lib turibsan, dedi.*
(Go'ro'g'li, 23-bet.)

Murg' - tovuq:

Bugun murg'zorli ko'la yetishdi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 45-bet.)

Mor - ilon:

G'amza-yu husnda ikki mordin ayrilmisham. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 48-bet.)

Mo'rcha - qumursqa: *Pista dahon, mo'rcha miyon, qoshi kamon bir qiz.*
(“Oshiqnoma”, 6-kitob, 162-bet.)

Zanbur - ari:

Zanbur asalidan to'ti shakkardan,

Bulbul gulistondan ayrilmadimi? ("Oshiqnoma", 4-kitob, 244-bet.)

10. Qarindoshlik va jinsni anglatuvchi so'zlar

Padar – ota, dada:

*Salom, ey **padari** buzrukvorim,*

Jismimning egasi, tanda madorim. (“Oshiqnoma”, 3-kitob, 216-bet.)

Pisar - o’g’il:

Dastagul der, ayo hilola pari,

*Oti G’arib Hasan vazir **pisari**.* (“Oshiqnoma”, 4-kitob, 49-bet.)

Duxtor - qiz:

*Rum shahrinda bir **duxtori**,*

Go’ro’g’libek kelsin, dedi. (Go’ro’g’li, 275-bet.)

Zanon – ayol(lar):

*Ey qizim, **zanon** toifasiga safarkashlik nomuborak bo’lur.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 130-bet.)

Bachcha - bola, o’smir:

*Ey, **g’ulombachcha**, sen mening zulm-zo’rligimdan qo’rqmadingmu?*
 (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 114-bet.)

Ayrim dostonlarda **modar**, **mardon**, **hamshira** kabi qarindoshlikka aloqador so’zlar ham ishlatilgan.

Dostonlar leksikasida osmon jismlari bilan bog’liq ko’pgina so’zlar hozirda ham so’zlashuv tilida qo’llaniladi.

11. Osmon yoritqichlari nomlari.

Oftob: xurshid:

Shohijahondan bir oftob dunyoga keldi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 5-bet.)

Oyi ruxsori bila xurshidi xovarim kerak. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 77-bet.)

Moh - oy:

Zuhra otli mohi paykar, ko’zlari xunxorimi. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 77-bet.)

Bu so’zning mohitobon, mohipora, mohigul shakllari ham uchraydi. Shuningdek oyning hiloli shakli ham mavjud:

Hilol - yangi chiqqan oy.

Hijron chekib hilol bo’lgan qomatim. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 44-bet.)

Sitora - yulduz:

G'o'ch yigitning sitorasi

Ochilar maydon ichinda. (Go'ro'g'li, 183-bet.)

Ushbu yoritqichlarning forsiy nomlari to'laligicha inson ismlari sifatida hozirda faol ishlatiladi.

12. Vaqt mezonini anglatuvchi so'zlar.

Mohi sol-oy-yil

Yig'lab o'tgan mohi solim, arz ayla. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 30-bet.)

Xorazm dostonlari ishqiy-sarguzasht xarakterida bo'lganligi sababli ularda yor go'zalligi, oshiq va ma'shuqa ta'rifi asosiy o'rinni egallaydi. O'sha jarayonda turli o'xshatishlar, sifatlashlar, mubolag'a va jonlantirishlar ro'yobga chiqadi. O'sha badiiy ifoda vositalarida forsiy qatlamdan olingan o'zlashma so'zlarga faol murojaat qilinadi. Bu toifa so'zlar poetik ohangdorlikni kuchaytiradi. Badiiy nutqning bo'yoqdorligini oshiradi. Quyida biz ularni tasnif qilgan holda tahlilga tortamiz.

13. **Oshiq va ma'shuqa qiyofasini tasvirlashda qo'llaniladigan so'zlar.**

A) yorning chehrasi va ko'zi tasviri

Mohitobon, mohipaykar, mohi pora, mohi anvar; xunxor ko'z, jodu ko'z, ohu ko'z

Hasratingda qon yig'lar gul yuzli mohitobon. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 68-bet.)

Zuhra otli mohi paykar, ko'zlari xunxorimi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 77-bet.)

Mahvashimdek foni olam ichra bir mohi pora yo'q. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 48-bet.)

Shu o'lkaning sultonining duxtari,

Jamoli falakning mohi anvari. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 93-bet.)

Ko'zlari xunxorim keldi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 10-bet.)

Ko'zlari bor jodu Xo'tan. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 131-bet.)

Ohu ko'zli ul kiprigi paykona tasadduq. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 128-bet.)

B) **Yor qaddi qomatiga aloqador ifoda vositalari sarvqad, naxlishamshod, zebo.**

Bu sarvi qaddu jilvai Kan'ona tasadduq. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 128-bet.)

Naxli shamshodim, parizodim, jigarim qandasan. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 89-bet.)

Boshdin oyog’ing turfa go’zal dilbari zebo.

Har uchala misolda ham yorning tik, baland qomati haqida so’z boradi.

Sarv-qaddi raso, xushqomat daraxt, doimo yashil ko’rinishda bo’ladi.

Shamshod-tik o’sadigan, doimo yashil rangda tovlanuvchi daraxt yoki buta. **Naxl**-ko’chat ma’nosini beradi.

Zebo-g’oyat go’zal, xushmanzara, ko’rkam daraxt.

D) yorning sochi, qoshi, kiprigi tasviriga oid so’zlar.

Siyo zulf, zar kokil, bolu par, mujgoni tar, qoshi kamon, mujgoni zebo

Siyo zulfing nozik belga cho’loshib... (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 122-bet.)

Qo’li tarxinoli, kokili zarim... (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 133-bet.)

Aql-hushim ketdi sardan,

Judo tushdim bolu pardan. (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 28-bet.)

Qora ko’z, qalam qoshlining,

Mujgoni tar savashlining. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 136-bet.)

Xanjar mujgoni zebo, ul qoshi kamonim bor. (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 144-bet.)

Ushbu misollarning barchasida ikki–uchtadan forsiy so’zlar qo’llanilgan. Ulardan ayrimlariga izoh berib o’tamiz. **Bolu par** birikmasi aynan olganda qushning qanoti degan ma’noni anglatadi. Biz uni qosh tushunchasini ifodalaganligi uchun misol tariqasida tanladik. Uchib borayotgan qushning ikki qanoti oldindan qaraganda ikki qayrilma qoshni eslatadi. Shu sababli ham misrada metafora yashringan bo’lib, unda “qayrilma qosh” dan ayrildim degan ma’no mujassamlashgan.

Mujgoni tar birikmasi aynan olganda kiprigi ho’l, namli degan ma’nolarga ega. Bu yerda hijron g’amida ko’zi namlangan ma’shuqaning kipriklarining o’sha namli ko’z yoshiga botishi tasvirlangan. Mujgoni zebo birikmasida uzun, xuddi xanjardek to’g’ri tizilgan kipriklar haqida so’z yuritilgan.

E) Ma’shuqaning so’zlashi, xoli va badani tushunchasini anglatuvchi

tasviriyl ifodalar.

Shirin zabon, to'ti suxan, jo'ra xol, siymin badan, gul badan, kiprigi paykon

Kulib-o'ynamoqqa shirin zabondir. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 20-bet.)

To'ti suxan, xush guftorim, qol endi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 83-bet.)

Ohu ko'zli ul kiprigi paykona tasadduq. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 128-bet.)

Ushbu misollarning har ikkalasi ham ma'shuqaning chiroyli so'zlashini ifodalashga qaratilgan. Ammo birinchi misolda umuman shirin til haqida, to'g'rirog'i muomalasi haqida so'z yuritilsa, ikkinchidan gapirish manerasi, nutqiy barkamolligi nazarda tutilgan. Shu sababli gap tarkibida "**guftor**" so'zi ham ishlatilgan. Ma'shuqa haqida gap ketganda yuzdagi xolga ham e'tibor kuchli. Uning qoraxol, kishmishday xol, qo'sha xol shakllari uchraydi. Forsiy o'zlashmalarda **jo'ra xol** - qo'sha xol ko'proq tilga olinadi.

Oq yuzingda jo'ra-jo'ra xolingni,

Bersalar bermasman dunyo molini. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 127-bet.)

Yorning tani-badani o'zbekcha tasvirlarda **oq-oppoq**, kuzning **qoriday** tarzda beriladi. Forsiy so'zlarda quyidagi o'xshatishlar qo'llaniladi:

Sarvi qad, ruxsorigul, siymin badan, gul yuzli yor.

("Oshiqnoma", 5-kitob, 64-bet.)

Nozik niholu gul badan,

Zulfi siyo misli saman. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 131-bet.)

Siymin badan birikmasida oq kumush rang nazarda tutilsa, **gul badan** birikmasida umumiy go'zallik ko'zda tutiladi.

F) Ma'shuqaning tishi, yanog'i, og'zi tasviri

Durdona tish, olma yanoq, ol yanoq, bodom qaboq, pista dahan, ganjina dahan.

Durdona tishli la'li badaxshona tasadduq. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 128-bet.)

Dona-dona xollari ol yonoqda. ("Oshiqnoma", 4-kitob, 55-bet.)

Olma yonoqlaring o'pmaka qoyim. ("Oshiqnoma", 4-kitob, 106-bet.)

Yupqa dudoq, bodom qaboq, pista dahan, qoshi kamon bir ovodon qiz.

(“Oshiqnoma”, 6-kitob, 162-bet.)

*Simin tanu **ganjina dahona** tasadduq.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 128-bet.)

Tish hamisha durdona, dur, hinju, sadaf tarzida forsiy, arabiy o’zlashmalar orqali ifodaga ega bo’ladi.

Yonoq ba’zan qaboq shaklida ham ishlatiladi. Ular oldidan ol-qizil sifatlashi, gohida qirmizi, olma kabi epitetlar ham qo’llaniladi. **Bodom** sifatlashi bo’rtib chiqqan, mo’jaz, chiroyli qaboqni-yonoqni anglatadi.

Ma’shuqaning og’zi dahan, dahon shakllarida beriladi va unga nisbatan **pista** epiteti ko’p ishlatiladi. Bu epitets negizida kichik, mo’jaz tushunchalari yotadi.

Oxirgi misolda esa ganjina dahon birikmasi ishlatilgan. Bu ifodada og’iz bilan birga tish ham o’xshatishga qo’shib olingan. Ganjina so’zi negizida tish nazarda tutilgan.

G) Ma’shuqa va oshiqning kiyimlarini ifodalovchi forsiy o’zlashmalar

Qirmizi libos, gulgun kiyim, zarrin libos, tillo tumog’a, zarbof.

*Ul **qirmizi libosi** qaddig’a yarashibdur.*

Gulgun kiyib, ul dilbar o’tlarga tutishibdur. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 123-bet.)

Zarrin liboslarini kiyib, qoshlariga o’sma, ko’zlariga surma chekdi.
(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 40-bet.)

*Boshinda to’p jig’a, **tillo tumog’a.***

Yorga bo’lsin shirin jonim sadog’a. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 122-bet.)

*Zarli **zarbof** kiygan, to’ni qirmizi.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 132-bet.)

Forsiy o’zlashmalar orasida kiyim, taqinchoqlar nomi salmoqli o’rin egallaydi. Hatto kiyim-kechaklarning umumlashtiruvchi nomi dublet shaklida ishlatiladi: *Tohirjonga **bosh-oyoq** qimmatbaho **sarupolar** kiydirdilar.*
(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 44-bet.)

Qirmizi sifatlashi qizil ma’nosiga ega. Tillo tumog’a oltin taqinchoqli boshkiyimi. Bu birikmaning tillo uzuk, tillo jig’a shakllari ham mavjud.

14. Diniy tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi so’zlar.

Islom dini doirasida ko'plab so'zlar forsiy o'zlashmalar orqali ommalashgan.

Xudo - Tangri, Olloh:

Bir Xudoning sevar do'sti,

Rasul ham o'tdi o'g'ilsiz. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 102-bet.)

Behisht - yuzingdur **behishtning** bog'a,

Yuragimga qo'yima dog'i. ("Oshiqnoma", 2-kitob, 236-bet.)

Pir - kekxa, qari. Tariqat asoschisi.

Pir yo'lina boshim qurbon. (Go'ro'g'li, 27-bet.)

Eshon - din peshvosi.

Qirq bir Eshon sohib kalom yubarsin. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 274-bet.)

Darvesh - tarki dunyo qilgan kishi, gado.

Darveshlik ko'yina yetgandan madad. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 68-bet.)

Devona –so'fiylikka berilgan kishi.

Yurakdagi ishqdan dali-devona bo'lar erdilar. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 7-bet.)

Banda-ollohning quli.

Shul qora ko'zinga banda bo'loyin. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 261-bet.)

Bu misollarda Xudo, eshon kabi so'zlar hamisha o'z ma'nosida qo'llaniladi. Boshqa keltirilgan so'zlar aksariyat hollarda ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan, behisht so'zi go'zal maskan, umuman go'zallik ma'nosida foydalaniladi. Pir so'zi oshiq-ma'shuqalarga homiy sifatida tilga olinadi.

Darvesh, devona so'zlari yor yo'lida majnunsifat bo'lib yurgan oshiq ahvoliga nisbatan, uning ruhiy holatini yoritish uchun qo'llaniladi.

Banda so'zi ham yorga banda bo'lish ma'nosiga ega.

Xullas, dostonlar tilida forsiy leksika salmoqli o'rinni egallaydi. Ushbu leksik qatlamning aksariyati qadimgi xorazmiylar tilining shevada saqlanib kelayotgan qoldiqlaridir.

Forsiy qatlamning yana bir manbai fors tilining Xorazmda muayyan davrlarda davlat tili bo'lib xizmat qilishi va Eron bilan turli iqtisodiy-

siyosiy aloqalarning natijasidir.

Xorazm tarixi Eron bilan bo'lgan aloqador o'ziga xos ko'plab voqealarni o'z ichiga oladi. Eroniy xalqlarning ko'chirib keltirilishi kabi hodisalar ham tilda o'z izini qoldirgan.

3.3. Dostonlar tilida arabiy qatlam

Biror tildan olingan o'zlashmalar odatda o'zga tilda gapiruvchi xalq bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar orqali kirib keladi.

VIII asrda arablarning O'rta Osiyoga kirib kelganligi ma'lum. O'sha davrdan boshlab, "...davlat hokimiyatining turli tomonlari huquq-qonunchilik, falsafiy, diniy qarashlar bilan bog'liq bo'lgan leksik qatlam mahalliy xalqlar tiliga asta-sekin kirib kela boshladi"¹.

O'z navbatida bu jarayon xalq og'zaki ijodiyoti asarlariga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Ayniqsa, XIX asrdan boshlab Xorazmda dostonlar yozuvga ko'chirila boshlangach, bu ta'sir yanada kuchaydi.

Ayrim tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli janrdagi og'zaki adabiyot namunalarida arab elementlari umumiy leksikaning taxminan 7-8 foizini tashkil qiladi².

Bizning kuzatishimizcha, dostonlar leksikasida arabiy qatlam yuqoridagi foizdan ancha salmoqlidir. Chunki eski o'zbek adabiy tili davrida turkiy so'zlar o'rniga ularning arabcha ma'nodoshlarini qo'llash keng tus olgan³.

"Go'ro'g'li" dostonlari og'zaki variantlar orqali yetib kelganligi sababli ular leksikasida arabcha so'zlar ancha kam. Biroq kitobat qilingan boshqa dostonlar tilida arabiy qatlam ancha salmoqlidir.

Dostonlar tilida ishlatilgan arabcha so'zlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin.

1. Ilm-fan, madaniy-ma'rifiy sohaga oid so'zlar.

Maktab, kitob, daftar, ilm, ulamo mulla, qalam, savod.

¹ Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Т.: “Фан”, 1973. –Б. 41-42.

² Ўша асар, 46-бет.

³ Исҳоқов С. Эски ўзбек тили ва ёзуви. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995. –Б. 13-16.

*Ularning ikkalasi **maktabdagi** boshqa bolalarning orasida oy bilan quyoshdek edi.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 7-bet.)

*Otasi bergan yorliqni olib, Shohsanamning **kitobining** ichiga qo’ydi.* (“Oshiqnoma”, 2-kitob, 13-bet.)

Chiqdi davlatning axtari,

*Yozildi baxtning **daftari**.* (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 36-bet.)

*Emdi **ilm** va hunar o’rgan, dedi Shohsanamning onasi.* (“Oshiqnoma”, 2-kitob, 16-bet.)

*Ey **ulamoi** azizlar, shu farzandning otini o’zim qo’ysam, dedi.* (“Oshiqnoma”, 2-kitob, 298-bet.)

*Jon **mullom**, bir zamon shul yorimni ozod qil.* (“Oshiqnoma”, 2-kitob, 18-bet.)

*Qog’oz ustida **qalami**, nuqotlari qora emasmu?* (“Oshiqnoma”, 2-kitob, 310-bet.)

*Bolalar 12-13 yoshga kirib, **savod** ochdilar.* (“Oshiqnoma”, 3-kitob, 270-bet.)

2. Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid so’zlar.

Arkoni davlat, vazir, muhrdor, mashvarat, hokim, sulton.

*Anda **arkoni davlat** aytdilar: har nechuk bo’lsangiz ham qabul qildik.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 273-bet.)

*Anda **vazir** turib, ahdning o’zi kamligini pesha qildi.* (“Oshiqnoma”, 2-kitob, 12-bet.)

*Amaldor, **muhrdorlarni** yo’ldan qaytarib, ana Xisrav shoh bilan Qosim vazir ikkisi Misr viloyatiga qayta berdi.* (“Oshiqnoma”, 3-kitob, 271-bet.)

*Chamlibelning katxudolari yig’in-**mashvarat** etib, yurtimiz **sultonsiz** qoldi, deb Go’ro’g’lini sardor etib sayladilar.* (Go’ro’g’li, 51-bet.)

*Misr shahrining **hokimi** Azizning ishlari yaxshilangandan yaxshilanib ketdi.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 156-bet.)

Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid: amir, jazo, hukmdor, g’alaba, anjuman, amal, qaror, malika, arz, mojaro, jazo, hazrat, zolim kabi ko’plab so’zlar

dostonlardagi badiiy nutqda keng qo'llaniladi va og'zaki jonli so'zlashuv jarayonida ham ishlatiladi.

3. Harbiy sohaga oid so'zlar

Dubulg'a, jazoyil, mirg'azab, mahosil, asir, g'anim, gurzi.

Qirq ming oyna, xo'b dubulg'a yubarsin.

Qirq ming miltiq bersin, qirq ming jazoyil.

(“Oshiqnoma”, 3-kitob, 173-bet.)

Qirq yigiti bordur gurzi qo'linda. (“Oshiqnoma”, 3-kitob, 36-bet.)

Ushbu misollardagi **dubulg'a**-temirdan ishlangan bosh kiyimi, sovut, qalqon bilan birga ishlatiladi. **Jazoyil**-urush quroli, gurzi ham qo'lda ishlatiladigan urush quroli bo'lib, qadimgi davrdagi askarlarning urush vositalaridir.

Go'zalshoh bu so'zni eshitgach, darg'azab bo'lib, to'rt yuz mahosillarni buyurdi.

Mirg'azablarni, jallodlarni qo'shib, zindonning ustiga chiqarib eshikni mahkamladi. (“Oshiqnoma”, 3-kitob, 100-bet.)

Mirg'azab, mahosil so'zlari lashkar, navkar degan ma'nolarni anglatadi.

Arablarda yirik gavdali, shop mo'ylovli jangchilarni mahosil nomi bilan yuritganlar. Mirg'azablar zindon qo'riqllovchi maxsus bo'linmalarda xizmat qilishgan.

Avazni sizga asir qilib keltirib berishga quvvatim yetadi, dedi Bozirgon.
(Go'ro'g'li, 355-bet.)

G'anim kallasini qilichlab qirdik. (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 234-bet.)

Bu so'zlardan tashqari, g'alaba, zafar, mag'lub, tobe', hamla, himoya, fath, xavf, jasorat kabi ko'plab so'zlar og'zaki nutqda ham faol qo'llaniladi.

4. Narsa-predmetlarni anglatuvchi so'zlar

Sandiq, qulf, qafas, libos, zunnor.

Yasovullar sandiqni berkitib qulfladilar va uni daryoga tashladilar.
(“Oshiqnoma”, 5-kitob, 22-bet.)

Ko'hna dunyo mango bo'lg'ondir qafas,

*Podshoxlar **suhbatin** qilmanglar **havas**.* (Go'ro'g'li, 367-bet.)

*Juvon uyga kirib toza **liboslarini** kiydi.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 87-bet.)

*Kecha-kunduz bo'yni uzra zulfi **zunnorini** ko'r.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 48-bet.)

Zunnor - musulmon davlati hududida yashab, boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar musulmon emasligi belgisi sifatida taqib yuradigan, charmdan yasalgan yoki ma'lum tusdagi jundan eshilgan chizimcha, belbog'dir.

Soat – zamon - daqiqa, fursat:

Shum falak ilgidan omon,

*Aylamasman **soat-zamon**.* (Go'ro'g'li, 355-bet.)

Binobarin, arabiy istilohlar og'zaki va yozma nutqda ko'plab uchraydi. Yuqoridagi misolda keltirilgan **suhbat**, **havas** so'zlari ham shular jumlasidandir.

5. Jug'rofiy nomlar

Makka, Ka'ba, Basra, Bag'dod, Shom, Iroq, mag'rib, mashriq.

*Sizga bizlarning so'zimiz: **Makka** o'n sakkizming olamning hojatini ravo qilur, dedilar.*

*Ey o'g'lim, bu xonai **Ka'ba** turur, ne tilasang ravo bo'lur, dedi otasi.* (Oshiqnoma, 3-kitob, 196-bet.)

Bag'dod bilan **Basra** o'rtasida oltmish uyli arab bor erdi. ("Oshiqnoma", 3-kitob, 186-bet.)

***Basra** shahrini kezib, bordim yana **shomu** sharif.* ("Oshiqnoma", 4-kitob, 69-bet.)

*Uning husnining ovozasi Qofdan Ka'baga, **mag'ribu mashriqqa**, yer-u ko'kka tarqalib, olamga ovoza bo'lib ketdi.* ("Oshiqnoma", 5-kitob, 6-bet.)

Bu nomlar bilan birga Halab, Karbalo, Misr, Yaman, Sahroi Kabir kabi ko'plab toponimlar dostonlar leksikasidan o'rin olgan. Odatda bu nomlar dostonlarning muqaddimasida makon sifatida tilga olinadi. Bu shaharlar doston ijrochilari-baxshilarga sehrli, afsonaviy joylar kabi tuyuladi va ular bu nomlarni ertaklardagidek tasavvur qilib, voqealarni hikoya qilishga kirishadilar.

6. Antroponimlar

Odam ota, Havo ona, Nuh nabi, Xizr Ilyos, Ibrohim, Choriyorlar, Sulaymon, Dovud.

***Odam** uchun xalq aylading **Havoni**.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 317-bet.)

*Haqning Rasulidir **Ibrohim** Xalil.*

*Olamni mum etgan hazrati **Dovud**.*

***Sulaymondur** anga farzandi mas’ud.*

Rasulning do’stlari Siddiqi Akbar,

Ikkinchi yoridur hazrati Umar,

Uchinchi Usmondur, to’rtinchi Haydar. (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 326-bet.)

*Alardin so’ng **Nuhi nabi** o’tdilar.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 318-bet.)

Rasul amaklari Hamzai Abbos,

*Obi hayot ichgan yo **Xizri Ilyos**.* (“Oshiqnoma”, 1-kitob, 327-bet.)

Arab tiliga aloqador antroponimlar hozirgi davrda ham keng doirani tashkil etadi. Abdulla, Akbar, Anvar, Munavvar, Muattar, Mukarram, Malika, Mashhura, Saodat, Muhabbat kabi ko’plab ismlarga duch kelish mumkin. Bu ismlarning aksariyati ekzotik nomlar sifatida qoraladi.

7. Urf-odatlar bilan aloqador so’zlar

Assalom, vaalaykum, rahmat, muborak, nikoh, motam, ma’raka, janoza, duo.

***Assalomu alaykum**, deb kirsa, chotmaning to’rida bir kampir o’tiribdi.* (“Oshiqnoma”, 4-kitob, 77-bet.)

*Hammamiz ham murod-maqsadimizga yetgaymiz, eshitganlaringiz uchun **rahmat!*** (“Oshiqnoma”, 4-kitob, 31-bet.)

***Muborak** izingni bir ko’rdim, endi armonim yo’q.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 106-bet.)

***Omin!** Oblohu akbar. Tammatul kitob baavni malikul vahhob.*

*Ollo yoring bo’lsin, dedi cho’pon **duoga** qo’l ko’tarib.* (“Oshiqnoma”, 4-kitob, 238-bet.)

*Yunus aytar, **nikohni** qiy,*

Keyin ko’rarsan izzat-siy. (Go’ro’g’li, 71-bet.)

Motam liboslarini kiyib, **janozani** o'qib, bir aytimchiliqlar ayta berdi.
(Go'ro'g'li, 466-bet.)

Bezuryodni ajal yiqsa,

Tutilmas **ma'raka-shayi**. (Go'ro'g'li, 466-bet.)

Islom dinining ta'siri bilan mahalliy urf-odatlariga diniy mafkura bilan aloqador udumlar jiddiy ta'sirini o'tkazib, singishib ketgan. Natijada ushbu so'zlarni qo'llash odatiy tus olgan.

8. Diniy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar

Qur'on, musulmon, sajda, namoz, toat-ibodat, shariat-tariqat, jannat, masjid, madrasa.

Ko'kdin engan besh narsaning,

To'rt kitobning biri **Qur'on**. (Go'ro'g'li, 292-bet.)

Hazrati Rasulning oldinda nuri,

Xadicha tanidi, **musulmon** bo'ldi. ("Oshiqnoma", 4-kitob, 92-bet.)

Dovudning qirq o'g'lin **sajdada** olding,

Har kima bir alam qo'ygan dunyosan. ("Oshiqnoma", 4-kitob, 133-bet.)

Kecha-kunduz qo'ymay o'qir **namozin...**

Toat-ibodatlar Shohsanamdadur. ("Oshiqnoma", 4-kitob, 58-bet.)

Haqiqat ummondur, **tariqat** obdur,

Shariat shartidin kecha bilmassan. ("Oshiqnoma", 4-kitob, 85-bet.)

Ko'rguzmadi mango huri **jannati**,

Haq bermadi ko'ngil sevgan davlati. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 80-bet.)

Qalandar shaharga kirib, ko'chalarni, **masjid, madrasalarni** aylanib boraverdi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 63-bet.)

Xalq dostonlarining qo'lyozma nusxalarida diniy tushunchalar bilan aloqador leksik qatlam ancha salmoqlidir. Chunki, dostonlarni yozuvga ko'chirgan xattotlar madrasa ta'limini olgan savodli kishilar bo'lishgan.

9. Belgi, xususiyat va holat bildiruvchi so'zlar

Ushbu toifa so'zlar forsiy o'zlashmalardagi poetizmlarning arabiy muqobillaridir. Ularda aksariyat hollarda yor go'zalliklari, kiyimlari,

taqinchoqlariga nisbatan arabiy ohangdor so'zlar tanlab olinadi.

Qamar yuz, hilol qosh:

Yuzi qamar, ikki qoshi hiloli,

O'n barmog'i qo'sha-qo'sha xinoli. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 121-bet.)

Qalam qosh, hinju tish:

Qora ko'z, qalam qoshlining,

Gul yuzli, hinju tishlining. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 136-bet.)

Xumor ko'z, nuqta xol:

Yor xumor ko'zlaring na tilar mannan. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 251-bet.)

Oq yuzida nuqta xoli

Tohirning ne kechar holi. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 10-bet.)

Alif qomat, nuqra qosh:

Alifdek qomating o'xshatma dola,

Qurbon o'lam, sarvi qaddi nihola. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 17-bet.)

Daryo yutdi, dur, nuqraning qoshini. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 29-bet.)

Anjum kiprik, chashmi mast. (ko'zi xumor):

Yuzi to'lin on kabi, kiprigi anjum lashkari. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 48-bet.)

Qurbon o'lam, yorni chashmi mastina. ("Oshiqnoma", 1-kitob, 93-bet.)

Jallod ko'z, shamshir qosh:

Jonim oldi jallod ko'zlar. ("Oshiqnoma", 4-kitob, 89-bet.)

Qoshing shamshiri yetkach, bir nafasda,

Sovutni yirtibon, qalqona chopdi. ("Oshiqnoma", 4-kitob, 68-bet.)

Ar-ar qomat, shamsi qamar yuz:

Qadding gula mangzar, qomating ar-ar. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 250-bet)

Shamsi qamar yuzli, qoshi hilolim,

Majnunman ishqingda, Layli misolim. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 83-bet.)

Shikasta hol, xasta jon:

Shikasta holimni so'rsang ne bo'ldi,

Yor yo'lida berdim xasta jonimni. ("Oshiqnoma", 5-kitob, 122-123-bet.)

Atlas libos:

Egnida atlas libos, bekmudur, sultonmudur. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 37-bet.)

Ra’no yigit, munaqqash peshtoq:

Oldi jonim yuzi anvar, qomati ra’no yigit. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 36-bet.)

Munaqqash peshtoqli, gul saroyini. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 52-bet.)

Murassa’ toj.

Boshiga murassa’ toj qo’yib, beliga zarrin kamar bog’ladilar.
 (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 119-bet.)

Ayrim holatlarda birikmalardagi so’zlarning bittasi turkiydan, bittasi arabiydan tashkil topadi:

Turkiy-arab: olmos qilich, xanjar kiprik

Olmos qilichimni taqib belimdan (“Oshiqnoma”, 6-kitob, 154-bet.)

Kipriging xanjari bag’rim tilibdur. (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 96-bet.)

Ayrim holatlarda birikmalardagi so’zlarning bittasi forsiydan, bittasi arabiydan tashkil topadi va gapdagi ma’nodorlik va ohangdorlikni yanada kuchaytiradi.

Arab+fors: jannat guli.

Xo’blar orasinda, jannat gulida. (“Oshiqnoma”, 4-kitob, 89-bet.)

Forsiy+arab: shakkar maqol.

Yusufi soniymudirsan to’tidek shakkar maqol. (“Oshiqnoma”, 4-kitob, 69-bet.)

Belgi-xususiyat bildiruvchi so’zlarning ko’lami ancha keng. Og’zaki nutqda hurmat, fikr, va’da, fahm, muyassar, xafa, kulfat, sayr, arz, mehribon, xavf, izzat, insof, mushkul, nasihat, umid, ta’sir, gunoh, ahvol, hayron, ikrom kabi ko’plab arabiy o’zlashmalar faol ishlatiladi va tilning lug’at boyligini oshiradi.

10. Yordamchi so’zlar.

Ammo, balki, faqat

Ammo bir kun Jig’olibek, bu ahvolni ko’rib, o’ylanib qoldi. (Go’ro’g’li, 22-bet.)

Tog’larda qirmizi gullar,

Har yona sochildi, balki. (Go’ro’g’li, 449-bet.)

*Kampir Yakka ko'zning **faqat** ko'zigagina o'q o'tishini aniqlab beradi.*
(“Oshiqnoma”, 4-kitob, 312-bet.)

11. Modal so'zlar.

Lozim, ehtimol, bil'aks.

*Taqsir, Xudoning farmonig'a bo'yinsunmak **lozimdur**, dedi vazir.*
(“Oshiqnoma”, 3-kitob, 262-bet.)

***Ehtimoli** bor, Chambilbelda xon bo'lsang, tedi.* (“Oshiqnoma”, 4-kitob, 303-bet.)

*Magaram ango javob bersang ruxsat bo'lur, **bil'aks** ruxsat yo'qdur, dedi.*
(“Oshiqnoma”, 4-kitob, 82-bet.)

12. Arab tilida ko'plikni ifodalovchi so'zlar.

Avliyo, anbiyo, xaloyiq, aflok, samovot.

*Bu tog'ning otini Safo tog'i derlar. Uch yuz oltmish **avliyoning** manzilgohi turur.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 204-bet.)

Ozod ayla yaratgan haqqi uchun,

*Haq mursali **anbiyo** haqqi uchun.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 21-bet.)

***Xaloyiq** Tohirjon ketdi, Zuhrajon ham u bilan ketib qoladi, deb zoru afg'on qildilar.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 22-bet.)

*Anjumning ohidin o'rtanur **aflok**.* (“Oshiqnoma”, 2-kitob, 409-bet.)

*O't olsin, tutashsin yetti **samovat**.* (“Oshiqnoma”, 5-kitob, 78-bet.)

Dostonlar leksikasida bu misollardan tashqari, *hatto, nafaqat* kabi yordamchi so'zlar, *xususan, albatta* singari modal so'zlar, *nujum, muluk, ulamo, akobir, afg'on* kabi ko'plikni ifodalovchi so'zlar ko'p qo'llaniladi.

Gap orasida *avval, oxir* kabi ravish turkumiga oid so'zlar ham faol qo'llaniladi:

***Avvalu oxirni** bilgan bir Xudodin o'rgilay,*

Botinu zohirni bilgan avliyodin o'rgilay. (Go'ro'g'li, 30-bet.)

Umuman olganda, dostonlar leksik boyligida arabiy qatlam forsiy qatlamdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

Bu soʻzlar asrlar davomida diniy mafkura jarayonida, maʼrifatli kishilar taʼsirida turkiy tillar lugʻat fondiga kirib, ommalashib ketgan. Ayniqsa sheʼriyatda bu qatlamning koʻlami ancha keng doirani tashkil etadi.

Uchinchi bob yuzasidan quyidagicha qisqa xulosalarga kelish mumkin:

1. Xorazm dostonlarining tub asosi turkiy leksikani tashkil qiladi. Xorazmda istiqomat qiluvchi oʻgʻuz va qipchoq shevalari vakillarining soʻzlashuv nutqidagi koʻplab soʻzlar oʻzbek adabiy tilida mavjud.

Xalq dostonlarini ijro qiluvchi baxshilar ham oʻsha sheva vakillari boʻlganliklari sababli, ular repertuaridagi dostonlar tili ham soʻzlashuv tiliga yaqin tarzda namoyon boʻladi.

Albatta badiiy nutqda boʻyoqdorlik kuchli boʻlganlikdan unda oʻzlashma qatlamga oid soʻzlardan ham foydalaniladi.

2. Xorazmda tarqalgan qoʻlyozma dostonlar leksikasi bir qancha oʻziga xosliklarga ega. Birinchidan, ularda qadimiy turkiy tilga mansub eskirgan turkiy leksika oʻzini namoyon qilib turadi. Ikkinchidan, shevaga oʻzlashib ketgan qadimiy xorazmiy tiliga oid ayrim leksik birliklar koʻp uchraydi. Uchinchidan, ushbu dostonlarni koʻchirgan kotiblar savodxon ziyolilar boʻlganligi sababli doston matniga ular arabiy, forsiy istilohlarni ham sezilarli darajada olib kirganlar.

3. Dostonlardagi umumturkiy leksik qatlam oʻzining salmoqdorligi bilan alohida ajralib turadi. Dostonlar matni tarkibidagi turkiy soʻzlarni “Devonu lugʻatit turk” asaridagi soʻzlarga taqqoslash bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Turmushda uchraydigan *et*, *yogʻ*, *choʻrak*, *chanoq*, *koʻza*, *qumgʻon* kabi koʻplab soʻzlar bunga misol boʻla oladi. Dostonlar leksikasida uchraydigan va “Devon”dagi soʻzlarga mos keladigan koʻplab leksik birliklar hozirda oʻzbek tilida uchramasa-da, qardosh ozarbayjon, turkman va qoraqalpoq tillarida faol ishlatiladi.

4. Xorazm dostonlari tilida faol qo'llaniladigan o'zlashma qatlamning salmoqdor qismini forsiy so'zlar tashkil etadi. Belgi-xususiyat bildiruvchi, uy-ro'zg'or ashyolarini ifodalovchi, daraxt va o'simliklar bilan aloqador, chorvachilik, dehqonchilikka oid, oziq-ovqat, qarindoshlik atamaları bu so'zlarning asosini egallaydi. Forsiy o'zlashmalar badiiy nutqda bo'yoqdorlikni oshirish vositalaridan biri bo'lib, aksariyat hollarda sifatlash, metafora, ramz kabi badiiy tasvir vositalarining shakllanishida katta rol o'ynaydi.

5. Forsiy lisoniy qatlam poetizm va ekzotizmlar hosil hilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli turli ismlar: *Mohiro'y*, *Sitora*, *Oftob*, *Sanobar*; *siyo zulf*, *zar kokil*, *mujgoni zebo* kabi o'xshatish vositalari aksariyat hollarda forsiy leksik qatlamga mansub holda ko'zga tashlanadi.

Forsiy qatlamning dostonlar tilida salmoqdor namoyon bo'lishining qator sabablari mavjud bo'lib, ularning birinchisi qadimgi xorazmiy tilining shevadagi aks-sadosidir. Ikkinchi sababi esa ko'p asrlar davomida Xorazm vohasida fors tilining davlat tili sifatida xizmat qilishi, ijodkorlarning o'sha tilda asarlar bitishidir. Albatta, forsiy zabon xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarning ta'sirini ham unutmaslik lozim.

6. Dostonlar leksik tarkibidan muhim o'rin egallagan yana bir qatlam arabcha so'zlardir. VIII asrda arablarning O'rta Osiyo hududiga kirib kelishi, til sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ayniqsa, islom dinining ta'siri, maktab va madrasalardagi ta'lim tizimi, davlat boshqaruvidagi asosiy tamoyillar arab tilining ta'sir jarayonini kuchaytirdi.

Ana shu qator omillar dastlab ilm-fan, madaniy-ma'rifiy sohaga oid ko'plab so'zlarning mahalliy tilga kirib kelishini kuchaytirdi. Natijada mulla, ilm, kitob, qalam, savod, ulamo, shuaro, she'r, maktab, madrasa, kabi ko'plab so'zlar asta-sekin tildagi arabiy qatlamni shakllantira boshladi.

7. Dostonlar leksikasiga razm solsak, eng avvalo, ularning tiliga ma'rifiy atamalarining kirib kelganligiga guvoh bo'lamiz. Keyinchalik ijtimoiy-siyosiy, sohaga oid: hokim, hukm, vazir, anjuman, qaror kabi so'zlarning; harbiy sohaga taalluqli: dubulg'a, mirg'azab, g'anim, asir kabi leksemalarni, turli predmet va

uy anjomlari bilan aloqador sandiq, qulf, libos singari so'zlarni, shuningdek jug'rofiy atamalardan Makka, Madina, Basra, Bag'dod kabi nomlarning o'zlashganligiga guvoh bo'lamiz.

Ma'lumki, dostonlarda makon va zamon tushunchasi mavjud. Ularning aksariyatida makon sifatida Misr, Yaman, Bag'dod kabi toponimlar tilga olinadi. Bularning barchasi iqtisodiy-madaniy aloqalarning ta'siridir.

8. Dostonlardagi badiiy nutqda tasviriylilikni ro'yobga chiqarish uchun ko'plab arabiy o'zlashmalarga murojaat qilinadi. Xuddi forsiy so'zlar kabi arabiy leksik birliklar ham oshiq va ma'shuqalar go'zalligini ifodalashda epitet, o'xshatish, metafora, ramz, metonimiya kabi vazifalarni bajarib, asar badiiyatini yuksaltirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Dostonlar she'riyatida qalam qosh, hinju tish, xumor ko'z, nuqta xol, hilol qosh, alif qomat, atlas libos, murassa' toj singari rang-barang birikmalar qo'llanilib, ular badiiy nutqqa o'ziga xos zeb berishda asosiy vositalar bo'lib hisoblanadi.

Binobarin, dostonlar leksikasida umumturkiy qatlam asos bo'lgani holda badiiy nutqning barkamolligini ta'minlashda yordamchi omil sifatida forsiy, arabiy o'zlashmalarga ham asosiy e'tibor qaratiladi. Natijada tilning lug'at boyligi tobora o'sib, nutqiy barkamollik ro'yobga chiqadi.

XULOSA

1. Xalq dostonlari har bir millatning o'ziga xos badiiy tarixi bo'lib, ularda o'sha millatning asrlar osha sayqallashib kelgan boy lisoniy merosi o'z mujassamini topadi.

Xorazm dostonlarida ham vohada yashab kelayotgan talantli baxshilarning xalqona badiiy nutqi o'z ifodasiga ega bo'lib, bu nutqning negizini turkiy leksika egallaydi. Ushbu leksikaning asosiy qismini o'g'uz lahjasi, bir qismini esa qipchoq shevalariga oid leksemalar tashkil etadi. Shu sababli dostonlar tilidagi leksik dialektizmlarda ko'proq o'g'uz elementlari ustuvorlik qiladi. Bu xususiyat semantik dialektizmlarda yanada yorqinroq ko'rinadi. Ular shakl va talaffuz jihatidan o'zbek adabiy tiliga to'la mos kelsa-da, ma'no jihatdan tubdan farq qiladi.

2. Dialektizmlarning ko'lam doirasi ancha keng va rang-barangdir.

Doston ijrochilari badiiy nutqda ko'proq so'zlashuv nutqiga asoslanishadi. Shu boisdan xalq orasida qadimdan ommalanib kelgan turli iboralarga ham faol munosabatda bo'lishadi. Bu tamoyil o'z-o'zidan frazeologik dialektizmlarni badiiy nutqqa olib kiradi. Ushbu toifa dialektizmlar obrazli tasvirni ro'yobga chiqarishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ular ko'proq stereotip-o'zgarishsiz tarzda voqeadagi vaziyatga moslab ishlatiladigan iboralardir.

Dialektizmlar fonetik yo'l bilan ham paydo bo'ladi. Eliziya, reduksiya va metateza hodisalari ularning vujudga kelishida asosiy rolni o'ynaydi. Grammatik dialektizmlarda ko'proq kelishik qo'shimchalarida o'zgarish ko'zga tashlanadi. Shuningdek, dostonlar tilida umumo'g'uz shevalariga xos ifodalar ham grammatik dialektizmlarning paydo bo'lishiga ta'sir o'tkazgan.

3. Til o'zgaruvcha hodisadir. Jamiyat taraqqiyoti, turli madaniy-iqtisodiy aloqalar natijasida uning tarkibiga turli sohalarga oid so'zlar kirib keladi. O'z navbatida muayyan doiradagi so'zlar iste'moldan chiqib ketadi. Shu tariqa arxaizm va tarixiy so'zlar vujudga kelib, ular lug'at fondidan joy olib meros so'zlarga aylanib boradi. Dostonlar tilida arxaizmlar salmoqli o'rin egallaydi. Bu toifa so'zlar ayniqsa XIX asrda ko'chirilgan qo'lyozma dostonlar tilida

ko'proq uchraydi. Chunki, o'sha davrda arxaizmga aylanmay, faol ishlatilgan so'zlarning aksariyati hozirgi davrda iste'moldan chiqib ketdi. Bu xususiyat leksik arxaizmlarda ayniqsa ko'proq namoyon bo'ladi.

Arxaik xususiyat grammatik shakllarda ham, xususan, bog'lovchi, ko'makchi, undalma so'zlarda ko'proq uchraydi.

4. Dostonlar qaysi davrda ko'chirilgan bo'lmasin ularning leksikasida o'z davrigina emas, balki, eng qadimiy davrlarga xos tarixiy atamalar ham uchraydi.

Tarixdan ma'lumki, har bir iqtisodiy tuzum o'z boshqaruv tizimiga ega. Bu tizimdagi turli lavozimlar, harbiy sohadagi mansab nomlari, qurol-yarog'lar, diniy mafkura va uning yo'nalish doirasidagi atamalar albatta badiiy nutqdan o'rin egallaydi. Albatta bir iqtisodiy tuzumdagi bunday tarixiy nomlar ikkinchi bir iqtisodiy tuzumda o'z kuchini yo'qotib, boshqa muqobillar uning o'rnini egallaydi. Tarixiy so'zlar, badiiy nutqda muayyan ehtiyoj tufayli qo'llaniladi. Bu nomlar me'moriy obidalar, madaniy muassasalar doirasida ham namoyon bo'ladi. Va tarixda o'z nomi bilan muhrlanib qoladi.

5. Dostonlar tilidagi chegaralangan qatlamning geneologik asoslarini aniqlash ham muhim masalalardandir. Xorazm dostonlariga xos shunday bir xususiyat borki, ularning tilida turkiy qatlam bilan bir qatorda forsiy va arabiy qatlam ham ishtirok etadi.

Doston ijrochilari badiiy nutqda tasviriylilikni yuksaltirish uchun ko'p hollarda o'zlashma qatlamga murojaat qilishadi. Dostonlar leksikasida salmoqdor o'rinni forsiy qatlam egallaydi.

Buning asosiy sabablaridan biri shevaga singishib ketgan qadimiy xorazmiylar tiliga oid leksemalarning ko'pligidir. Bundan tashqari, qo'lyozma dostonlarni matnga ko'chirgan kotiblarning forsiy tilni mukammal o'zlashtirganligidir.

6. Dostonlar tilidagi forsiy qatlam badiiy matnda tasviriylilikni ro'yobga chiqarishda eng muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ular aksariyat hollarda epitet, ramz, metafora kabi badiiy vositalarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Uy-ro'zg'or, ishlab chiqarish, chorvachilik, sug'orish tizimi, oziq-

ovqat va qarindoshlik atamaları mazkur qatlamning asosini tashkil etadi. Shuni yana bir bor ta'kidlash zarurki, ushbu doiradagi atamalarning asosiy qismi substrat qatlamga tegishlidir.

Shu bilan birga forsiy qatlam haqida gapirganda mahalliy aholining forsiyzabon xalqlar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalarini ham hisobga olish zarur. Qolaversa, Xorazm davlatchiligida forsiy tilda hujjatlarni rasmiylashtirish uzoq yillar davom etgan.

7. Dostonlar leksikasida forsiy qatlamdan keyin turuvchi ikkinchi lisoniy o'zlashma arabizmlardir.

VIII asrdan boshlab arab istilosi natijasida yerli aholi bilan arablarning aralashuv jarayoni boshlanadi.

O'rta Osiyoda Islom dinining qabul qilinishi, arab yozuviga o'tilishi, maktab, madrasalarda arab tilining o'qitilishi turkiy qatlamga arabiy so'zlarning kirib kelishini kuchaytirdi. Dostonlar leksikasiga razm solinsa, asosan, boshqaruv, ijtimoiy-siyosiy sohaga oid atamalarning ko'pligiga duch kelish mumkin. O'z navbatida harbiy sohaga, shuningdek jug'rofiy nomlarga taalluqli atamalar ham anchani tashkil etadi. Ayniqsa, dostonlardagi makon va zamon tushunchasidagi epik manolardan Yaman, Misr, Basra, Bag'dod kabi jug'rofiy tushunchalar ko'p uchraydi.

8. Dostonlardagi badiiy nutq o'zlashma qatlamga ko'proq murojaat qiladi. Shu sababli xuddi forsiy qatlamdagi kabi arabiy o'zlashmalar ham poetizmlar, ekzotik so'zlar sifatida faol qo'llaniladi. Arabiy so'zlarni tashxis, epitet, metafora, ramz, metonimiya vazifalarida ishlatish asnosida asar badiiyatini yuksaltirish asosiy xususiyatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Dostonlar badiiyatida, oftob-shams, mox-qamar, anjum-sitora, sadaf-inju kabi forsiy-arabiy dubletlar dostonlarning lisoniy tarkibida ko'plab qo'llaniladi. Shuningdek, arabiy-forsiy, forsiy-arabiy izofalar ham birgalikda qo'llanilib, matndagi yuksak badiiylikni ta'minlashda o'ziga xos muhim rolni o'ynaydi.

9. Arxaizm va tarixiy so'zlarni hozirgi badiiy adabiyotda qo'llanilish tamoyili bilan dostonlardagi matnda ishlatilishdagi tamoyilni bir xil deb qarab

bo'lmaydi. Hozirgi badiiy adabiyotda ushbu chegaralangan qatlam o'z ishlatilishi davridagi hayotni ko'rsatish maqsadida tanlanadi. Dostonlarda esa bu toifa so'zlarning katta ko'pchiligi o'sha davrdagi faol so'zlashuv tilida ishlatilgan bo'lishi mumkin. Ammo dostonlarda shunday so'zlar ham uchraydiki, ular dostonlar ko'chirilgan davrlarda allaqachon iste'moldan chiqib ketgan edi. Fir'avn, fag'fur kabi so'zlar bu fikrimizni isbotlay oladi.

Umuman olganda dostonlar tilida turkiy qatlam ustuvorlik qiladi. Ularni "Devonu lug'atit turk" dagi so'zlar bilan qiyoslashda ham ko'rish mumkin. Asosiy qatlamga o'zlashma qatlamning kirib kelishi jamiyat va uning qonuniyatlari bilan uzviy bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.
–Т.: Ма'naviyat, 2008. –Б.176.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йук. Тошкент: Шарк.

II. Asosiy adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Д. Бектемиров Х. Ўзбек халқ достонларининг ономастикаси. // Ўзбек халқ ижоди. –Т.: Фан, 1967. –Б.177-197.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати, 3-том. –Т.: “Фан”, 1984. –Б.126.
3. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1973. –Б. 320.
4. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. –Т., 1966. –Б.82-90.
5. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978. 144-бет.
6. Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий-тарихий асослари // Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: 1981. –Б. 41-48.
7. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.
8. –Т.: Фан, 1985. 200-бет.
9. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. –Т.: Фан, 1985. 103-бет.
10. Дониёров Х. Қипчоқ шеваларини ўрганишда халқ достонларининг роли. // Ўзбек халқ ижоди. –Т.: Фан, 1967. –Б. 162-166.
11. Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик қурилиши. –Т.: Фан, 1976. –Б.. 132.
12. Жуманазаров Ю. Ўзбек адабий тили ва Жанубий Хоразм диалекти. –Т.: Фан, 1971. 76-бет.
13. Ишаев А. Халқ достонлари лексикасидан. // Ўзбек халқ ижоди. –Т.: Фан, 1967. –Б. 168-169.

14. Ишаев А. Чамбил сўзининг этимологияси // Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. –Т.: 1978. –Б.100-103.
15. Ишаев А. Достонлар тилининг баъзи бир хусусиятлари. // Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни. –Т.: Фан, 1971. –Б. 173-179.
16. Исҳоқов С. Эски ўзбек тили ва ёзуви. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995. –Б. 110.
17. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Т.: Фан, 2007. –Б. 122.
18. Йўлдошев Т. Тожикистондаги ўзбек шеваларининг Хоразм ўғуз шевасига муносабати // Ўзбек тили Хоразм ўғуз шеваларини ареал ўрганиш тажрибасидан. –Т.: 1988. –Б.24-32.
19. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995. –Б. 86
20. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995. –Б.88.
21. Маҳмудов Н. Ўзбекнинг ўлмас сўзи // Тил. –Т.: 1998. –Б.35.
22. Миртожиев М. Сўзларнинг шакл муносабатига кўра турлари // Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: 1981. –Б.235.
23. Машарипов О. Хоразмнома. Қадимги Хоразм. –Урганч, “Хоразм”, 2005. –Б. 272.
24. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Т.: “Фан”, 1973. –Б.188.
25. Неъматов Х. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995. –Б.128.
26. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. –Т. “Фан”, 1964. –Б. 180.
27. Рўзимбоев С. Хоразм достончилиги эпик анъаналари. Урганч, “Университет”, 2008. –Б.58.
28. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Т.: “Ўқитувчи”. 1996. –Б.48.

29. Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” достонининг тили ҳақида. // Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни. –Т.: Фан, 1971. –Б. 146-172.
30. Шанский Н.М., Быстрова Е.А., Аликулов Т. Рус тилидаги 700 фразеологик ибора. –Т.: “Ўқитувчи”, 1990. –Б. 110.
31. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек шевалари ва уларни ўрганиш ҳақида умумий маълумот. // Ўзбек халқ шевалари луғати. –Т.: “Фан”, 1971. –Б. 386-407.
32. Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981. –Б.313.
33. Ўзбек шевалари лексикаси. –Т.: “Фан”, 1991. –Б. 230.
34. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек сўзлашув нутки, 1-қисм. Самарқанд, “Университет”, 2006. –Б. 130.
35. Қорақалпоқ фольклори. Нөкис, “Қорақалпақстан”, 1981. –366.
36. Қўчқортөев И. Бадиий нутқ стилистикаси. –Т.: ТошГУ, 1975. –Б.7-8.
37. Ғойибов С. Ўзбек тили лексикасининг стилистик қатламлари // Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: 1981. –Б. 145-146.
38. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1974. –Б.307.

III. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. “Девону луғатит турк” асарида ўғуз компонентининг ўрни масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1971. №5. –Б.51-56.
2. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шеваларидаги форсча ва тожикча лексик бирликлар. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, №3. –Б. 40-46.
3. Жуманиёзова М. Хоразм халқ қўшиқлари лексикаси. Филол. Фанлари номзоди... дис. Автореф. –Т.: 1999. –Б. 22.
4. Ишаев А. Манғит шеваси лексикаси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. 1960. №5. –Б.64-65.
5. Йўлдошев Р. Тошҳовуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари. Номзод. дисс.автореферати. –Т.: 2002. –Б.20.

6. Рўзимбоев С.С. Жанубий Хоразм дostonлари тилининг луғавий – маънавий таҳлили. (Шаҳриёр” ва “Маликаи Завриё” дostonлари асосида) Номзод. Дисс. Автореферати. –Т.: 2000. –Б.25.
7. Турсунов С. Алпомиш дostonининг лексик-фразеологик хусусиятларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. №3. –Б.58-60.
8. Турсунов С. “Алпомиш дostonи лексикасини ўрганишга доир.
// “Ўзбек тили ва адабиёти”. -1986, №3. –Б.36-39.
9. Умиров И. Ўзбек тили парафразалари ТДПУ нашриёти. –Т.: 2004. –Б.66.
10. Файзуллаева Д. Халқ дostonлари тилининг диалектал хусусиятлари.
// Ўзбек тили ва адабиёти. 2013, №3. –Б. 96-98.
11. Файзуллаев Б. Диалектизмлар ва уларнинг бадиий адабиётдаги ўрни.
// Ўзбек тили ва адабиёти. 1977, №4. –Б. 35-38.
12. Холмонова З.Т. “Шайбонийхон” дostonи лексикаси.
Номзод. Дисс. Автореферати. –Т.: 1998. –Б.24.
13. Холмуродова Ж.И. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал –услубий хусусиятлари (“Хирмондали” ва “Қирқ минглар” дostonлари асосида) номзод. Дисс. Автореферати. –Т.: 2000. –Б.24.
14. Холмонова Т. “Шайбонийхон” дostonи лексикаси.
Номзод. дисс. Автореферати. –Т.: 1998. –Б.24.
15. Шамсиддинов Ҳ. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. Филол. Фанлари д-ри. Дисс. Автореф. –Т.: 1999. –Б.46.

IV. Internet saytlari:

1. w.w.w. Google.uz.
2. w.w.w. ziyo.com.
3. w.w.w. Яндекс.uz.
4. w.w.w.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html
5. w.w.w.ta’lim.uz
6. w.w.w.talant.spb.ru/G’wald.html
7. w.w.w.search.re.uz